

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

FUTBOL VA UNI O‘QITISH METODIKASI

60112200-jismoniy madaniyat ta‘lim yo‘nalishi uchun

DARSLIK

ANNOTATSIYA

Ushbu darslik 60112200-jismoniy madaniyat yoʻnalishi talabalari uchun moʻljallangan boʻlib, darslikda futbol oʻyini tarixi, rivojlanish bosqichlari, oʻyin qoidalari, oʻyin texnikasi va taktikasi asoslari bayon etilgan.

АННОТАЦИЯ

Учебник предназначено для студентов курса физической культуры 60112200. В учебниках описаны история игры в футбол, этапы ее развития, правила игры, основы техники и тактики игры.

THE SUMMARY

The textbook guide is intended for students of the 60112200 course of physical culture. The study guide describes the history of the football game, the stages of its development, the rules of the game, the basics of game techniques and tactics.

KIRISH

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab respublikamiz rahbariyati tomonidan barcha sport turlari qatori futbolga alohida e'tibor qaratildi. Shu boisdan ham mamlakatimizda futbolga bo'lgan e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda.

Futbol – haqiqiy atletik o'yindir. U tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch va sakrovchanlik kabi jismoniy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O'yin davomida futbolchi o'ta yuqori yuklamadagi ishni bajaradi va bu narsa, o'z navbatida insonning funksional imkoniyatlari darajasini oshiradi, aqliy – irodaviy sifatlarni tarbiyalaydi.

O'zbekistonda futbol jismoniy tarbiya vositasi sifatida keng tarqalgan. Futbol bilan maktab, kollej, institut, universitet, ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlarda shug'ullanishadi.

O'yin jamoaviy kurashning murakkab vaziyatida o'tadi. Bunda har bir jamoa eng yaxshi natijaga erishish uchun barcha bilim va imkoniyatlarini ishga soladi. O'yin negizida o'yinchilari yagona g'alaba maqsadida birlashgan ikki jamoaning kurashi yotadi. Futbol o'yini davomida har bir o'yinchi o'zining shaxsiy fazilat (sifat)larini ko'rsatish imkoniyatiga ega, lekin shu bilan bir qatorda o'yin har bir futbolchining shaxsiy intilishlarining umumiy maqsadga bo'ysunishini talab etadi.

Futbolchi texnik usullarni mukammal darajada bilishi, murakkab o'yin vaziyatlarida bu usullarni qo'llay olishi va jamoaning barcha a'zolari bilan kelishgan holda harakat qilishi lozim.

O'quv qo'llanmaning mazmuni futbol bo'yicha murabbiy – o'qituvchilar tayyorlash dasturi talablariga mos ravishda bayon etiladi hamda talabalarning futbolni o'qitish metodikasini, futbolning texnika va taktika nazariyasini o'zlashtirish, mustaqil ishiash uchun zarur bo'lgan bilimlar hamda kasbiy–pedagogik ko'nikmalarni egallashini nazarda tutadi. Ayniqsa, issiq iqlim sharoitida futbolchilarning mashg'ulotlarini rejalashtirish va pedagogik nazorat masalasiga alohida o'rin ajratilgan.

1-BOB. FUTBOL O‘YININING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

1.1. Futbol o‘yining jahonda va O‘zbekistonda paydo bo‘lishi hamda rivojlanish tarixi

Futbol eng qadimgi o‘yinlardan biridir. Inglizlarning e’tirof etishlaricha, oyoq bilan t o‘p o‘ynash Britan orollarida IX asrdayoq juda mashhur bo‘lgan.

1863-yil 26-oktyabrda Londonda Angliya futbol uyushmasining tashkil etilishi paytida bu o‘yinning 13-moddadan iborat bo‘lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan. Keyinchalik bu qoidalar boshqa barcha milliy uyushmalari uchun futbol o‘yining asosi bo‘lib qoldi.

Futbol o‘yining ilk qoidalarida belgilanishicha, maydon uzunligi 200 yard (183 metr) dan, kengligi 100 yard (91 metr) dan oshiq bo‘lmasligi kerak. Darvozalar ikki ustundan iborat bo‘lib, ular orasidagi to‘sin bo‘lmagan va ustunlar orasidagi masofa 8 yard (7,32m) bo‘lgan. 1866 yilda balandlikni cheklash uchun ustunlar orasiga arqon tortib qo‘yilgan. Yana 10 yil o‘tib, bu arqonni yag‘och to‘singa almashtirishgan.

Darvozabonning qo‘li bilan o‘ynashga haqqi yo‘q edi. 1871 yilda o‘ng qo‘l bilan o‘ynashga ruxsat berilgan, u ham bo‘lsa faqat darvoza maydoni ichida. Darvozabonning jarima maydoni ichida ham qo‘l bilan o‘ynash huquqini qo‘lga kiritish uchun 30 yildan ko‘proq vaqt kerak bo‘ladi (1902).

Uzoq vaqt moboynda na jarima to‘pi, na 11 metrlik zarba bo‘lgan. Qoidabuzarlik uchun erkin zarbalar bilan chegaralanib qolinaverardi. Nihoyat, 1891 yil eng qat’iy jazolardan biri 11 metrlik zarba kiritildi, uni inglizcha so‘z bilan “penalti” deb ataydilar.

Futbol shakllanayotgan davrlarda jamoa sardorlari o‘yin qoidalariga rioya qilinishini kuzatib turardilar. Futbol maydonida hakam 1880 yilda paydo bo‘ldi, 1 yildan so‘ng esa hakam ikkita yordamchisi bilan maydonga chiqa boshladi. Hushtak 1878 yilda kiritildi, bunga qadar hakam to‘xtatish yoki o‘yinni qayta boshlash uchun ovozdan yoki qo‘l harakatlaridan foydalanardi. O‘sha yillarda barcha milliy futbol uyushmalari uchun qoidalar bir xil yoki majburiy bo‘lmagan.

Bu vaziyat xalqaro uchrashuvlar o'tkazish yoki xalqaro musobaqalar tashkil etishda qiyinchiliklar tug'dirgan.

1882 yili to'rt mustaqil ittifoqlarining, ya'ni Angliya, Shotlandiya, Uels va Irlandiya ittifoqlarining birlashuvi bo'lib o'tdi. Bunda yagona qoidalar qabul qilindi va futbol qoidalarida u yoki bu o'zgarishlarni amalda oshirish huquqiga ega bo'lgan xalqaro kengash tasdiqlandi.

1871 yilda Angliyada mamlakat Kubogining yo'nalishi tasdiqlandi. Bu kubok uchun hozirda ingliz futbol klublari kurash olib boradilar. Xalqaro miqyosidagi ilk futbol uchrashuvi Angliya va Shotlandiya jamoalari o'rtasida 1873 yilda bo'lib o'tdi. O'yinchilar soni 11 kishidan ortiq bo'lsa, ularning jamoadagi joylashishi hozirgidan boshqacharoq bo'lgan. Angliya jamoasida 7 ta o'yinchi hujumda, 1 tasi yarim himoyada bo'lgan, shuningdek, 2 ta himoyachi va 1 ta darvozabon bo'lgan. Shotlandiya jamoasi tarkibida esa 6 ta hujumchi, 2 ta yarim himoyachi bo'lgan edi.

XIX asrning 80-yillarida futbol o'yini Evropa qit'asidagi mamlakatlarga yoyila boshladi. 1875 yilda futbol Gollandiyaga, keyinroq esa Daniyaga kirib keldi. 1882 yildan boshlab Shveysariyada, 1890 yildan Chexiyada, 1897 yildan esa Rossiyada futbol o'ynay boshladilar.

1882 yilda xalqaro uyushmalar boshqarmasiga asos solindi. Nihoyat, 1904 yil 21 mayda Frantsiya tashabbusiga ko'ra hozirda 200 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lgan Xalqaro Futbol Uyushmasi – FIFA tashkil etildi. FIFA bilan bir qatorda 1954 yildan boshlab Evropa futbol ittifoqi – UEFA ham faoliyat ko'rsatadi.

1930 yildan boshlab har 4 yilda futbol bo'yicha jahon chempionati, 1958 yildan boshlab esa milliy terma jamoalar qatnashadigan Evropa chempionatlari o'tkazilib kelmoqda. 1900 yilda futbol olimpiya sport turiga aylandi, ammo rasmiy jihatdan u Olimpiya o'yinlari dasturiga 1908 yilda kiritilgan.

Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK) 1954 yili tuzilgan bo'lib, hozirgi vaqtda 44 ga yaqin mamlakatlarni birlashtiradi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994 yildan FIFA va OFK ga a'zo bo'lgan,

hozirda FIFA va OFK tomonidan o'tkaziladigan barcha rasmiy musobaqalarda qatnashib kelmoqda.

1.2. O'zbekistonda futbolning rivojlanishi.

O'zbekistonda zamonaviy futbol o'tgan asrning boshlarida paydo bo'ladi va tezda mashxur o'yinga aylandi. Uning rivojlanish joylari Farg'ona, Toshkent, Andijon, Qo'qon va Samarqand shaxarlari bo'lgan.

Futbolni ilk bor Farg'ona shaxrida o'ynaganlar. Xuddi shu erda 1911 yilning oxirida birinchi futbol jamosi tashkil topgan.

Farg'onada tuzilgan futbol jamoalari soni 1912 yil avgustida "futbolchilar jamoasi" ga birlashishiga yo'l berdi.

Biroz vaqt o'tgach, Toshkentda xam futbol o'ynay boshladilar. Toshkentlik futbol ishqibozlar orasida eng mashxur jamoa bu TOLS – (Toshkentskoe obshestvo lyubiteley sporta) (TSIJ Toshkent sport ishqibozlari jamiyati) edi.

Bu jamiyat 1912 yilda tuzilgan bo'lib, juda qisqa vaqt ichida futbol xamda boshqa sport turlarining rivojlanishi uchun ko'p xizmat qilgan. 1912 yilning 2 yarmida O'zbekistonda futbol aytarli darajada yoyila boshladi. Futbol o'yiniga Qo'qon, Andijon va Samarqandda xam qiziqish orta boshladi.

Bu yillardagi eng qiziqarli bosqich albatta Farg'ona, Toshkent, Andijon, Samarqand futbolchilarining uchrashuvi bo'ldi. Toshkentga tashrif buyurgan ilk futbolchilar Samarqand futbolchilari to'garagi (SFT) a'zolari edi.

1913 yil 29 avgustda ular TOLS futbolchilari bilan uchrashuv o'tkazdilar. Yaxshi tayyorgarlik ko'rgan Toshkent jamoasi 5:0 hisobi bilan g'alaba qozondi. 1913 yil iyunida Andijonda "Andijon futbolchilar klubi" tasdiqlandi.

Aytib o'tish lozimki, nafaqat Farg'ona Toshkent va Samarqandda, balki O'zbekistonning boshqa shaxarlarida xam futbolning muvaffaqiyat bilan tarqalishiga qaramay, uning rivojlanishi o'zi bo'larchilik bilan o'tayotgan edi. Jamoalarni o'rgatish yo'q edi, mashg'ulotlar o'ta sodda va vaqti-vaqti bilan o'tkazilar edi. Xar bir shaxarda futbol birinchiliklari tashkillashtirilmagandi, shuning uchun xatto o'ndan ortiq jamoalar mavjud bo'lgan Toshkent shaxrida xam bironta rasmiy musobaqa o'tkazilmagan edi.

1920 yildan boshlab futbol respublikamizning chekka qishloq va maxallalariga kirib borib, mashxur o'yig'na aylandi. Yoshlar, talabalar, ishchi va dexqonlar futbolga talpina boshladilar.

1921 yil Moskva va Toshkent futbolchilarining ilk uchrashuvi o'tkazilgani bilan axamiyatga loyiqdir. 1925 yilda mamlakat jismoniy tarbiya kengashi tomonidan ommaviy jismoniy tadbirlarning taqvimi tuzildi. O'zbekistonda futbolni tashkillashtirish biroz tartibliroq tizimga ega bo'ldi.

Shunday qilib, Toshkent birinchiligi 3 toifa bo'yicha o'tkazildi va unda 28 jamoa ishtirok etdi. 1927 yilda o'zbek sportchilarini tayyorlashda muhim bosqich bo'lgan I-Umum-o'zbek spartakiadasi o'tkazildi.

Spartakiada finalida doimiy raqib bo'lib qolgan Toshkent va Farg'ona jamoalari uchrashdilar. Ikkala tarkibda ham O'zbekiston terma jamoa a'zolari chiqish qildilar. Katta qiyinchiliklar bilan 2-taymda toshkentliklar hal qiluvchi golni urdilar va 2:1 hisobi bilan g'alaba qozondilar.

1928 yil Moskvada bo'lib o'tgan xalqaro spartakiadada qatnashish O'zbekiston futbolchilari uchun nihoyatda jiddiy imtihon bo'ldi.

Futbol bo'yicha spartakiada birinchiligi uchun 22 jamoa kurash olib bordi, ular qatorida Angliya, Germaniya, Avstraliya, Shveytsariya va Finlyandiyaning ishchi klublardan iborat terma jamoalari ham bor edi.

Shveytsariya va O'zbekiston jamoalarining uchrashuvi futbol ishqibozlarida katta qiziqishga sazovor bo'ldi. O'zbek futbolchilari bu o'yinda jamoaviy o'yin, chiroyli va chaqqon kombinatsiyalar namoyish etdilar. Ammo asosiy vaqt 3:3 hisobi bilan yakunlangani sababli, golibni aniqlash uchun qo'shimcha 30 daqiqa qo'shib berildi. So'nggi 15 daqiqa ichida O'zbekiston futbolchilari Shveytsariyaliklar qarshiligini eng oldilar va raqib 8:4 hisob bilan O'zbekiston futbolchilari g'alaba qozondilar. Bir kundan so'ng esa qiyin kechgan o'yinda o'zbek futbolchilari Rossiya jamoasiga 1:2 hisobida g'alabani boy berdilar.

Keyingi yillarda o'rtoqlik o'yinlarini o'tkazish uchun O'zbekistonga Norvegiya, Germaniya, Finlyandiya, Moskva, Leningrad, Ukraina, Kavkaz orti mamlakatlaridan ko'plab kuchli futbol jamoalari keldi.

Misol uchun, 1931 yil 4 oktabrda bo‘lib o‘tgan Norvegiya terma jamoasiga qarshi O‘zbekiston kasaba uyushmalari terma jamoasi chiqdi. Norvegiyaliklar texnikali futbol namoyish etib, 5:2 hisobida g‘olib chiqdilar. Uch kundan so‘ng Skandinaviyalik mehmonlarga qarshi Toshkentning birinchi terma jamoasi maydonga tushdi. O‘zbekistonliklar o‘yinni yuqori tezlikda olib borib, 4:2 hisobida muvaffaqiyatga erishdilar.

Norvegiyalik va o‘zbekistonlik futbolchilarning uchinchi uchrashuvi 2:2 hisobidagi durang bilan yakunlandi.

1932 yilda O‘zbekistonga nemis futbolchilari tashrif buyurdilar. Bu jamoa ishchi sport klublarining eng yaxshi futbolchilaridan tuzilgan bo‘lib, ulardan ko‘pchiligi Germaniya chempionati ishtirokchilari edi. O‘zbek futbolchilari bu bo‘lajak o‘yinga qattiq tayyorgarlik ko‘rdilar va 4:2 hisobidagi g‘alabani qo‘lga kiritdilar.

Birinchi uchrashuvdan so‘ng nemis jamoasi sardori Lor shunday degan edi: «Toshkentliklar jipslashgan jamoa bo‘la olishdek ajoyib xususiyatga ega va ular biz hech narsa bilan taqqoslay olmaydigan yuqori tezlikda o‘ynadilar. Yuqori darajali jamoa bo‘lish uchun O‘zbekiston futbolchilarida barcha imkoniyatlar mavjuddir».

Takroriy uchrashuvda nemis futbolchilari bir oz ustunroq kelib, yuqori darajadagi taktik tayyorgarlikni namoyish etdilar va 3:1 hisobi bilan g‘olib bo‘ldilar.

Norvegiyalik, nemis, fin futbolchilari bilan o‘tkazilgan o‘yinlar O‘zbekistondagi ilk xalqaro o‘yinlar edi. Ular texnik va taktik tayyorgarlik borasida tajriba almashishga, o‘yinning yangi-yangi tizim(sistema)lari bilan tanishishga yordam berdi.

1934 yil O‘zbekiston poytaxtida ilk O‘rta Osiyo spartakiadasining ochilishi sharafiga bag‘ishlab 36 ming nafar jismoniy tarbiya ixlosmandlari namoyishi bo‘lib o‘tdi. Bu namoyish O‘rta Osiyo respublikalarida jismoniy tarbiya harakati o‘shining yorqin namunasi edi.

Futbol bo‘yicha musobaqalar bir vaqtning o‘zida uch stadionda bo‘lib o‘tdi,

ulardan eng kattasi spartakiada ochilishi arafasida qurilgan 10 ming o‘rinli «Spartak» stadioni edi. Bu O‘rta Osiyo respublikalari orasida futbol birinchiligi uchun olib borilayotgan ilk o‘yinlar edi. O‘zbekiston futbolchilari o‘z raqiblari bo‘lmish Turkmanistonni 3:1, Tojikistonni 5:0, Qirg‘izistonni 10:1 hisobi bilan dog‘da qoldirdilar.

1934 yil futbol jamoalarining kelgusidagi o‘sislari uchun muhim yil bo‘ldi. Birgina Toshkentda kasaba uyushmalari birinchiligida 50 ta jamoa qatnashdi.

30-chi yillarning boshida bolalar va o‘smirlar futboliga yanada ko‘proq e‘tibor berila boshladi. 1935 yil Toshkentda o‘smirlar o‘rtasida futbol bo‘yicha O‘zbekiston birinchiliginmng ilk tanlovi bo‘lib o‘tdi. Bu tanlovda Toshkent, Samarqand, Farg‘ona va Andijon terma jamoalari ishtirok etdi. Poytaxtlik yosh futbolchilar g‘alaba qozondilar.

1936 yil respublika shaharlaridagi futbol mavsumining bahorgi ochilishi ahamiyatga loyiq. Toshkentdagi musobaqa namoyishida 324 futbolchi ishtiroq etdi. Ommaviy futbol keyingi rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Umumta’lim maktablari, texnikumlar, oliy o‘quv yurtlari o‘z birinchilik o‘yinlarini o‘tqazar, muntazam ravishda korxonalarining ichki musobaqalari tashkil etilar edi.

Shahar futbol bo‘limi (seksiya) qaroriga binoan Toshkentda futbolga ixtisoslashgan birinchi bolalar va o‘smirlar maktabi ochildi.

Bu erda ko‘pgina qobiliyatli yosh futbolchilar o‘z mahoratlarini mukammallashtirar edilar. 1936 yili O‘zbekiston birinchiligida 16 shahardan terma jamoalar ishtirok etdi. Bu o‘yinlar katta qiziqish uyg‘otib, ko‘plab tomoshabinlarni jalb qildi. Shiddatli o‘yinlardan so‘ng 1-va 2- o‘rinlar Qo‘qon hamda Toshkent terma jamoalariga nasib etdi.

1937 yildan boshlab futbol musobaqalari asosida shahar terma jamoalarining match o‘yinlari emas, balki O‘zbekiston Kubogi va birinchiligi uchun klub jamoalar musobaqalari o‘tkazila boshladi. O‘sha yillardan buyon ko‘pgina guruhlar, birinchiliklar va musobaqa qatnashchilari almashdi, musobaqa o‘tkazish tamoyillari, baholash tizimi o‘zgardi, ammo

sportchilar mahoratining yangi taktik yoʻnalishlarini aniqlaydigan chempionlik unvoni uchun kurash oʻzgarmay qolaverdi.

1937 yil futbol mavsumining ahamiyatli hodisasi sobiq Ittifoq chempionati edi: 56 jamoa oʻrtasidagi guruhlarda oʻynaldi. Oʻzbekiston shaʼnini Toshkentning dinamochilari himoya qildilar. Ular futbol boʻyicha mamlakat chempionatida ishtirok etgan birinchi oʻzbekistonlik jamoa edilar.

Oʻz oʻyinlari bilan toshkentliklar sinalgan charm toʻp ustalariga munosib raqib boʻla olishlarini isbotladilar. Ular Evropaning «Spartak» jamoasini 5:0, Bakuning «Neftchi»sini 3:2, Dnepropetrovskning «Stal» jamoasini 2:1, Gorkiyning «Torpedo» jamoasini 1:0 hisobi bilan yutib, oʻz maydonlarida chiroyli oʻyinlar oʻtkazdilar. Moskvada «Krilya Sovetov» jamoasi bilan 2:2, Leningradda «Avangard» bilan 1:1 hisobida oʻynab durustgina oʻyin koʻrsatdilar.

Ammo tajriba etishmasligi sabab yuqori oʻrinlarni egallay olmadilar, natijada 8-oʻringa erishdilar (4 ta gʻalaba, 3 ta durang, 4 ta magʻlubiyat).

Sobiq Ittifoqning etakchi sport jamiyati boʻlgan «Spartak» KSJ Markaziy Kengashi birinchiligida muvaffaqiyatli chiqish qildi. Saratovdagi dastlabki oʻyinlarda ular oʻz klubdoshlarini 11:1 hisobida, keyin esa Qozonning «Spartak» jamoasi ustidan gʻalaba qozondilar. Bu gʻalabalar toshkentliklarga Ivanovoda oʻtkaziladigan final oʻyinlarida qatnashish huquqini berdi. Unda Xarkov, Krasnodar, Toshkent va Ivanovo sportchilari qatnashdilar. Toshkentliklar yaxshi oʻyin koʻrsatib, uchinchi sovrinli oʻrinni egalladilar (ular xarkovliklarni 3:1 ga yutib, Krasnodar bilan 1:1 hisobida durang oʻynadilar va mezbonlarga 0:4 hisobida oʻyinni boy berdilar).

Shu yilning oʻzida Toshkentda oʻtkazilgan «Besh yoʻl» turnirida «Lokomotiv» jamoasi muvaffaqiyatli chiqish qildi. Bu turnirda Kuybishev, Orenburg, Ashxobod va Toshkent temir yoʻllari jamoalari ham ishtirok etdi. Barcha raqiblarni engib, toshkentliklar 1-oʻrinni egalladilar.

1939 sobiq Ittifoq Kubogi uchun koʻrashda Toshkent dinamochilarining chiqishi katta muvaffaqiyatga sazovor boʻldi. 28 avgustda Moskvadagi «Dinamo» stadionida oʻzbek futbolchilari chorak finalda Bokuning «Temp» jamoasiga qarshi

to'p surdilar. O'yin juda o'tkir va shiddatli kurashda o'tdi. Toshkent dinamochilari 2:1 hisobida g'alaba qozonib, Kubok yarim finalmga yo'l oldilar. Bunda ular Rossiyaning eng kuchli jamoalaridan bo'lgan «Stalinet» (Zenit) bilan uchrashdilar va 3:0 hisobi bilan yutqazdilar. Finalda esa Moskvaning «Spartak» jamoasi leningraddiklardan 3:2 hisobida ustun keldi.

1941 yilning futbol mavsumiga Toshkent dinamochilari jiddiy tayyorgarlik ko'rgandilar. Chempionat o'yinlari taqvimiga ko'ra ular Olma-Otalik klublarni qabul qilishlari kerak edi. Ammo butun dunyo uchun fojeaviy bo'lgan 1941 yilning 22 iyunida Ulug' Vatan urushi boshlandi, shuningdek, O'zbekiston sport hayoti ham vaqtincha to'xtatildi.

1942 yilda O'zbekiston Kubok uchun kurashda Toshkentdan ikkita, Farg'ona va Samarqanddan bittadan jamoa ishtiroq etdi.

1943 yili Olma-Otada urush davrining qiyin sharoitlarida O'rta Osiyo mamlakatlari va Qozog'iston Spartakiadasi o'tkazildi. Respublikamiz futbolchilari texnik futbol o'yinini namoyish etib, Turkmaniston jamoasini 9:0, Tojikistonni 3:0, Qirg'izistonni 5:0 hisobi bilan mag'lubiyatga uchratdilar. Hatto o'zlarining qozoqlar bilan bo'lgan o'yindagi mag'lubiyatiga qaramay, 1-o'rinni egallay oldilar.

1950 yilning boshida O'zbekistonda «Paxtakor» sport jamiyati tashkil etildi. Hozirgacha mustaqil O'zbekiston chempionatida va rasmiy xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli o'yinlar ko'rsatib kelayotgan, respublikamizning eng kuchli jamoasi bo'lgan «Paxtakor»ning tuzilishi ham shu jamiyat bilan bog'liq.

1960 yildan 1991 yilgacha (tanaffuslar bilan) «Paxtakor» sobiq Ittifoqning oliy ligasida ishtirok etib keldi. Bu islohotlar va tub o'zgarishlar davri bo'lgan edi. Kichik guruh (podgrupp)lardagi saralash o'yinlaridan keyingina chempionatga yo'l olinardi. Oliy ligaga chiqish uchun tayyorlanadigan jamoa Toshkentni ikki jamoasi asosida tuzilgan bo'lib, bular «Paxtakor» va «Mehnat zahiralar» («Trudovoy rezerv») klublari edi. «Paxtakor»ning barcha ko'zga ko'rinarli muvaffaqiyatlari uning kuchlilar guruhidagi chiqishlari bilan bog'liq. Yigirma yil tanaffus bilan ikki bora 1962 va 1982 yillarda

Paxtakor oliy ligada faxrli 6-chi o'ringa sazovor bo'lgan. 1968 yilda finalga chiqib, unda Moskvaning «Torpedo» jamoasiga 0:1 hisobida g'alabani boy berishi «Paxtakor»ning Ittifoq Kubogi o'yinlaridagi eng katta muvaffaqiyati edi.

1965 yil chempionati natijalariga ko'ra Moskva jamoalari bilan o'tkazilgan uchrashuvlardagi eng yaxshi ko'rsatkichlari uchun paxtakorchilar «Moskva oqshomi» gazetasining maxsus sovrini bilan taqdirlandilar (toshkentliklar «Dinamo»ni 2:0, «TSSKA»ni 2:0, Spartakni 1:0 va «Lokomotiv»ni 2:0 hisobida mag'lub etgandilar). Sobiq Ittifoq chempionatlarida qatnashish yillari mobaynida «Paxtakor» uch jamoaviy sovrinni qo'lga kiritdi: «G'alabaga ishonch» (1971), «Groza avtoritetov» hamda «Adolatli o'yin»)uchun sovrin (1983).

Ikki marotaba «Paxtakor» futbolchilari oliy liga chempionatining eng yaxshi hujumchilari deb tan olingan. 1968 yil B.Abduraimov Tbilisi «Dinamo»si o'yinchisi bilan birga (22 tadan gol) va 1982 yilda A.Yakubik (23 ta gol).

Sobiq Ittifoqning ilk terma jamoasi tarkibida 5 ta paxtakorchi o'ynar edi: V.Fedorov, Yu.Pshenichnikov, G.Krasnitskiy, M.An, A.Pyatnitskiy. Turli yillarda eng yaxshi 33 futbolchi qatorida Yu.Pshenichnikov (1966, 1967), M.An (1974, 1978), B.Abduraimov, V.Xadzipanagis (1974), A.Yakubik (1982) va A.Pyatnitskiy (1991) nomlari bor edi.

O'sha yillarda O'zbekiston futbol ishqibozlarida katta qiziqish uyg'otgan o'yinlar sirasiga 1964 yil paxtakorchilarning «Pirasikaba» (Braziliya) hamda (1:0), Urugvayning 25 karra chempioni «Nasonal» (Montevideo) jamoalari bilan uchrashuvlar kiradi. Urugvayliklarning harchand urinishlari va qarshiliklarmga qaramasdan «Paxtakor» 2:1 hisobida g'alaba qozondi.

17 nafar iste'dodli futbolchining hayotini olib ketgan 1979 yilgi avia halokatdan so'ng 1980 yilda Paxtakor yangi tarkibda sobiq Ittifoq chempionatining oliy ligasiga yo'l oldi. U erda Tbilisi dinamochilarini 3:0, Donetskning «Shaxtyor» jamoasini 2:1 hisobida mag'lub etdi, Kievning «Dinamo»si bilan durang o'ynadi va «Groza avtoritetov» sovrinini qo'lga kiritdi.

60-90 yillarning paxtakorchilari O'zbekiston futbolining rivojlanishida

yorqin iz qoldirganlar.

Bu davr mobaynida «Paxtakor»ni sobiq Ittifoq chempionatidagi chiqishlarga tayyorlashda M.Yakushin, B.Arkadev, G.Kachalin, V.Solovev, B.Abduraimov, X.Raxmatullaev kabi murabbiylarning hissasi beqiyosdir. Respublika terma jamoalari va yuqori malakali jamoalar uchun zahira tayyorlashda G.Sorvin, X.Muxitdinov, A.Mosheev kabi ustoz murabbiylarning mehnati katta bo'lgan.

Xuddi shu yillarda bir qator malakali hakamlar etishib chiqqanini aytib o'tish joizki, ular qatorida V.Doljenkov, B.Baklunov, F.Sultonov va boshqalar bor.

Murabbiy kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining o'zbek futboliga qo'shgan hissasi o'ta muhimdir. Institut 1955 yilda ochilgan bo'lib, u paytda futbol mutaxassisligi sport o'yinlari kafedrasini tarkibiga kirar edi, biroq 1966 yilda u mustaqil kafedra sifatida ajralib chiqdi. O'z faoliyati mobaynida bu kafedra futbol bo'yicha murabbiy kadrlar tayyorlash o'chog'iga aylandi. Natijada ko'pgina bitiruvchilar murabbiylik ishida ma'lum muvaffaqiyatlarga erishib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy unvoniga sazovor bo'ldilar. Bular B.Abduraimov, V.Tixonov va boshqalardir. Ayni paytda futbol kafedrasining ko'pchilik bitiruvchilari O'zbekistonning turli viloyatlari va chet ellarda ishlab kelmoqda.

1992 yil mustaqil O'zbekiston Respublikasining ilk chempionati yili edi. Mamlakatimiz futboli tarixida yangi sahifa ochildi. Bu chempionatning oliy ligasida 17 ta, birinchi ligasida 18 ta, ikkinchi ligasida esa 42 ta jamoa ishtirok etdi. O'zbekiston chempioni unvoni uchun kechgan shiddatli kurashda «Paxtakor»ga asosan Farg'ona vodiysining «Neftchi», shuningdek, «So'g'diyona» (Jizzax) va «Nurafshon» (Buxoro) jamoalari kuchli qarshilik ko'rsatdilar.

1994 yil 7 iyunda O'zbekiston Futbol federatsiyasi «FIFA»ga, shu yilning dekabr oyida esa Osiyo Futbol konfederatsiyasiga azo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 18 martdagi «O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining mamlakatimizda futbolni rivojlantirishdagi ahamiyati juda kattadir.

Oltin medal sovrindorlari nomi uchun kurashda o'zbek futbolchilari Saudiya Arabiston (4:1), Malayziya (5:0), Gonkong (1:0) va Tailand (5:4) terma jamoalari ustidan g'alaba qozondilar. Chorak finalda Turkmaniston terma jamoasini 3:0 hisobida, yarim finaldagi shiddatli va o'ta murakkab o'yinda Janubiy Koreyaning kuchli jamoasini 1:0 hisobida mag'lub etdilar. Finalda Xitoy terma jamoasini 4:2 hisobi bilan engdilar. Bu jamoa murabbiylari dotsent R.Akramov va sport ustasi B.Abduraimovlar edi. Asosiy tarkibning 7 nafar o'yinchisi O'zDJTI talabalari bo'lganini aytib o'tish joizdir.

Shu yilning o'zida Osiyo chempionlari Kubogida ilk bor qatnashgan Farg'onaning «Neftchi» klubi futbolchilari uchinchi sovrinli o'rinni egalladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 yanvardagi «O'zbekistonda futbolni rivojlantirish tamoyillari va tashkillashtirish asoslarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori O'zbekistonda futbolning keyingi rivoji uchun katta ahamiyat kasb etdi. Bu farmonda kelgusi futbolni klublar asosida rivojlantirish va 1996-1997 yillarda viloyat markazlarida futbol bo'yicha o'smirlar maktab-internatlari ochilishi ko'rsatilgan edi.

1992 yildan 2005 yilgacha bo'lgan vaqt ichida Toshkentning «Paxtakor» va Farg'onaning «Neftchi» klublari chempionat etakchilari bo'lib keldi. Paxtakorchilar besh marotaba O'zbekiston chempioni bo'lganlar (1992, 1998, 2002, 2003, 2004) va 6 marotaba mamlakat Kubogi sovrindorlari qatoridan joy odganlar (1993, 1997, 2001, 2002, 2003, 2004). «Neftchi» ham besh karra respublika chempioni (1992-1995, 2001) va 2 karra O'zbekiston Kubogi sohibi (1994, 1996) bo'lgan.

O'zbekiston chempioni unvoniga yana «Navbahor» (1996), MHSK (1997) va «Do'stlik» klublari erishganlar. Shuningdek, 1994, 1995, 1998 yillarda «Navbahor» va 2000 yilda «Do'stlik» jamoasi O'zbekiston Kubogini qo'lga kiritganlar.

2002 yilgi Osiyo Chempionlari Kubogi uchun kurashda Qarshining «Nasaf» jamoasi ishtirok etadi. Saralash bosqichlarida 5 g'alabani qo'lga kiritib, yarim finalga chiqdilar. Ammo bronza medali uchun kechgan bu o'yinda qarshiliklar

«Istiqlol» (Eron) jamoasiga 2:5 hisobida g'alabani boy berib, 4-o'rinni egallaydilar.

2003 yilda Toshkentda bo'lib o'tgan chempionlar ligasi chorak finalda paxtakorchilar katta ustunlik bilan Turkmanistonniig «Nissa» jamoasini 3:0, Eronning «Piruza»sini 1:0 va Iroqning «Al-Taliba» kabi jamoalarini 3:0 hisobida engdilar. Yarim finalda ikki match natijalariga binoan Tailandning «Bek-Tero Sosana» jamoasi ustun keldi.

2002-2003 yillarda O'zbekistonning yoshlar terma jamoasi futbolchilari katta yutuqlarga erishdilar. Qatarda Tailand terma jamoasini 4:0, Katarni 5:4 hisobida engib, so'ng Janubiy Koreyaga 0:2 hisobida g'alabani boy berib, futbolchilarimiz chorak finalga yo'l oldi va Suriya Arabistonini 4:0 hisobida maglub etdilar. Yarim finalda o'zbek futbolchilari Yaponiya terma jamoasi bilan uchrashdilar. Shiddatli va qizg'in o'tgan o'yinmng asosiy vaqti 1:1 hisob bilan yakunlandi. 11 metrli zarbalar yo'llashda yaponlar bir oz ustunroq chiqib, 4:2 hisobida g'olib bo'ldilar.

To'rtinchi o'rinni egallagan O'zbekiston yoshlar futbol terma jamoasi dunyoning eng kuchli 16 jamoasi qatorida maydonga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

Jahon chempionati 2003 yilning dekabr oyida BAAda bo'lib o'tdi. O'zbekiston futbolchilari chiroyli va bahamjihat o'yin ko'rsatdilar, lekin 1/8 finalga chiqa olmadilar. Biroq, mutaxassislar va ishqibozlar O'zbekiston terma jamoasi o'yinini yuqori baholadilar. Uch o'yin davomida ular o'z tengdoshlari bilan kurash olib bordilar, lekin Mali jamoasiga (Afrika chempioni) 2:3, Argentina termasiga (ayni paytda jahon chempioni) 1:2, Ispaniya terma jamoasiga (Evropa chempioni) 0:1 hisobi bilan g'alabani boy berdilar.

Moskvada futbolning paydo bo'lishi «futbolchilarning Sokolniki to'garagi» bilan bog'liqdir. Uyushgan futbol bu erda shu to'garakdan boshlangan edi. Ko'p o'tmay Moskva yaqinidagi Bikovoda, keyin yana boshqa joylarda futbol o'yinlari o'ynaladigan bo'lib qoldi. Moskva futbol ligasi tuzilgan 1909 yil Moskva futboli taraqqiyotida hal qiluvchi yil bo'ldi.

Futbol jamoalari va klublarining ko‘payishi rus futboli tarixiniig 1900—1910 yillar oralig‘idagi davrga xos xususiyatdir. Shu vaqtga kelib Peterburgda «Sportchilarning Narva to‘garagi», «Kolomyati», Moskvada «Union», «Novogireevo», «Zamoskvoreche sport klubi» va boshqa ko‘pgina klublar paydo bo‘ldi. Rossiya janubidagi Xarkov, Odessa, Kiev va boshqa shaharlarda jamoa va klublar soni ko‘payadi. Mamlakatning bir qator shaharlarida futbol klublari Peterburg va Moskvadan namuna olib, futbol ligalariga uyushadilar.

1911 yilda Butunrossiya futbol ittifoqi tashkil topadi. Bir yil o‘tar-o‘tmas uning tarkibiga Peterburg, Moskva, Kiev, Odessa, Xarkov, Tver, Sevastopol va Nikolaev shaharlarining futbol ligalari qo‘shildi. 1912 yil oxiriga kelib 52 klub, yana bir yildan keyin esa 138 klub shu ittifoqqa birlashdi. 1912 yili Rossiya Xalqaro futbol federatsiyasiga a‘zo bo‘lib kiradi.

Peterburg va Moskva jamoalarining uchrashuvlari rus futbol tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu shaharlar terma jamoalarining birinchi o‘yini 1907 yili o‘tgan bo‘lyb, 2:0 hisobida Peterburg jamoasining g‘alabasi bilan tugaydi. Bundan keyin ham to 1917 yilga qadar ko‘p uchrashuvlarda Peterburg jamoasi g‘olib bo‘lib kelgan.

1912-1914 yillarda «Unitas», «Kolomnyagi», «Narva», «Sport» (Peterburg), «Sport klubi-Orexovo», «Sokolniki sport klubi», «Novogireevo», «Mamontovka» (Moskva), Xarkov, Odessa, Tver va Kievning ayrim klublari Rossiyadagi eng kuchli futbol klublaridan hisoblanar edi.

Chor hukumati keng xalq ommasi orasida sport, shu jumladan, futbolning rivoj topishiga unchalik yaxshi g‘amxo‘rlik qilmas edi. Futbol ligalari futbol jamoalariga ishchi yoshlar kirib qolishidan qo‘rqib, a‘zolik badalini juda qimmat qilib qo‘yardilar. 1905 yil revolutsiyasdan keyin, rus kapitalistlari ham G‘arbiy Evropa burjuaziyasidan o‘rnak olib, sportdan, birinchi galda futboldan, ishchilarni revolyutsion kurashdan chalg‘itish vositalaridan biri sifatida foydalana boshlaydilar. Ko‘pgina fabrika egalari o‘z korxonalarida sport klublari tuzadilar. Chunonchi, to‘qimachilik sohasidagi yirik fabrikachi boy Morozov 1910 yili Orexovo-Zuevo fabrikasidagi ishchilar futbol bilan shug‘ullanishi uchun maydon

qurib beradi.

1912-1914 yillari Rossiyaning Vladivostok, Irkutsk, Omsk, Qozon, Saratov, Samara va boshqa shaharlarda futbol jamoalari paydo bo'ldi.

1912 yil Rossiya birinchiligi uchun birinchi bor futbol musobaqalari o'tkaziladi. Finalda Moskva bilan Peterburg futbolchilari uchrashadilar. Uchrashuvda g'olib jamoa aniqlanmay qoladi (2:2). Takror o'yin 4:1 hisobida Peterburg jamoasi foydasiga yakunlanadi.

1910 yili Praganing «Korintians» klubi Rossiyaga keladi. Shu sababli rus futbolchilari dastlabki marta xalqaro maydonga chiqdilar. 1911 yili Moskvaga Berlin klublaridan ikkitasining terma jamoasi, Peterburgga esa Angliyaning olimpiya jamoasi keladi. U vaqtlarda futbol texnikasi va taktikasining nozik tomonlarini bilmagan rus futbolchilari uchrashuvlarda chet elliklarga tuzukroq qarshilik ko'rsata olmay, ko'pincha yutqazaveradilar.

1912 yili Rossiya futbolchilari Olimpiada o'yinlarida ishtirok etadilar. Biroq rus futbolchilari Olimpiadaga nihoyatda yomon tayyorgarlik ko'rgan edilar. Peterburglik va moskvalik 18 o'yinchidan tuzilgan jamoada Rossiyadan jo'nab ketish oldidan bironta trenirovka o'tkazmagan, ko'p o'yinchilar hatto birlarining uslublarini bilmas ham edilar. Natijada Rossiya futbolchilari birinchi uchrashuvda finlarga yutqazib qo'yadilar (1:2). Usha yilning kuzida Rossiya terma jamoasi Vengriyaga yutqazadi (0:12).

Chet el' jamoalari bilan o'yinlarda qattiq mag'lubiyatga uchralgan bo'lishiga qaramay, bu uchrashuvlar rus futbolchilarining o'yin darajasi o'sishiga yordam berdi. Rus futbolchilari o'sha vaqtda ko'proq takomil topgan o'yin texnikasi va taktikasi bilan tanishdilar. Bu esa o'z navbatida keyingi xalqaro uchrashuvlar natijasiga ta'sir etdi, albatta. Masalan, 1913 yili Rossiyaga kelgan Norvegiya futbol jamoasi Moskva terma jamoasiga yutqazib (0:3),. Rossiya terma jamoasi bilan durang. (1:1) qila oldi xolos. «Sport» rus jamoasi Budapesht terma jamoasini mag'lub qila oldi (3:2),« Rossiya terma jamoasining Shvetsiya va Norvegiya jamoalari bilan 1913 yilgi uchrashuvlari durang (2:2 va 1:1) natija bilan tugaydi.

1.3. Sobiq ittifoqda futbol

Sovet hokimiyati oʻrnatilgan paytdan boshlab mamlakatimizda chinakam ommaviy futbol taraqqiyoti uchun qulay sharoit yaratilmoqda. Shu vaqtdan boshlab keng xalq ommasi jismoniy tarbiya va sportga jalb etila boshladi. V. I. Leninning koʻrsatmasi bilan Vsevobuchning sport tashkilotlari tuziladi. Bu tashkilotlarning faoliyati natijasi oʻlaroq futbol mamlakatning eng olis burchaklarigacha yetib borib, mashhur sport oʻyini boʻlib qoldi. Shaharcha va qishloqlarda yangidan-yangi jamoalar tuzildi. Futbol musobaqalari shaharlardagina emas balki chekka joylarda ham uyushtirildi. Tver, Oryol, Voronej, Smolensk, Saratov va boshqa shaharlarning futbolchilari shahar musobaqalari va shaharlararo uchrashuvlar oʻtkazadilar. U vaqtdagi jamoalarning birontasida murabbiy boʻlgan emas. Uning vazifasini qisman futbol sektsiyasining raisi yoki jamoa sardori bajarar edi. Mashgʻulot amalda, bor-yoʻgʻi darvozaga toʻp tepishdangina iborat boʻlib, keng maʼnodagi jismoniy tayyorgarlik qoʻllanmas, taktik mashqlar toʻgʻrisida umuman gapirmasa ham boʻladi. Lekin keyinchalik sovet futbol uslubiga asos boʻlgan printsipl – jamoa (kollektivizm) printsipl vatan futboli qaror topayotgan oʻsha boshlangʻich davridayoq aniq tarkib topayotgan edi.

1922 yili Povolje, Ural, (Ukraina va Moskva terma jamoalarining ishtirokida birinchi bor rasmiy mamlakat birinchiligi oʻtkazildi. Finalda Moskva jamoasi Ukraina jamoasini 8:0 hisobida yutib chiqadi. Oʻsha yili birinchi xalqaro uchrashuv oʻtkaziladi: «Zamoskvoreche sport klubi»ning jamoasi fin-ishchilar sport soyuzi («Tul») terma jamoasini qabul qilib, 7:1 hisobida gʻalaba qiladi.

Jismoniy tarbiya kengashlari (1923 yilda) tuzilgandan keyin shaharlarning futbol birinchiliklari uyushqoqlik bilan oʻtkaziladigan boʻldi. Futbol jamoalari ham koʻpayib qoldi. Bu vaqtga kelib, Petrograddagi 46 tashkilotda futbol jamoalari bor edi, Moskvada esa bunday jamoalarning soni 30 dan oshib ketdi. Moskvada «Saxarniki», «Trexgorka», «Krasnaya Presnya» kabi yangi klublar paydo boʻladi. Isteʼdodli yoshlar endi yuzaga chiqib boshlaydi. 1923 yilda oʻtkazilgan I Butunrossiya jismoniy tarbiya bayramida bu ayniqsa yaqqol koʻzga tashlanadi. Bayramda Boshqirdiston, Zakavkaze, Irkutsk, Ivanovo, Gomel, Yaroslavl

futbolchilari eng yirik shaharlar komandalari bilan bir qatorda ishtirok etdilar. Shu yili Moskva va Leningrad futbol jamoalari o'yinchilaridan tuzilgan RSFSR terma jamoasi Norvegiya va Shvetsiyaning juda kuchli professional jamoalariga qarshi o'ynaganda sovet futbolchilari jiddiy xalqaro imtihondan o'tdilar. Rossiya Federatsiya futbolchilarining chet elga birinchi safari nihoyatda muvaffaqiyatli chiqadi. Ular Norvegiya terma jamoasi ustidan 3:2 hisobida. va Osloning eng kuchli jamoalaridan birining ustidan 4:1 hisobida g'alabaga erishadilar. Shvetsiyada esa RSFSR terma jamoasi Stokgolm terma jamoasi bilan o'yinni durang (5:5) qilib, Shvetsiya terma jamoasi ustidan g'alabaga (2:1) erishadi va Geteborg bilan Norcheping terma jamoalarini yutadi.

1924 yili birinchi bor Rossiya birinchiligi o'tkazildi. Birinchilik finalida Leningrad jamoasi Moskva jamoasini yutdi. Shu mavsumda II Butunrossiya jismoniy tarbiya bayramidagi futbol o'yinlari juda qiziq o'tdi. Musobaqalarda Ukraina terma jamoasi yuksak darajali o'yin namoyish qiladi. U yarim finalda Zakavkaze terma jamoasini (4:0) va finalda Rossiya terma jamoasini (2:1) hisobida yutib chiqadi.

1924 yilda birinchi marta mamlakatimizga Turkiya terma jamoasi keldi va to'rt uchrashuv o'tkazdi. Mamlakat terma jamoasi, Moskva va Odessa terma jamoalari turk futbolchilari bilan uchrashdilar. Bu uchrashuvlardagi to'plarning umumiy hisobi sovet futbolchilari foydasiga (6:4) hisobi bilan hal bo'lgan edi.

RKP (b) Markaziy Komitetining 1925 yil 13 iyul qarori sobiq ittifoqda jismoniy tarbiya va sportni(shu jumladan futbolni) yanada rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qarorda ommani tarbiyalashning eng ta'sirchan metodlaridan biri bo'lgan jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish zarurligi ko'rsatilgan edi. Markaziy qo'mita qarori sovet futboli taraqqiyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatdi. Yangi-yangi jamoalar, shu jumladai Rostov-Don, Donetsk, Boku, Taganrog, Lugans va boshqa shaharlar jamoalari mamlakat futbol hayotiga dadil kitib kela boshladi. Ommaviy bazani kengaytirish, tarbiyaviy ishni kuchaytirish, har yoqlama jismoniy tayyorgarlik, texnika va taktikani takomillashtirish, sovet futbol o'yini uslubini shakllantirish endilikda sovet

futbolchilarining eng asosiy vazifasi bo'lib qoladi. M. Rommning futboldan metodik qo'llanmasi chiqariladi. Unda futbol tarixiga, o'yin texnikasi va taktikasiga, shuningdek mashg'ulotni tashkil qilishga oid ma'lumotlar bor edi.

1927 yilda ikkinchi marta RSFSR birinchiligi o'tkaziladi. Unda Moskva, Smolensk, Qozog'iston, Povolje, Voronej, Ural, Sibir, Qavkaz va Nijniy Novgorod jamoalari qatnashadilar. Bu birinchilikda moskvaliklar g'olib chiqdilar.

Moskvada o'tkazilgan Butunittifoq spartakiadasi 1928 yildagi eng yirik sport voqeligi bo'ldi. Spartakiadaga tayyorgarlik davrida viloyat, o'lka va respublikalarda ko'plab musobaqalar, shaharlararo va xalqaro uchrashuvlar bo'lib o'tadi. 20 dan ortiq jamoada, shu jumladan Angliya, Urugvay, Finlyandiya va Shveysariya ishchi futbolchilari Spartakiada futbol birinchiligi uchun bahslashdilar. Petrovskiy parkida yangi qurilgan «Dinamo» stadionida o'tgan o'yinlar Moskva jamoasidan keyin mamlakatdagi eng kuchli futbol jamoalari Ukraina va Leningrad ekanini ko'rsatdi.

Mamlakat sport hayotida, sovet jismoniy tarbiya tizimini yanada rivojlantirishda VKP(b) Markaziy qomitani 1929 yil 23 sentabr qarori muhim rol o'ynadi. Bu partiya hujjatida jismoniy tarbiya tashkilotlari ishdagi jiddiy kamchiliklar, avvalo keng xalq ommasi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining xilma-xil shakllari bilan sust qamrab olinganligi qayd etilgan edi. Qaror mamlakatda butun jismoniy tarbiya ishini, shu jumladan futbol sohasidagi ishlarni keskin qayta qurishga sabab bo'ldi. Butunittifoq jismoniy tarbiya kengashining tuzilishi (1930 y.) hamda «Mehnat va sobiq ittifoq mudofaasiga tayyor» kompleksida sovet jismoniy tarbiya tizimining shakllanishi (1931 y.) futbol taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakatdagi futbol jamoalari jiddiy tashkiliy va uslubiy ishlarni amalga oshiradilar: shahar kalendarlari anchagina barqaror bo'lib qoladi, o'quv-trenirovka ishlari yaxshilanadi, shaharlar (birinchiligida qatnashadigan jamoalar ko'payadi. Chunonchi, 1932 yili Leningradda 80 tashkilotdan 327 jamoa, 1934 yilda esa 434 jamoa shahar birinchiligida ishtirok etadi. Mamlakatning boshqa shaharlarida ham xuddi shunday o'sish yuz beradi. Bunga zavod spartakiadalari o'tkazilishi

ham anchagina ta'sir ko'rsatdi.

1934 yili futbol mavsumini sovet futbol darajasini yuksaltirish uchun qat'iy kurash boshlangan mavsum, deb qarash kerak bo'ladi. Eng yaxshi futbol jamoalarida muntazam suratda mashg'ulotlar yo'lga qo'yiladi. Tajribali o'yinchilar murabbiylik ishiga jalb etiladi, iste'dodli yoshlar bilan ishlash tashkil qilinadi. Ko'rilgan tadbirlar futbolchilarimiz o'yin darajasiga ta'sir etmay qolmaydi, albatta. 1934 yilda futbolchilarimiz Turkiya, Shvetsiya, Frantsiya, Norvegiya, Chexoslovakiya, Finlyandiyaning juda kuchli professional jamoalari bilan uchrashuvlarda muvaffaqiyatli o'ynaydilar. Moskva terma jamoasining Chexoslovakiyada «Jidenitse» professional jamoasi bilan uchrashuvi o'sha yildagi asosiy uchrashuv bo'lgan edi. Bu uchrashuv Chexoslovakiyadagina emas, balki boshqa mamlakatlarda ham katta qiziqish uyg'otdi. Chet el matbuoti moskvaliklar yirik hisob bilan yutuqzishini bashorat qilgan edi. Biroq moskvaliklar uchrashuvda yutib chiqdilar.

1935 yil ham futbol voqealariga boy bo'ldi. Ukraina terma jamoasi Frantsiya va Belgiyaning ishchi jamoalari bilan bir necha uchrashuv o'tkazdi. Ukraina futbolchilari hamma uchrashuvda yutib chiqadi. Ukraina terma jamoasining mashhur «Red Star» professional jamoasi bilan Parijda bo'lgan uchrashuvi asosiy uchrashuvlardan bo'lib, u 6:1 hisobida USSR futbolchilari foydasiga yakunlandi.

Salkam yigirma yil ichida futbol sovet yoshlari turmushida mustahkam o'rin egalladi. Endilikda oxiri ittifoqdosh respublikalar va Sovet Ittifoqi birinchiliklari bilan yakunlanadigan shahar va viloyat birinchiliklari, zavod spartakiadalari, talaba va o'quvchilar musobaqalari, shaharlarning o'zaro uchrashuvlari yil sayin o'tkaziladigan bo'lib qoldi. Shahar va respublikalarning terma jamoalari tarkibiga yangi, yosh o'yinchilar kirib keldi. Texnik va taktik mahoratlari kuchliligi tufayli ular uzoq yillar Sovet Ittifoqining eng kuchli futbolchilari hisoblanib keldilar. V. Pavlov, L. Korchebokov, M. Semichastniy, V. Granatkin, V. Stepanov, aka-uka Starostinlar, M. Yakushin, P. Dementev, E. Eliseev, V. Fedorov va boshqa ko'pgina futbolchilar shaharlararo va xalqaro mas'uliyatli uchrashuvlarda

shaharlar, respublikalar va mamlakat terma jamoalari shanini sharaf bilan himoya qilib keldilar.

Jismoniy tarbiya institutlaridagi tadqiqot va uslubiy ishlar jamoalar mashgulotini ilmiy asosda olib borishga yordam berdi. Jamoalarda doimiy murabbiy ishlaydigan bo'ldi, taktika intizomi mustahkamlandi, o'yinchilarning texnik-taktik, jismoniy va ma'naviy-irodaviy tayyorgarligi yaxshilandi. Endi murabbiylar o'z jamoalarining umumiy kuchi bilan har bir o'yinchining kuchini hisobga olibgina qolmay, balki raqib imkoniyatlarini, o'yin taktikasi va uslubini, uning o'yinchilari tayyorlik darajasi va boshqa omillarni ham hisobga oladigan bo'ldilar. 1936 yildan sovet futboli taraqqiyotida yangi bosqich boshlanadi. Keng havaskorlik va ko'ngilli sport jamiyatlari tashkil qilish negizida sobiq ittifoqda butun jismoniy tarbiya harakatini qayta qurish yo'li etakchi futbol jamoalarining ommaviy o'sishi va mahorati yuksalishini ta'minladi.

1936 yildan boshlab shaharlar terma jamoalarining uchrashuvlari emas, balki klub jamoalarining uchrashuvlari futbol musobaqalariga asos qilib olindi. 1936 yilda mamlakatimizda asosan ikkita butunittifoq futbol musobaqasi - mamlakat birinchiligi va sobiq ittifoq kubogi musobaqasi o'tkazila boshlandi. Ushandan beri o'tgan yillar mobaynida musobaqadagi grupp va qatnashchilarning miqdori, musobaqalarni o'tkazish printsiplari o'zgaradiyu, ammo chempionlik unvoni uchun kurash o'zgarmay keladi. Ana shu kurashlarda mahorat tobora o'sdi, yangi taktika yo'llari qidirib topildi, sovet futbol uslubi barpo etildi.

1936 yili klub jamoalari o'rtasida o'tkaziladigan dastlabki sobiq ittifoq birinchiligida qatnashish uchun 27 ta eng yaxshi jamoaga ruxsat etildi. Bu jamoalar to'rt gruppaga bo'linadi. «A» gruppaga Moskvadan to'rt («Dinamo», «Spartak», «Lokomotiv», TSDKA), Leningraddan ikki («Dinamo», «Krasnaya Zarya»), Kievdan bir («Dinamo») jamoa kiradi. Futboldan Sovet Ittifoqining birinchi chempioni degan unvonni Moskva dinamochilari qo'lga kiritadilar. Ular turnirning boshidan oxiriga qadar bironta ham mag'lubiyatga uchramay, 18 imkoniyatdan 18 ochko to'playdilar (g'alaba uchun 3 ochko berilardi). Shundan keyingi musobaqalarning hech qaysisida boshqa bironta jamoa bunday natijaga erisha

olmagan. Mamlakat birinchi chempioni bo'lgan jamoa tarkibida A. Kvasnikov, E. Fokin, L. Korchebokov, V. Teterin, E. Eliseev, A. Lapshin, A. Remin, S. Ilin, V. Pavlov, M. Semichastniy, V. Smirnov, M. Yakushinlar bor edilar.

1936 yil kuzgi birinchilikda esa 30 jamoada qatnashadi va bular ham to'rt gruppaga bo'linadi. Tbilisining bahorda «B» gruppada birinchi o'rinni olgan «Dinamo» jamoasi «A» gruppada chempionlik unvonini da'vo qiluvchi sakkizinchi jamoa bo'ldi. Qizg'in kurashda Moskvaning «Spartak» jamoasi birinchi o'rinni egallaydi. Moskva va Tbilisi dinamochilari undan bir ochko ortda qoladilar. Sobiq ittifoq kubogi musobaqalarida 39 shahardan 83 jamoa ishtirok etadi. Bu erda Moskvaning «Lokomotiv» jamoasi finalda Tbilisi dinamochilarini 2:0 hisobida yutib, muvaffaqiyatga erishadi.

1937 yilgi futbol mavsumi o'tgan yillardagiga qaraganda anchagina jonli o'tadi. Shaharlar, o'lkalar, viloyatlar, ittifoqdosh respublikalarning birinchiliklari va kubok o'yinlari minglab jamoalarni sport hayotiga jalb qilib oladi. Shu yili maktab jamoalarining butunittifoq birinchiligi va qishloq xo'jaligi jamoalari o'rtasida II Butunittifoq birinchiligi o'tkaziladi.

Mavsumdagi asosiy musobaqalar-sobiq ittifoq birinchiligi va Kubok o'yinlariga bir qancha yangi jamoalar qo'shiladilar. Sobiq ittifoq chempioni unvonini olish uchun «A» gruppadaga o'yinlar endi ikki davrada (o'z maydoni va raqib maydonida) o'tkaziladigan bo'ldi. Bu esa musobaqalarni anchagina keskinlashtirdi. Bunda birinchi o'rinni moskvalik dinamochilar egallaydilar. Sobiq ittifoq kubogi o'yinlari shu yil mamlakat birinchiligi musobaqalaridan oldin o'tkazildi. Faxriy sovrin uchun 58 shahardan 125 jamoa kurashadi. Finalda moskvalik dinamochilar tibilislik futbolchilar ustidan g'olib chiqadilar (5:2). Shunday qilib, Moskva dinamochilari ikkita eng faxrli futbol sovrinining sovrindori egasi bo'ladilar.

1937 yil mavsumida sovet futbolchilari Baskoniya futbol jamoasini qabul qiladilar. Bu jamoa Ispaniyaning Franko fashist rejimiga qarshi kurash qatnashchilari bo'lgan eng yaxshi o'yinchilardan tuzilgan edi. Basklar sobiq ittifoqda to'qqizta uchrashuv (Moskva, Leningrad, Kiev, Minsk) o'tkazib,

ularning ettitasida g'olib kelib, Leningrad terma jamoasi bilan o'yin natijasini durang qildilar va Moskvaning «Spartak» jamoasiga yutqazdilar. Basklar o'sha vaqtda bizga yangilik bo'lgan «Dublve» tizimi (sistemi)da o'yin ko'rsatdilar.

«Spartak» jamoasining Antverpenda, o'tgan Xalqaro ishchilar olimpiadasida va ishchi jamoalari o'rtasida Parijda o'tgan jahon futbol kubogi o'yinlarida qatnashgani Sovet Ittifoqi jamoalarining chet ellardagi 1937 yilgi uchrashuvlari orasida eng qiziqarlisi bo'ldi. Sovet jamoasi yarim finalda ispan futbolchilaridan (2:1), finalda esa Norvegiya jamoasidan (2:0) ustun keldi. Parijda «Spartak» jamoasi Angliya (4:0) va Ispaniya (2:0) jamoalari ustidan g'alabaga erishdi.

Basklar bilan bo'lgan o'yin, keyin Antverpen va Parijda o'tkazilgan musobaqalar Sovet futbolchilarini eski taktik sxemalardan voz kechish zarurligiga uzil-kesil ishontirdi. 1938 yilgi sport mavsumi boshdan-oyoq «uch himoyachili» tizim (sistema) ni o'zlashtirish va yanada rivojlantirish shiori ostida o'tadi. Ayrim jamoalar, chunonchi, Moskvaning «Torpedo», «Spartak» jamoalari dadillik bilan yangi taktik sxemada o'ynashga o'tadilar. Novatorlar o'z navbatida munosib taqdirlanadilar: «Spartak» ikki yil qatorasiga (1938 va 1939 yillarda) sobiq ittifoq birinchiligida ham, kubok o'yinlarida ham yutib chiqadi.

1940 yil yangilangan «uch himoyachili» taktik sxemaning qaror topish yili bo'ldi. Yangi taktika 1940 yili moskvalik dinamochilar o'yinida juda ravshan ko'zga tashlandi, Ular asosiy e'tiborni hujumchilar o'yiniga qaratadilar. Hujumchilarning uzluksiz joy almashtirib turishi raqiblar himoyasini parokanda qilib yuborar, bo'sh joy tanlay bilish esa endilikda hujumchilarning asosiy va murakkab vazifalaridan biri bo'lib qolgan edi. Darvoza tomon so'ngi yakunlovchi zarba berish uchun yoki hal qiluvchi uzatish uchun to'p xuddi ana shu bo'sh joyga uzatib berilardi. Moskvalik dinamochilarning 1940 yilgi sobiq ittifoq birinchiligida g'alaba qozongani jamoa taktik kamolotining namoyishi bo'lgan. 1940 yilgi futbol mavsumi futbol taktikasi va texnikasi takomillashuvi bilangina emas, balki uning yanada ommaviy rivojlanishi bilan ham ajralib turadi. Zavod va fabrikalarning, harbiy qismlarning, qishloq xo'jaligi hamda o'quv yurtlarining minglab yangi jamoalari shaharlar, viloyatlar, ittifoqdosh respublikalarning birinchiligiga va

kubok musobaqalariga qo'shildilar. Masalan, masterlar jamoalari ishtirok etmaganda sobiq ittifoq kubogi o'yinlarida rekord miqdorda - 2150 jamoa qatnashdi.

1940 yilda sovet va bolgar futbolchilarining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tgan. Moskvalik «Spartak» jamoasi Bolgariya poytaxti Sofiyada mamlakat chempioni «Slaviya» va poytaxt terma jamoasi bilan ikkita uchrashuv o'tkazib, 6:1 va 7:1 hisobida ikkala uchrashuvda ham g'olib chiqqan. Usha yili «Slaviya» komandasi sobiq ittifoqga kelib, Moskva va Leningradga uchta javob uchrashuvi o'tkazadi. Bolgariyalik futbolchilar ikki o'yinda (moskvalik «Dinamo» va «Spartak» jamoalariga bir xil - 0:4 hisobida) yutqazadilar, bir o'yinni esa (leningradlik dinamochilar bilan) durang natija bilan (2:2) tugallaydilar.

Ulug' Vatan urushi yillarida jismoniy tarbiya va sport harbiy davr vazifalariga bo'ysundirilgan edi. Ko'p sportchilar, shu jumladan futbolchilar ham frontga ketdilar. Shunga qaramay 1942 yili Moskva birinchiligi uchun o'tkazilgan o'yinlarda «Spartak» jamoasi g'olib bo'lgan. 1943 yili Moskva futbolchilari poytaxt birinchiligi va kubogi o'yinlari o'tkazadilar. 1944 yilning avgustida sobiq ittifoq kubogi o'yinlari yana o'tkazila boshlandi. Finalda TSDKA bilan Leningradning «Zenit» jamoalari uchrashadilar. Unda leningradliklar g'olib chiqadilar (2:1). Faxriy sovrin birinchi bor Moskvadan olib ketiladi.

Ulug' Vatan urushi tugagandan keyin 1945 yili futbolchilarning shahar, viloyat, o'lka, respublika, sport jamiyati, mamlakat birinchiligi va kubogi musobaqalari yana o'tkazila boshlangan. 1945 yilda sobiq ittifoq birinchiligi uchun 30 jamoa ikki gruppaga bo'linib musobaqalashdi. Moskva dinamochilari qizg'in kurashda to'rtinchi marta chempion unvonini qo'lga kiritdilar, sobiq ittifoq kubogi o'yinlarida 32 jamoa qatnashdi. Finalda birinchi marta moskvalik ikki jamoa, Sovet Ittifoqining ikkita eng kuchli futbol jamoa - «Dinamo» bilan TSDQA jamoalari uchrashdilar. Bunda armiya futbolchilari g'alaba qozondilar (2:1).

Mamlakat birinchiligi va sobiq ittifoq kubogi musobaqalari urush yillarining qiyinchiliklariga qaramay, yetakchi futbol jamoalarining mahorati hali ham ilgorigidek yuksak sport darajasida ekanini ko'rsatadi. 1945 yil sobiq ittifoq

futbolchilarining xalqaro maydondagi ajoyib muvaffaqiyatlar yili sifatida sovet sporti tarixiga kirib qoldi.

Angliya, Uels, Shotlandiya, Yugaslaviya, Bolgariya va Ruminiya stadionlarida 15 ta uchrashuv o'tkazib, ulardan birontasida ham yutqazmadilar. 12 g'alaba, 3 durang, 68 kiritilgan va bor-yo'g'i 25 o'tkazib yuborilgan to'p jiddiy xalqaro imtihonlardan sharaf bilan o'tgan sovet futbolchilarining mahorati o'sganligidan dalolat berardi.

Moskva «Dinamo» jamoasining Buyuk Britaniyaning eng yaxshi, dunyoda eng kuchli hisoblangan futbol klublari bilan o'yini 1945 yildagi eng muhim uchrashuvlardan bo'ldi. Moskvaning dinamo futbolchilari Londonda «Chelsi» jamoasi bilan o'tkazgan birinchi uchrashuvi durang (3:3) natija bilan tugadi. Bu sovet futbolchilarining ingliz professional jamoalari bilan (yana o'sha jamoa maydonida) birinchi uchrashuvi edi. Shundan keyingi uchrashuvlar dinamo futbolchilarini begona maydonlarda ham g'alaba qila olishini ko'rsatdi. Moskvaliklar Kardiffda bo'lgan uchrashuvda 10:1 hisobida aslida Londonning terma jamoasi desa bo'ladigan, mashhur «Arsenal» jamoasi nomidan maydonga chiqqan jamoa bilan o'tgan uchinchi uchrashuvda esa 4:3 hisobida g'olib chiqadilar. Dinamochilar so'nggi o'yinni Glazgoda Shotlandiyaningina emas, balki umuman Buyuk Britaniyaning eng kuchli jamoalaridan biri bo'lgan «Glazgo reynjers» jamoasi bilan o'tkazdilar. Uchrashuv durang (2:2) natija bilan tugadi.

Bu o'yinlar o'yin taktikasi va Vatanimiz o'yin uslubi, jismoniy tarbiya va mashg'ulotlarning metodlari yuksak darajada ekanini namoyish qiladi.

40-yillar o'rtalarida hakamlarimizning o'yinlarga hakamlik qilish uslublarini ham e'tirof etildi. Sovet hakamlari ykkinchi jahon urushiga qadar xalqaro-uchrashuvlarda deyarli qatnashmas ham, chet ellardagi hakamlik qilish uslublari bilan tanish ham emas edilar. 1945 yildan boshlab eng yaxshi hakamlarimiz: (N. Latishev, M. Dmitriev, A. Shelchkov va b.) xalqaro uchrashuvlarda yuksak hakamlik mahoratini namoyish qildilar. Ular muvaffaqiyatining muhimligi yana shundaki, u paytlarda hakamlarimiz xalqaro hakamlik birlashmalariga qirmagan

edilar va endi hakamlik qilish uslublarini mustaqil ishlab chiqayotgan edilar. Pirovardida mamlakatimizda o'zimizning mustaqil tashkil topgan hakamlik maktablarimiz shakllangan edi.

1946 yili mamlakatdagi eng kuchli 12 jamoa o'rtasida sobiq ittifoq chempioni unvoni olish uchun kurash bo'lib o'tdi. TSDKA jamoasi g'olib chiqib, ilk bor ana shu yuksak unvonni qo'lga kiritdi. 16 jamoa orasida bo'lib o'tgan kurashda sobiq ittifoq kubogini moskvalik «Spartak» jamoasi qo'lga kiritdi.

1947 yili shahar, viloyat, respublika va butunittifoq musobaqalarida 10 mingdan ziyod uyushgan jamoa sportchilari qatnashdi. Sobiq ittifoq IX futbol birinchiligi 80 jamoa o'rtasida o'tkazildi. Birinchi gruppada 13 jamoao'ynadi. Chempionlik unvoni uchun Moskvaning TSDKA va «Dinamo» jamoalari o'rtasida butun mavsum bo'yi davom etgan keskin kurash armiya futbolchilarining g'alabasi bilan tugadi. «Spartak» jamoasi sobiq ittifoq kubogini to'rtinchi marta qo'lga kiritdi. Ikkinchi gruppada musobaqalar 6 zonada o'tdi. Zona g'oliblari o'zaro final turniri o'tkazdilar. Bunda «Lokomotiv» (Moskva) jamoasi yutib chiqib, 1948 yilda birinchi gruppada futbol o'yini o'ynash huquqini qo'lga kiritdi.

1947 yil mavsumi Moskvaning Dinamo jamoasi Shvetsiya va Norvegiyada erishgan ajoyib natijalar bilan yakunlanadi. Shvetsiyaning eng kuchli «Norchepping» va «Gyoteborg» jamoalar bir xil - 1:5 hisobida mag'lubiyatga uchradilar. Norvegiyaniig eng yaxshi jamoasi «Sheyd» bilan bo'lgan uchrashuvda dinamochilar 7:0 hisobida g'olib chiqdilar.

1948 yilgi mamlakat birinchiligi o'yinlari birinchi gruppasida 14 jamoa qatnashdi, Birinchi o'ringa asosan Moskva, Leningrad, Tbilisi dinamochilari, moskvalik «Spartak» va TSDKAlar da'vogarlik qildilar. Chempionlik unvonini, shuningdek, sobiq ittifoq kubogini armiya futbolchilari qo'lga kiritdi.

1949 yili mamlakat birinchiligida Moskvaning «Dinamo» jamoasi yutib chiqdi. Rekord miqdorda - 8500 dan ortiq jamoa ishtirok etgan sobiq ittifoq kubogi musobaqalari mamlakatimizda futbolning ommaviy ravishda rivoj

topganidan dalolat berardi. Finalda moskvalik dinamochilarni 2:1 hisobida yutgan «Torpedo» (Moskva) jamoasi sobiq ittifoq kubogi egasi bo'ldi.

Sovet hokimiyati yillarida mamlakatimiz futbolchilari katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdilar. Futbol yoshlarning sevimli o'yini bo'lib qoldi. Mamlakatimizning Moskva, Leningrad, Kiev, Tbilisi va boshqa shaharlaridagi eng katta stadionlar ham, hatto oddiy uchrashuvlarni ko'rishni xohlovchilarni sig'dirolmay qolgan vaqtlar ham bo'ldi. Futbol ustalarining birinchi hamda ikkinchi avlodi o'rniga iste'dodli yoshlar keldi. Vatanimiz futbol maktabi mas'uliyatli xalqaro uchrashuvlar sinovidan muvaffaqiyatli o'tib, qaror topdi. Masalan, «Dinamo» jamoasining 1945 yili Angliyada o'tkazgan uchrashuvlaridan keyin sovet charm to'p ustalarining o'yin mahorati yuksak ekanini hatto ingliz futbol mutaxassislari ham e'tirof etishga majbur bo'ldilar.

Urushdan keyingi yillarda chet el jamoalari bilan bo'lgan qariyb hamma uchrashuvlarda taktikadagi afzallik, shubhasiz, biz tomonda bo'lib keldi. Sovet murabbiylari taktik standartlardan dadillik bilan voz kechib, hujum va himoya qilishning yangi usullarini yaratdilar. Har bir uchrashuvga mo'ljallangan vazifalar aniq belgilab olingan jamoaviy o'yin majburiy bo'lib qoldi. Umumiy taktik hamkorlik va har qaysi o'yinchining individual qobiliyatidan foydalanish uyushqoq holatda bo'lib o'ynayotgan jamoalarimizga katta afzalliklar berar edi.

V 1950 yil birinchiligi o'tgan yillardagidan boshqacha ikki guruhga bo'lingan bitta gruppada («A» guruhida 19 jamoa, «B» guruhida 14 jamoada o'rtasida) o'tkazildi. Moskva armiyachilari to'rtinchi marta mamlakat chempioni bo'ldilar. sobiq ittifoq kubogi o'yinlarida 12 mingdan ortiq jamoada qatnashdi. Uzoq davom etgan saralash kurashlari natijasida Moskva jamoalaridan «Dinamo» (to'rtinchi marta) bilan «Spartak» (oltinchi marta) finalda qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. «Spartak» finalda juda yaxshi o'ynaydi: hisobning 3:0 bo'lishi izoh talab qilmasa kerak.

1951 yil mamlakatda milliondan ortiq futbolchi hisobga olingani bilan mashhur. Bu futbolimizning ommaviyligidangina emas, balki sport mahorati o'sishining istiqboli porloq ekanidan ham dalolat beradi. Moskva

armiyachilarining jamoasi hamon mamlakatdagi eng kuchli futbol jamoalardan biri bo'lib kelardi. Ular beshinchi bor chempion bo'ldilar. Avvalo yosh, iste'dodli futbolchilarni tanlab olish yuzasidan katta, izchil ishlar amalga oshirilganligi TSDSA (1951 yilgacha TSDKA edi) jamoasining muzaffar yo'li boshlanishi omilidir. Bu jamoaga xos xususiyat ham o'yichning yangi variantlarini izlash bilan belgilanadi.

Yuksak o'yin texnikasi va o'yinchilarning biri-birini tushuna bilishi armiya futbolchilarining himoyachilar o'yinini boshqacha qilib olish imkonini berdi. TSDSA jamoasining himoyachilari raqib o'yinchisiga to'pni oldarmay hamma vaqt o'z sheriklariga uzatib berishga intildilar. 1950 yili armiya futbolchilari birinchi bo'lib, aralash himoya ishlatdilar: zonada o'yin o'ynashni qo'riqlanayotgan o'yinchi uchun shaxsan mas'ullik bilan birga qo'shib olib bordilar. Armiyachilar 1951 yili sobiq ittifoq kubogi o'yinlarida ham g'alaba qildilar (uchinchi marta).

Usha vaqtda armiya jamoasiga rahbarlik qilayotgan murabbiy B. A. Arkadev sovet futboli taraqqiyoti uchun ko'p ishlar qildi. B. A. Arkadevning 50-yillar boshida chiqqan «Futbol o'yini taktikasi» va «Yarim himoyachilar o'yini» kitoblari futbolchilar uchun ham, murabbiylar uchun ham, yaxshi dastur bo'ldi. 1952 yil sovet sport harakati tarixida sport ommaviyligi yanada o'sgan va sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatga qatnashgan yil hisoblanadi.

Shu yili Xelsinki bo'lgan Olimpiadaga birinchi marta sovet futbolchilari ham boradilar. Aytish kerakki, o'sha yili yozida bir qancha xalqaro uchrashuvlarni, shu jumladan o'sha vaqtdagi eng kuchli Vengriya jamoasi bilan bo'lgan uchrashuvni ham jamoamiz muvaffaqiyatli o'tkazgan edi. Sobiq ittifoq terma jamoasida quyidagi atoqli futbolchilar bor edi: darvozabon L. Ivanov, himoyachilar K. Krijevskiy, A. Bashashkin va Yu. Nirkov, yarim himoyachilar A. Petrov va I. Netto, hujumchilar V. Trofimov, V. Nikolayev, V. Bobrov, Q. Beskoy. Lekin terma jamoamizdagi ko'pgina o'yinchilarning futbol olamidagi shon-shuhratga burkangan fasli o'tib bormoqda edi. Terma jamoamiz Bolgariya jamoasini yutib (2:1), Yugoslaviyaning kuchli jamoasiga (bo'lajak finalchi

jamoaga) 5:5 va 1:3 hisobyda yutqazib qo‘yadida, kurashdan chiqib ketadi.

Olimpiadadagi muvaffaqiyatsizlik murabbiylarni, sport rahbarlarini yosh, istiqbolli o‘yinchi topish va tarbiyalashni kuchaytirishga majbur etadi. Bu jihatdan 1954 yilgi ko‘rsatkichlar ajoyib bo‘lgan. Sportchilarimiz shu yili 50 uchrashuvda g‘olib keladilar, 7 uchrashuvni durang natija bilan yakunlaydilar va 9 tasini yutqazib qo‘yadilar. Bu o‘yinlardagi kiritilgan va o‘tkazib yuborilgan to‘plar nisbati 219:65 bo‘ladi.

«Oliy daraja»dagi musobaqalar ham navbat bilan o‘tib turardi. 50-yillar moskvalik «Spartak» va «Dinamo» jamoalarining raqobat belgisi ostida o‘tadi. Spartakchilar uzoq tanaffusdan keyin 1952 yili sobiq ittifoq birinchiligida yutib chiqdilar, 1953, 1956 va 1958 yillarda ham g‘alaba qozondilar. Dinamochilar 1954, 1955, 1957 va 1959 yillarda mamlakat chempioni bo‘ldilar. Shuningdek Moskvaning armiya (1955, 1956 va 1958 yillarda), torpedo (1953 yilda), Tbilisining (1953 va 1959 yillarda) va Kievning (1952 yilda) Dinamo jamoalari ham, Minskning «Spartak» (1954 yilda) va Moskvaning «Lokomotiv» (1959 yilda) jamoalari ham mamlakatning eng kuchli uch jamoasi qatoriga kiradilar.

1956 yili sovet futboli XVI Olimpiada o‘yinlarida katta g‘alabaga erishdi. 1952 yilgi muvaffaqiyatsizlikdan keyin nihoyat jamoamizga yutuqlar yo‘ldosh bo‘ldi.

Olimpiada oltin medallariga erishish yo‘lida sovet jamoasi birlashgan german jamoasini (2:1), Indoneziya jamoasini (0:0 va 4:0), Bolgariya jamoasini (2:1) va Yugaslaviya jamoasini 1:0 hisobi bilan dog‘da qoldirdi. Olimpiada o‘yinlari chempioni bo‘lgan jamoa tarkibida darvozabonlardan L. Yashin va B. Razinskiy, himoyachilardan M. Ogonkov, A. Bashashkin, B. Kuznetsov, N. Tishchenko, yarim himoyachilardan A. Maslenkin, I. Netto, A. Paromonov, I. Betsa, hujumchilar B. Tatushin, A. Isaev, N. Simonyan, S. Salnykov, A. Ylin, E. Streltsov, B. Ivanov va V. Rijkinlar bor edilar. G. D. Kachalin jamoa murabbiyi bo‘lib, uning rahbarligidagi sovet terma jamoasi yana to‘rt yildan keyin Evropa kubogini ham qo‘lga kiritadi.

1957 yili sobiq ittifoq terma jamoasinnng futbolchilari yana bir faxriy o‘lja

jahon chempionlariga beriladigan Jol Rime kubogi uchun kurashga kirishadilar. Kubok grek mifologiyasidagi g'alaba ma'budasi Nikening oltindan quyilgan haykalchasidan iborat edi.

Dastlabki o'yinlarda 48 jamoa start oladi. Sobiq ittifoq terma jamoasi Polsha va Finlyandiya futbolchilari bilan bir gruppaga kiritilgan edi. Bu jamoalarni yutib, futbolchilarimiz jahondagi eng kuchli 16 terma jamoaning 1958 yildagi final turnirida qatnashish huquqini oladi.

Final musobaqalarning shartiga binoan o'yinlar oldiniga to'rt kichik gruppada (har qaysisida to'rttadan jamoa) davra tizimi (sistemi)da, bir davra o'ynalib, keyin esa kichik gruppalarning (har gruppadan ikkitadan) 8 ta g'olibi ko'chma sovrin uchun kurashadilar.

Chorak finaldan boshlab o'yinlar olimpiya tizimi (sistemi)da, ya'ni yutqazgan jamoa kurashdan chiqib ketadigan tizimda o'tkaziladi.

Sobiq ittifoq terma jamoasi Avstriya, Angliya va Braziliya jamoalari bilan bir kichik gruppada o'ynadi. Inglizlar bilan bo'lgan birinchi o'yinda terma jamoamiz o'yinni 2:2 hisob bilan yakunladilar. Sovet sportchilari Avstriya terma jamoasi ustidan g'alaba qiladilar (2:0). Keyin Sobiq ittifoq terma jamoasi (keingi o'yinlar ko'rsatgandek eng kuchli jamoa bo'lib chiqqan uchinchi raqib) Braziliya terma jamoasi bilan o'ynaydi. Uchrashuv (0:2) hisobi bilan tugaydi. Natijada IV gruppada sovet va ingliz sportchilari 3 tadan ochko to'plagan edilar, to'plar nisbati ham bir xil - 4:4. Chorak finalga chiqish uchun Sobiq ittifoq bilan Angliya futbolchilari o'rtasidagi kurash Gyoteborgda davom ettiriladi. To'qqiz kun mobaynida jahondagi eng kuchli jamoalar bilan nihoyatda keskin to'rtta uchrashuv o'tkazish qiyin bo'ldi. Sovet sportchilari bu sinovga bardosh beribgina qolmay, balki to'rtinchi o'yinda Angliya terma jamoasi ustidan g'alaba qozonib, chorak finalga chiqa oldilar. Chorak finalda sobiq ittifoq terma jamoasi Shvetsiya terma jamoasiga yutqazib qo'ydi (0:2).

Yuksak o'yin texnikasi va o'ziga xos o'yin usuli bilan futbol ishqibozlarini maftun etgan Braziliya futbolchilari esa ilk bor jahon chempioni bo'ldilar. Pele, Garrincha, Didi singari mohir futbolchilarning nomi jahonga mashhur bo'ldi.

Braziliyaliklar o'yinchilarni joylashtirishning hamma uchun kutilmagan 1+4+2+4 yangi tizimni qo'lladilar. Bu tizim futbol taktikasida to'ntarish yasab yuborib, tezda dunyodagi hamma jamoalar shu tizimda o'ynaydigan bo'lishdi.

1960 yil futbolimiz yilnomasida tarixiy bosqich bo'lib qoldi. U isloklar va o'zgarishlar yili, sovet sportchilarining xalqaro uchrashuvlardagi yangi-yangi g'alabalar yili bo'ldi.

Mamlakat chempionati kichik gruppalarida dastlabki o'yinlar o'tkazildi. 10 ta yangi jamoa qo'shilishi chempionat «geografiyasi»ni kengaytirdi, futboldagi yangi rezervlarni ishga soldi. Mamlakat «doimiy» chempionlari bo'lib kelgan «Dinamo», «Spartak» va TSSKA jamoalari qatoriga to'rtinchi chempion moskvalik «Torpedo» jamoasi qo'shilganligini bu mavsumga xos xususiyat, deb hisoblamoq kerak. Torpedochilar to'pni boshqarishda yuksak texnika, taktik harakatlarda faollikni namoyish qilib, 1960 yilda mamlakat chempioni va sobiq ittifoq kubogi egasi bo'ldilar.

1960 yildan boshlab Evropada har to'rt yilda milliy terma jamoalar turniri o'tkaziladigan bo'ldi. Bu turnir oldiniga Evropa kubogi deb yuritilib, keyinchalik Evropa chempionati nomi bilan atala boshlandi. Sovet futbolchilari bu musobaqalarning birinchi g'olibi bo'ldilar. Ular 1956 yili, olimpiadada bo'lganidek finalda Yugaslaviya terma jamoasi ustidan bu gal ham 2:1 hisobi bilan g'alaba qildilar. Darvozabon L. Yashin, himoyachilar G. Choxeli, A. Maslenkin, A. Krutikov, yarim himoyachilar Yu. Voynov, I. Netto, hujumchilar S. Metreveli, V. Ivanov, V. Ponedelnik, V. Bubukin va M. Mesxilar Evropa kubogining dastlabki egalari bo'lishdi.

Boshqa eng yirik xalqaro turnirlarda terma jamoamiz bo'sh o'ynadi. Musobaqa nizomiga ko'ra 1958 yilgi jahon chempionligining qatnashchilari o'ynashi mumkin bo'lmagan 1960 yilgi Olimpiya o'yinlarining saralash turnirida jamoamiz Bolgariya terma jamoasiga g'alabani boy berib qo'ydi. Sobiq ittifoq terma jamoasining futbolchilari 1964 va 1968 yilgi Olimpiadalarning saralash turnirlaridan ham o'ta olmadilar. 1962 yilgi jahon chempionatida esa chorak finalda kurashdan chiqib ketdilar.

60-yillarning. o'rtalarida Kievning «Dinamo» jamoasi mamlakatimiz futbolida etakchi rol o'ynay boshladi. Bu 1966-1975 yillarda hech qoqilmay, turg'un o'ynab kelgan yagona jamoadir. O'yinchilarning universalligi va o'zaro almashinuvchanligi, jahondagi eng yaxshi jamoalar ilg'or tajribasini ijodiy o'zlashtirish, o'quv-mashg'ulot jarayonining yaxshi yo'lga qo'yilganligi, o'yinchilarning to'g'ri tanlanganligi - bularning hammasi kievlik dinamochilarni vatanimiz futbolining peshqadami qilib qo'yadi.

So'nggi 15 yil ichida Kievning «Dinamo» jamoasi etti marta (1961, 1966-1968, 1971, 1974-1975 yillarda) sobiq ittifoq chempioni bo'ldi va uch gal (1964, 1966, 1974 yillarda) sobiq ittifoq kubogini qo'lga kiritdi. Shu davr ichida, moskvalik «Spartak» (1962 va 1969 yillarda), moskvalik «Dinamo» (1963 yilda), tibilisilik «Dinamo» (1964 yilda), moskvalik «Torpedo» 1965 yilda), TSSKA (1970 yilda), voroshilovgradlik «Zarya» (1972 yilda) va erivanlik «Ararat» (1973 yilda) jamoalari ham mamlakat chempioni bo'ldilar. Donetsklik «Shaxtyor» (1961 va 1962 yillar); moskvalik «Spartak» (1963, 1965 va 1971 yillarda), moskvalik «Dinamo» 1967 va 1970 yillarda), moskvalik «Torpedo» (1968 va 1972 yillarda), lvovlik «Karpati» (1969 yilda) va erivanlik «Ararat» (1973 va 1975 yillarda) sobiq ittifoq kubogi egasi bo'ldi.

Sovet terma jamoasining 1964 yil va 1972 yilgi Evropa chempionatlarida ikkinchi, 1966 yilgi jahon chempionatida to'rtinchi o'rin olganini xalqaro maydondagi muayyan muvaffaqiyat desa bo'ladi. 1968 yilgi Evropa chempionatida futbolchilarimiz to'rtinchi o'rinni egalladilar: Italiya jamoasi bilan yarim final o'yinida nollik durang bo'lgandan keyin tashlangan qur'a jamoasining oltin medallar tomon harakatini to'xtatib qo'ydi. 1972 yilgi Olimpiada yarim finalida ham jamoamizning bahti yurishmadi. Sovet futbolchilari olimpiadaning bo'lajak g'oliblari - polyaklarga (1:2) yutqazib qo'yib, bronza medal olishga muvaffaq bo'ldilar.

Bizning futbol 1975 yilda chinakam katta yutuqqa erishdi. Sobiq ittifoq chempionati o'yinlarini ham a'lo darajda o'tkazgan Kiev dinamochilari Evropa mamlakatlari kubok egalari kubogini qo'lga kiritdilar, keyin Superkubok uchun

bo'lgan ikki uchrashuvda Evropadagi boshqa turnir - Evropa chempionlari kubogining g'olibi, myunxenlik «Bavariya»ni yutib chiqadilar. Shu tariqa birinchi marta sovet jamoasi Evropa qit'asidagi mutlaq yaxshi jamoa bo'lib qoladi. Ayni vaqtda sobiq ittifoq terma jamoasi Evropa chempionati saralash uchrashuvlarini muvaffaqiyatli o'tkazadi, Olimpiya terma jamoamiz esa 1976 yilgi olimpiya turnirida qatnashish xuquqini qo'lga kiritadi. Xozirgi sport ilmi va tajribasi nimaiki yangilik va progressiv metod, uslub va takliflar tavsiya etayotgan bo'lsa, xammasi bilan qurollanish lozim. Shunga amal qilgandagina eng yaxshi jamoalarimiz jaxon futbolida etakchi mavqega ega bo'lishlari mumki

Tayanch tushunchalar.

FIFA ,UEFA, futbol. jahon birinchiligi, Olimpiyada, o'yin qoidasi, futbol maydoni, darvoza, futbol ittifoqi, hakam, kubok, terma jamoa, evropa chempionati, Sobiq ittifoq chempionati, sobiq ittifoq kubogi, kubok egalari kubogi.

Nazorat uchun savollar.

- 1.Futbol o'yini qaysi davlatda paydo bo'lgan?
- 2.Futbol o'yinini paydo bo'lish tarixi haqida?
- 3.O'zbekistonda futbol o'yini nechanchi yildan o'ynala boshlangan?
- 4.Rossiyaga futbol o'yini nechanchi yillarda kirib kelgan?
- 5.Birinchi jahon chempionati nechanchi yildan boshlab o'tkazila boshlangan?
- 6.Futbol bo'yicha Olimpiyada birinchiligi nechanchi yildan o'tkazila boshlagan?
7. Bizning futbol nechanchi yilda chinakam katta yutuqqa erishdi?
8. Nechanchi yil futbolimiz yilnomasida tarixiy bosqich bo'lib qoldi?
9. Nechanchi yili sovet futboli XVI Olimpiada o'yinlarida g'alabaga erishdi?
10. Nechanchi yilda ikkinchi marta RSFSR birinchiligi o'tkaziladi?

Foydalangan adabiyotlar

1.Iseyev Sh.T. Futbolchilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish.
// O'quv qo'llanma. – Toshkent. ITA-PRESS, 2014. – 460 b.

2.Isroilov Sh.X., Nurimov Z.R., Abidov Sh.U., Davletmuratov S.R., Karimov A.A.Sport va harakatli o'yinlar (Futbol). – Toshkent. "Sano-standart", 2017.
– 320 b.

3. Qurbonov O.A. Futbol. – Toshkent. 2012.
4. Мирзамахмудов Ш. Футбол ўйини техникаси ва тактикаси. – Тошкент. ”Фан”, 2006. – 137 б.
5. Нуримов Р.И. Футбол. Дарслик. – Тошкент. 2005.
6. Nurimov R.I., Abidov Sh.U., Nurimov Z.R., Davletmuratov S. R. Sport va milliy o'yinlar (Futbol). – Toshkent. ITA-PRESS, 2017. – 180 b.
7. Холмирзаев Э. Спорт ўйинлари ва ўқитиш методикаси. – Тошкент. DIZAYN-PRESS, 2011. – 244 б.
8. Usmanxodjayev T.S. Sport pedagogik mahoratini oshirish. – Toshkent. Cho'iron nomidagi NMIU, 2018. – 272 b.
9. Футбол. Дарслик. Р.А. Акрамовнинг умумий тахрири остида. – Тошкент. ЎзДЖТИ, 2006.
10. Yusupov N.M., Shermuhamedov A.T., Artiqov A.A., Bektorov O.Yo. Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol). // O'quv qo'llanma. – Toshkent. Iqtisod-Moliya, 2015. – 152 b.

2-BOB. FUTBOL BO‘YICHA MUSOBAQALAR O‘TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH

2.1. Musobaqalarni o‘tkazish va tashkil etish.

Futbol musobaqalari o‘quv-mashg‘ulot (trenirovka) ishlarining asosiy qismini tashkil etadi. Ular mashg‘ulotlarda qiziqishni oshiradi, mamlakatda futbolning ommaviy rivojlanishiga yordam beradi. Futbolchi o‘yinlarda muntazam qatnashmay turib yuqori nartijalarga erisha olmaydi. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarning jismoniy, texnik, taktik va axloqiy-irodaviy tayyorgarligi darajasini aniqlaydi hamda o‘quv mashg‘ulot jarayonining yo‘nalishi imkonini beradi. Musobaqa natijalari o‘quv mashg‘ulot ishlarining yakunlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Musobaqalar g‘alabaga erishish yo‘lidagi iroda kuchini, qat’iylikni, rostgo‘ylikni, do‘stlikni va jamoafa bo‘lgan ma’suliyat xissini tarbiyalaydi. O‘yinlarning emotsional keskinligi futbolchilarning psixologik xususiyatini aniqlashga imkon beradi. Ochiq xavoda o‘tkaziladigan musobaqalar qatnashchilarni sog‘lomlashtirish jihatidan katta ahamiyatga ega bo‘lib jismoniy kamolotning xammabop va qimmatli vositalaridan biridir.

Musobaqalar ko‘p sonli qatnashchilarni jalb qilishi bilan birgalikda futbolni ommalashtirishda qudratli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular musobaqa qatnashchilari va tomoshabinlarga jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanishga jalb qiladi. Futbol xakamining tarbiyachi-pedagog va raxbar sifatida vazifasi juda katta. Aniq xakamlik qilish maydonda ro‘y beradigan qo‘pollikka, ayrim futbolchilarning intizomsizligiga qat’iy jazo berish, musobaqa ishtirokchilariga o‘z vaqtida tanbex va ko‘rsatmalar berish musobaqani taktik va texnik jihatdan yuqori darajada o‘tkazishga yordam beradi.

Musobaqa turlari. Oldiga qo‘yilgan vazifalarga qarab musobaqalarni asosiy va yordamchi musobaqalarga ajratish mumkin. Yagona butun ittifok sport klassifikatsiyasi talablariga muvofiq tashkil etiladigan va natijalarga ko‘ra sport klssifikatsiyasi belgilanadigan xamda g‘olib yoki chempion degan nom beriladigan musobaqalar asosiy musobaqalrga kiradi. Musobaqalrning asosiy turi-kalendar

musobaqalar bo‘lib, ular sport tadbirlarining yagona kalendar rejasida nazarda tutiladi va tasdiqlangan nizomga muvofiq o‘tkaziladi.

Musobaqalarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- birinchilik yoki chempionatlar;
- kubok musobaqalari;
- saralash musobaqalari.

Birinchilik yoki chempionatlar eng ma‘suliyatli musobaqalar bo‘lib ularning natijalari bo‘yicha g‘olib jamoaga chempionlik nomi beriladi. Musobaqalarni tashkil etishning bu turi jamoalar kuchini ob‘ektiv baholashga, olib borilayotgan o‘quv mashg‘ulot ishining sifatini va samaradorligini aniqlashga imkon beradi.

Kubok musobaqalariga juda ko‘p jamoalar jalb qilinib g‘olibni qisqa muddatlar davrida aniqlash uchun o‘tkaziladi. Saralash musobaqaning keyingi bosqichida qatnashish uchun eng kuchli jamoalarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Musobaqalarning yordamchi turlariga quyidagilar kiradi:

- nazorat uchrashuvlar;
- o‘rtoqlik uchrashuvlar;
- namunali uchrashuvlar;
- qisqartirilgan musobaqalar.

1. Nazorat uchrashuvlar jamoalarni bo‘lajak musobaqalarga tayyorlash va ularning tayyorgarligi tekshirish maqsadida o‘tkaziladi.

2. O‘rtoqlik uchrashuvlari o‘quv mashg‘ulot maqsadlarida yoki an‘anaviy musobaqalar rejasida o‘tkaziladi.

3. Namunali uchrashuvlar futbolni ommalashtirishga va sport mahoratini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

4. Qisqartirilgan musobaqalar bir necha soat mobaynida o‘tkaziladi. Ular odatda bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish marosimlarida rejalashtiriladi.

Bunday musobaqalarning tez o‘tishi uchun o‘yin vaqti qisqartiriladi. Qisqartirilgan musobaqalarning dasturi faqat o‘yin o‘tkazishni emas, balki o‘yinchilarning texnik yoki jismoniy tayyorgarligiga qarab

musobaqalarni ham o'z ichiga oladi.

Musobaqalarni rejalashtirish. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya harakatining tashkiliy to'zumi xususiyatlarini hisobga olgan holda respublika, viloyat, shahar, tuman va jismoniy tarbiya jamoalarida o'tkaziladigan futbol musobaqalarining muayyan tizimi qaror topgan. Futbol musobaqalarining rejalashtirilishi markazlashtirilgan xarakterda bo'ladi. Sobiq Ittifoq jismoniy tarbiya va sport komitasi barcha idoralar va sport tashkilotlari bilan kelishib turib, musobaqalarning yagona yig'ma kalendar rejani ishlab chiqadi. Bu musobaqlarning bir yo'la 2 joyda bo'lishini, uzoq vaqt yo'lda bo'lishi oldini olishga xamda kalendar rejalar to'la qimmatli o'quv trenirovka ishlari uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Musobaqalarning umumiy yig'ma kalendar rejasi faqat tadbirlar ro'yxati emas, balki sport tashkilotlarining futbolni yanada rivojlantirish yuzasidan birgalikda olib borilgan ishlarini chuqur o'ylangan rejadir. U territorial va idora bo'yicha uyushtiriladigan musobaqalarni o'tkazish bilan aloqador barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Respublika, shahar, o'lka va viloyat musobaqalarining yig'ma kalendar rejasini yuqori tashkilotlar tomonidan rejalashtiriladigan musobaqalarni hisobga olgan holda 4 yillik qilib tuzish maqsadga muvofikdir. Zarur o'zgartirishlar kiritilgandan keyin futbol bo'yicha umumiy yig'ma reja tegishli jismoniy tarbiya va sport komitalarining ommaviy sport tadbirlari rejaga kiritiladi xamda barcha sport tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.

O'yin tizim (sistema)lari. Amalda o'yinning 3 ta asosiy tizimi qaror topgan davrali tizim, bir yoki ikki marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim va avvalgi ikki tizimning kombinatsiyasidan iborat bo'lgan aralash tizim.

Davrali tizim. Musobaqaning davrali tizimida xar bir jamoada agar musobaqa bir davrali o'tkazilsa bir-biri bilan bir marta, agar musobaqa 2 davrali bo'lsa ikki marta uchrashishi kerak. O'yinning bunday tizimi musobaqalashuvchilar kuchlari nisbatini ancha ob'ektiv belgilashga va kuchli jamoani aniqlashga imkon beradi, bunda musobaqaning yakunidagi tasodifiylik elementi ma'lum darajada bartaraf qilinadi. Bu tizim bo'yicha musobaqani ikki

davrli qilib o'tkazish eng to'g'ri tizim hisoblanadi.

Davrli tizimda musobaqa ishtirokchilarning barcha o'rinlari to'plangan ochkolar soniga qarab aniqlanadi. O'tkazilgan barcha o'yinlari natijasiga ko'ra g'olib aniqlanadi. Bir yoki bir necha jamoalar ochkolari teng bo'lib qolishi mumkin - unda g'olibni aniqlash uchun musobaqa tartibiga qandaydir o'zgartirishlar yoki tadbirlar (masalan, shu jamoalar o'rtasida qo'shimcha o'yinlar yoki shu jamoalar o'rtasidagi o'ynalgan o'yin natijalari yoki kiritilgan yoki o'tkazib yuborilgan to'plar nisbati) nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Davrli tizim bo'yicha o'ynash tartibida kur'a tashlash bilan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning nomerlari aniqlanadi. Jamoalarning aniqlangan nomerlari asosida o'yinlar jadvali (kalendar) aniqlanadi. Musobaqalar bir davrali qilib o'tkazilgan o'yin bir-biri bilan bellashuvchi ikki jamoaning dastlabkisining maydonida o'tkaziladi. Agar musobaqada ikki davra nazarda tutilgan bo'lsa 2 chi o'yin keyingi jamoa maydonida o'tkaziladi. Davrali tizim bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar kalendarini 3 usul bilan tuzish mumkin. Birinchi usul musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soniga qarab, jamoalarning umumiy soniga yaqin bo'lgan tok son olinadi va o'nga muvofik ravishda vertikal chiziqlar o'tkaziladi. Masalan, 6 jamoa bo'lsa unga (ya'ni 6 songa) yaqin bo'lgan tok son yoki 5 son bo'ladi. Demak 5 vertikal chiziq o'tkazish zarur, agar jamoalar soni 10 bo'lsa unga yaqin son 9 ta vertikal chiziq chizilgan bo'lishi kerak va xakozo.

Vertikal chiziqlarning ostidan va ustidan, pastdan boshlab, chapdan o'ngga qaratib jamoalar nomeri ketma-ket tartibda, birinchidan jamoalar soniga yaqin bo'lgan tok songa orada bir chiziq qoldirib yozib chiqiladi. Bu nomerlar keyingi nomerlarni jadval (grafik) tarzda yozishda dastlabki reja bo'lib hisoblanadi. Birinchi kun o'yinlar kalendarini tuzish uchun birinchi nomerdan boshlab vertikal chiziq atrofida soat strelkasiga qarshi olib boruvchi tartibda barchi ishtirok etuvchi nomerlar yozib chiqiladi qolgan o'yin kunlarining kalendarini tuzish uchun vertikal chiziqlar o'rtasidaga barcha nomerlar, avval ularning ostiga va ustiga qo'yilgan nomerlarni hisobga olgan xolda ilon izi qilib qo'yib chiqiladi. Shuni xam aytish kerakki, nomerlar birin ketin vertikal chiziqlarning o'ng tomonidan ortib boruvchi

tartibda takrorlanib yoziladi. Shundan keyin ikkinchi va qolgan kalendar kunlarda xam bellashuvchi jamoalarni aniqlash uchun xar bir vertikal chiziqning chap tomoniga avvalgi kalendar kundagi nomerlar o'zgarishsiz o'tkazilishi kerak.

Xamma jadval (grafik)lar to'ldirilib chiqilgandan keyin o'yinlarning kalendari tuziladi. Buning uchun vertikal chiziqning ikki tomonida turuvchi nomerlar juft qilib birlashtiriladi. Musobaqada ishtirok qiluvchi jamoalar soni tok bo'lsa xar bir vertika chiziqning ostida yoki ustida turuvchi nomerlar mazkur kalendar kuni (shu turda ular o'ynamasligini ko'rsatadi.) guruhlar soni juft bo'lsa (masalan 10 bo'lsa) ko'rsatilgan (vertikal chiziqning ostida yoki ustida) nomerlar (jamoalar) oxirgi nomer (uninchi) bilan o'ynaydilar.

Turlar bo'yicha o'yinlar jadvali bo'sh bo'lgan jamoalar (vertikal chiziqlar ostidagi yoki ustidagi nomerlar) bilan so'nggi nomerli jamoa o'yinini hisobga olgan xolda tuziladi. Odatda tur jadvalida birinchi bo'lib kursatilgan jamoa maydon egasi hisoblanadi. Shuning uchun kur'aning oxirgi nomeri (masalan, musobaqada qatnashuvchi jamoalar 10 bo'lgan 10 nomer) xar bir turdan keyin o'rin almashib turadi. Qolgan bellashuvchi jamoalar vertikal chiziqning o'ng tomonidan turuvchi nomerdan boshlab tuziladi. Shunday qilib bu usulda jamoalarning xar bir turda navbat bilan maydon almashishiga qat'iy rioya qilinadi.

Ikkinchi usul (katorasiga) - o'yinlar kalendari o'yinda ishtirok qiluvchi xamma jamoalarni bir qatorga juft-juft qilib yozish usuli bilan tuzishda maydonlar almashishining avvalgidek shartlari, ya'ni uchrashuv «egasi» xuquqi saqlanadi. Mazkur usulda jamoalarning juft soni olinadi (masalan, agar musobaqada 7 jamoa qatnashsa, o'yinlar kalendari 8 jamoaga tuziladi, agar 9 bo'lsa 10 jamoaga bo'linadi va xakazo) 8 jamoa bo'lgan birinchi kalendar kuni quyidagi tartibda tuziladi: bir katorada birinchi nomer oxirgi 8 nomer bilan, 2 nomer oxirgi nomerdan oldingi 7 nomer bilan birlashtiriladi, ya'ni bir biriga qarshi o'ynovchi jamoa aniqlanadi va xakazo

8-jamoa uchun o‘yinlar kalendarini (qatorasiga) to‘zish.

1-kun	1-8	2-7	3-6	4-5
2-kun	5-1	6-4	7-3	8-2
3-kun	1-2	3-4	4-7	5-6
4-kun	6-1	7-5	8-4	2-3
5-kun	1-3	4-2	5-8	6-7
6-kun	7-1	8-6	2-5	3-4
7-kun	1-4	5-3	6-2	7-8

Nazorat katorlar: 8-1 2-7 3-6 4-5

Keyingi kalendar kunlaridagi o‘yinlar jadvalini tuzish dastlabki juftlikdagi nomerni avvalgi kalendar kundagi chekka o‘ng tomondagi nomer bilan birlashtirishdan boshlanadi. Bunda maydonlar almashinishi uchun 1 nomer navbatma navbat juftlikning gox o‘ng gox chap tomoniga qo‘yiladi. Qolgan juftliklar (bir - biri bilan o‘ynaydigan jamoalar) qolgan nomerlarni juft- juft qilib bir qatorga yozib tuziladi. Bunda birlashtirish o‘ng tomondan boshlanadi shunday qilib 2 kalendar kuni kuyidagi jamoalar bir- biri bilan bellashadilar.

Uchinchi usul: bu usul avvalgi 2 usuldan bevosita farq qilib juda oddiy. U musobaqa o‘tkazish jarayonida maydon almashinishi xech qanday axamiyatga ega bo‘lmagan taqdirda qo‘llaniladi.

Bu usulga binoan o‘yinlar kalendari bevosita turlar bo‘yicha tuziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalar soniga mos bo‘lgan nomerlar (jamoalar soni juft bo‘lganda) 1 nomerdan boshlab ikki ustun qilib yoziladi. Shundan keyin 2 nomerdan boshlab (bu nomer ya‘ni 2 nomer 2-ustunga birinchi nomerning qarshisiga yoziladi) ketma-ket soat strelkasi bo‘ylab qolgan nomerlar qo‘yib chiqiladi. Keyingi tur o‘yinlarini tuzish uchun nomerlar soat strelkasiga qarshi yozib chiqiladi 1 nomer o‘z o‘rnida qoldiriladi.

8 jamoa uchun turlar bo'yicha o'yinlarning taqsimlanishi.

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	6-tur	7-tur
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-8
8-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-8	7-2
7-4	8-5	2-6	3-7	4-8	5-2	6-3
6-5	7-6	8-7	2-8	3-2	4-3	5-4

Agar musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni toq bo'lsa keyingi juft son o'rniga (nol) raqami qo'yiladi, qolganlari esa o'zgarishsiz qoldiriladi. Kalendar bo'yicha (nol) raqami bilan bo'lgan jamoa mazkur turda o'ynamaydi.

7 jamoa bo'lganda o'yinlarning turlar bo'yicha taqsimlanishi.

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	6-tur	7-tur
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-0
0-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-0	7-2
7-4	0-5	2-6	3-7	4-0	5-2	6-3
6-5	7-6	0-7	2-0	3-2	4-3	5-4

Davrli tizim bo'yicha bir davrali musobaqalar o'tkazishda kerak bo'lgan vaqtni aniqlash uchun o'yinlarning umumiy sonini bilishi kerak. Bu quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi: $K(K-1)/2$

$$U = K(K-1) / 2$$

$$U = 16(16-1) / 2$$

Bunda U - o'yinlar soni.

K- musobaqada ishtirok etuvchilar soni.

Masalan K=16

O'tkazilgan musobaqalarda o'rinlarni aniqlash. O'tkazilgan musobaqa natijasida g'olib va musobaqada ishtirok etgan jamoalar egallagan keyingi o'rinlar aniqlanadi. Shu maqsadda jamoaning o'tkazgan xar bir o'yini uning natijasiga ko'ra ochkolar berish yo'li bilan baholanadi. Jamoani qatnashadigan davrali tizim bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda quyidagicha hisoblanadi, unga binoan

g'alaba uchun 3, durang uchun 2, mag'lubiyat uchun 1 ochko beriladi. Jjamoaning o'yinga kelmaganligini mag'lubiyat bilan tenglashtirmaslik uchun boshqacha hisoblash shkalasi tuziladi. Masalan g'alaba 3, durang 2, o'yinga kelmasligi uchun 0 ochko beriladi.

Klublar bo'yicha hisobga olishda jismoniy tarbiya jamoalari musobaqalarda bir necha jamoalar bilan qatnashganda hisobga olish shkalasi xar bir jamoaga alohida ochkolar yozishni talab qiladi.

Natijalar klublar bo'yicha hisobga olinadigan musobaqada 6 ta jamoa bilan qatnashuvchi jismoniy tarbiya jamoalariga beriladigan baholash ochkolari shkalasi misol tariqasida keltirilgan.

Aloxida- aloxida baxolashning texnikaviy shkalasi

Natija	Jamoalar bo'yicha baholash ochkolari					
	1	2	3	4	5	6
G'alaba	18	15	12	9	6	3
Durang	12	10	8	6	4	2
Mag'lubiyat	6	5	4	3	2	1
O'yinga kelmaganlik	0	0	0	0	0	0

Musobaqa o'tkazishning aniq maqsadi va oldiga qo'yilgan vazifalarga qarab ochkolar difrentsiatsiyasi turli jamoalar uchun boshqacha bo'lishi xam mumkin. Biroq odatda mag'lubiyat g'alaba uchun beriladigan ochkolarning $\frac{1}{3}$ ni, durang uchun beriladigan ochkolarning $\frac{2}{3}$ ni, o'yinga kelmaganlik uchun 0 qismini berishini nazarda tutish kerak. Musobaqada o'rinlar jamoalarning hamma o'yinlarda to'plagan ochkolar yig'indisiga qarab uzil-kesil aniqlanadi. Eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi. Agar dastlabki bir necha jamoalarning to'plagan ochkolar soni bir xil bo'lsa, uzil-kesil aniqlash uchun ular o'rtasida qo'shimcha o'yinlar o'tkazilishi mumkin yoki o'rinlar kiritilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar nisbati bo'yicha yoki ular o'rtasida musobaqa jarayonida o'tkazilgan o'yin natijalari bo'yicha aniqlanadi.

Jismoniy tarbiya jamoasining barcha jamoalari musobaqada ishtirok etishi natijasida to'plagan ochkolar yig'indisiga qarab klublar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi.

Kuyida nisbatan qisqa muddatlarda ko'p jamoa ishtirokida o'tkaziladigan musobaqalarda qo'llaniladigan o'yin davrali tizimining xillaridan biri keltiriladi. Bu tizim xamma jamoalar bir necha kichik guruxga bo'linadi. Xar bir kichik guruxdagi o'yinlar davrali tizim bo'yicha ochkolar berish yo'li bilan o'tkaziladi. Shundan so'ng kichik guruxlar g'oliblari yoki kichik guruxda birinchi o'rinlarni olgan jamoalardan yangi guruxlar tuziladi va bu guruxlarda xam davrali tizim bo'yicha o'yinlar o'tkaziladi. G'olibni aniqlash uchun bo'ladigan final o'yin gurux g'oliblari o'rtasida o'tkaziladi. Qolgan xamma o'rinlar kichik guruxlarga tegishli o'rinni egallab jamoalar o'rtasidagi o'yinlar o'tkazish bilan aniqlanadi. Masalan, GFR da bo'lib o'tgan 16 jamoa o'rtasidagi 1974 yilgi jahon birinchiligi musobaqalari shunday tizim bo'yicha o'tkazilgan. Dastlabki bosqichda xamma jamoalar to'rtta guruxga bo'linadi.

1 gr. 1,2,3,4-jamoalar, 2 gr. 5,6,7,8-jamoalar

3 gr. 9,10,11,12-jamoalar 4 gr. 13,14,15,16-jamoalar

Jamoa raqamlari kur'a tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Ayrim xollarda, jahon birinchiligida bo'lgani kabi, xar bir guruxga avvalgi jaxon birinchiligida katta natijalar ko'rsatgan jamoalardan ajratiladi. Kichik guruxlarning jamoalari davrali tizim bo'yicha o'ynaydilar. Kichik guruxlarda o'tkazilgan o'yin natijalariga qarab xar biri 4 jamoa bo'lgan 2 gurux tuziladi. (Mazkur musobaqada 1 bosqichdan keyin 8 jamoa o'yindan chiqib ketar va ularning o'rni aniqlanmas edi, garchi buni xuddi shunga o'xshash tizim bo'yicha aniqlash mumkin bo'lsa xam.) «A» va «B» guruxlarda jamoalari davrali tizim bo'yicha bir davra o'yin o'tkazadilar. Finalda 1- o'rin va chempionlik unvonini olish uchun «A» va «B» guruxlarning g'olib jamoalari o'ynaydilar. 3-o'ringa esa guruxlarning 2-o'rinni egallagan jamoalari kuch sinashadilar. Shunday sxema bo'yicha 16 jamoa orasida bo'lib o'tgan dastlabki 4-o'rinni aniqlash uchun 38 o'yin o'tkazilgan bo'lishi kerak. Guruxlarda tegishli o'rinlarni egallagan jamoalar o'rtasida o'tkaziladigan shunday

o‘yinlar yordamida barcha 8 o‘rinni aniqlash mumkin.

Mag‘lubiyatdan keyin o‘yindan chiqib ketish bilan o‘ynaladigan musobaqa tizimi. O‘yindan chiqib ketish bilan o‘ynaladigan musobaqa tizimi, odatda, o‘yinlar qisqa muddatda o‘tkazilishi kerak bo‘lgan va musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni ko‘p bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi. Mag‘lubiyatga uchragan jamoa musobaqalardan chiqib ketadi.

Bu tizim bo‘yicha o‘tkaziladigan o‘yinlar tartibini aniqlashda avvalo musobaqada qatnashish uchun zayavka bergan jamoalar soniga mos setka to‘zish zarur, shundan keyin kur’a tashlanadi. Jamoa o‘zi tortib olgan nomerga muvofiq tuzilgan setkaga yoziladi. Shunday qilib bir biri bilan o‘ynaydigan jamoalar kur’a tashlash bilan aniqlanadi. Setka jamoalar soniga tuziladi. Agar jamoalar soni 2 sonining darajasiga teng bo‘lsa ($2^2 = 4$; $2^3 = 8$; $2^4 = 16$; $2^5 = 32$ va xakozo) xamma jamoalar o‘yinni birinchi davrada boshlaydilar.

Agar musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni 2^P ga teng bo‘lmasa, u xolda setka ikkinchi davraga kelib 2^P ga teng miqdordagi jamoa qoladigan qilib tuzilishi kerak. Binobarin jamoalarning bir qismi o‘yinlarni 2 davradan bir qismi esa birinchi davradan boshlaydi.

O‘yinni birinchi turdan boshlaydigan jamoalar sonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi. $K1 = (K0 - 2^P) * 2$

Bunda: $K1$ - musobaqada 1 turdan boshlab qatnashadigan jamoalar soni.

$K0$ - musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soni

2^P - musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga eng yaqin bo‘lgan kichik son.

8 jamoa uchun setka

1-tur	2-tur	3-tur	G‘olib
1\4 final	2\1 final	final	
	1		
	2		
	3		
	4		

5		
6		
7		
8		

P-musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga qarab tanlanadigan daraja ko'rsatkichi ($p=2,3,4,5$ va xakazo)

Masalan, musobaqada 18 jamoa qatnashishi kerak shu songa mos bo'lgan o'yinlar setkasini tuzish lozim. 19 soni 2 sonining darajasi emas, shu sababli 2 turga kelib 2^p ga teng sonli jamoalar qolishi uchun ma'lum miqdordagi jamoalar 1 turda o'ynashi kerak.

Bu miqdordagi jamoalar yuqorida keltirilgan formula buyicha aniqlanadi.

$$K_1 = (K_0 - 2^p) * 2 = (19 - 2^4) * 2 = (19 - 16) * 2 = 6$$

$$K = 16$$

Musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni juft bo'lganda o'yinga 2 turdan boshlab kirishadigan jamoalar setkaning yuqori va "pastki ga teng qilib taqsimlanadi. Jamoalar soni toq bo'lganda setkaning pastida o'yinga 2 turdan boshlab kirishadigan jamoalar soni 1 ta ko'p bo'lishi lozim. Mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketishi bilan o'ynaladigan tizimning afzalligi shundayki jamoalar soni ko'p bo'lishiga qaramay g'olib qisqa muddatda aniqlanadi.

Masalan: 19 jamoa uchun atigi 5 kalendar kuni talab etiladi. Biroq bu tizimning jiddiy kamchiligi shundaki bir-biri bilan o'ynaydigan jamoalar kur'a tashlash bilan aniqlanadi. Bu esa musobaqaga tasodifiylik elementini kiritadi. Shu tufayli bir necha kuchli jamoalar kur'a takozasi bilan setkaning bir tomonida bo'lib qolishi mumkin. Buning natijasida jamoalar musobaqadan finalgacha chiqib ketishi lozim bo'lib qoladi.

19 jamoa uchun setka

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	G'olib
	1/16 final	1/4 final	1/2 final	final	

1	1/16 final	1/4 final	1/2 final	F I N A L	
2					
3					
4					
5	1/16 final				
6					
7					
8					
9	1/16 final	1/4 final			
10					
11					
12					
13	1/16 final	1/2 final			
14					
15					
16					
17	1/16 final		1/4 final		
18					
19					

Bunday hol yuz bermasligi uchun kuchli jamoalarni sun'iy ravishda bulib yuboriladi. Bu maqsadda quraga binoan setkaning turli tomonidan ularga nomer beriladi. Keyin esa qolgan jamoalar uchun bo'sh nomerlarga qur'a tashlanadi. Jamoalarning keyingi turlarida qaysi jamoa bilan uchrashishlarini bilmasliklari uchun mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish o'ynaladigan o'yin tizimining bir oz o'zgartirilgan turi qo'llaniladi. 1- tur musobaqalarida keyin qolgan jamoalar o'rtasida yangidan qur'a tashlanadi va shu yo'sinda 2- turda bir biri bilan o'ynaydigan jamoalar aniqlanadi.

Yarim final o'yinlarigacha shunday bo'ladi. Masalan, 1952 yilda Xelsinki

o'tkazilgan XV Olimpiadadagi futbol musobaqalari shu sxema bo'yicha o'tkazilgan UEFA kubogi uchun jamoalari o'rtasidagi rasmiy musobaqalar xam xuddi shunday sxema asosida tashkil qilingan. Ikkita mag'lubiyatdan keyin chiqib ketishi bilan o'ynaladigan o'yin tizimi mag'lubiyatdan keyin chiqib ketishi bilan o'ynaladigan o'yin tizimining bir turidir.

2 mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish bilan o'ynaladigan tizimda qo'llaniladigan setka.

1-tur 2-tur 3-tur 4-tur 5-tur 6-tur

Aralash tizim

Aralash tizim futbol musobaqalarining 2 tizimi davrali tizim va mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizimning kombinatsiyasidan iborat. Bu usulga binoan musobaqaning bir qismi mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim bo'yicha boshqasi esa davra tizim bo'yicha o'tkaziladi. Ba'zan mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim kichik guruxlarga bo'lingan tizimlar o'rtasidagi musobaqalarning daslabki qismilar qo'llaniladi. Jamoalardan 1 ta kuchli jamoalar gruppasi tashkil etiladi, bular musobaqalarnig yakuniy qismida bir-birlari bilan davrali tizim bo'yicha uchrashadi.

Mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim bo'yicha (bunda musobaqada qatnashuvchi jamoalar sof qur'a tashlash bilan aniqlanadi) o'tkaziladigan musobaqalarga xos bo'lgan tasodifiylik omilini kamaytirish istagi musobaqa tashkilotchilarini musobaqa o'yinlarining tobora yangi tizimlarini izlashga majbur etadiki, bu tizimlar odatda aralash usullardan iborat bo'ladi.

Bu tizimga binoan musobaqada qatnashuvchi jamoalar guruxlarga bo'linadi. Masalan musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni 16 ta bo'lganda ular xar bir guruhda 4 tadan jamoa bo'lgan 4 guruha bo'lib yuboriladi. Guruhagi o'yinlar davrali tizim bo'yicha 1 yoki 2 davrada o'tkaziladi. Jamoalarni qur'a tashlash bilan bo'lishni turli sharoitlarni hisobga olib o'tkazish mumkin. Bu sharoit oldindan musobaqa nizomida ko'rsatilib o'tiladi (jamoalarning territoriyaga mansubligi printsipi kuchli jamoalarning oldindan klassifikatsiyalash asosida turli guruhlarga

bo‘linib yuborish va hakoza). Jamoalar qandaydir joyda yig‘ilganda emas, balki turli guruhlar va hatto guruhlarga kiruvchi jamoalar terriatoriya jihatidan turli joylarga joylashtirilganda ham birlashtirilgan ham musobaqalarni bu tizim bilan o‘tkazish mumkin. Bu musobaqalar mag‘lubiyatdan keyin o‘yindan chiqib ketish bilan o‘ynaladigan tizim bo‘yicha o‘tkaziladi. Bunda 1chi va 2 chi tur o‘yinlarda guruxlardagi jamoalar bir birlari bilan uchrashmasliklari kerak. Chunki ular o‘zaro o‘yin o‘tkazganlar.

Quyidagi musobaqa o‘tkazishning sxemasi keltiriladi, bu sxema musobaqaning 1- qismida ham 2 - qismi ham jamoalar qur’a tashlashdan oldin tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan musobaqa tizimining afzalligi ravshan, bunda musobaqaning 1-qismidan mumkin bo‘lgan tasodiflar iloji boricha yuqotiladi va musobaqalar jamoalar soni anchagina ko‘p bo‘lganda ham nisbatan qisqa muddat ichida o‘tkaziladi.

Ma’lumki mag‘lubiyatdan keyin o‘yindan chiqib ketish tizimi bo‘yicha o‘ynaladigan o‘yinlarda yoki aralash tizimdan o‘tkazilayotgan musobaqada garchi o‘yin asosiy vaqt qo‘shimcha vaqt durang bilan tugallansa ham bir o‘yinda yohud bir necha o‘yinda keyingi musobaqalarda qatnashish uchur g‘olibni aniqlash zarur, albatta. Buni aniqlashning bir necha usuli bor, ulardan birining hozirgi vaqtda keng tarqalganining mohiyati shundan iboratki jamoalar o‘zaro 2 marta o‘z maydoni yoki raqib maydonida uchrashadilar (bunda o‘tkazilgan xar bir o‘yin uchun ochko beriladi).

Musobaqalarning 1 chi qismi uchun setka

- 1 gr 1,2,3,4-nomerlar
- 2 gr 5,6,7,8-nomerlar
- 3 gr 9,10,11,12-nomerlar
- 4 gr 13,14,15,16-nomerlar

Ochkolar soni tok bo‘lgan taqdirda kiritilgan va o‘tkazib yuborilgan to‘plar nisbati e‘tiborga olinadi, shu bilan birga raqib maydonida kiritilgan bir to‘p 2 ochkoga hisoblanadi.

O‘yinning oxiriga kelib (mazkur turda ikkinchi o‘yining oxiriga kelib) ochkolar kiritilgan va hamda o‘tkazib yuborilgan to‘plar nisbati teng bo‘lib qolsa (to‘plar nolga teng) g‘olibni aniqlash uchun qo‘shimcha 30 daqiqa vaqt beriladi. Agar qo‘shimcha vaqtda ham jamoalardan hech biri g‘alabaga erishmasa jamoa 11 metrlik to‘p tepish bilan aniqlanadi. Bu to‘plarni har ikki jamoa o‘yinchilari o‘yin tugashi bilanoq darvozabon qo‘riqlab turgan darvozaga 11 metrlik to‘p tepiladigan belgidan navbatma-navbat tepadilar.

2.2. Musobaqalarning ahamiyati.

Musobaqa nizomini tuzish

Sovrinli o‘rinlar shuningdek musobaqada qatnashuvchi jamoalar yoki jismoniy tarbiya egallaydigan barcha keyingi o‘rinlar aniqlanadigan biron bir rasmiy musobaqa o‘tkazishdan avval u haqidagi nizom tuzilgan bo‘lishi kerak. Bu nizom futbol federatsiyasi yoki musobaqani o‘tkazuvchi biror tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Musobaqani o‘tkazish davrida tasdiqlangan Nizomdan chetga chiqish yo‘l kuyilmaydi, aks ho‘lda musobaqa, musobaqa o‘tkazayotgan tashkilotning obro‘yiga putur etkazadi va keraksiz nizolarni keltirib chiqaradi xolos. Nizomda quyidagi masalalar aks ettirilishi kerak:

- 1.O‘tkazilayotgan musobaqaning maqsad va vazifalari.
- 2.Kim musobaqani o‘tkazayotgani (federatsiya, tashkiliy ko`mita va hokazo)
- 3.Musobaqa o‘tkazish shartlari.
- 4.Musobaqaga qo‘yiladigan jamoalar soni va nomi, talabnomaga kiritiladigan qatnashchilarning maksimal miqdori.
5. Musobaqa o‘tkaziladigan o‘yin tizimi.
- 6.Hisobga olish tizimi va jamoalarning egallagan o‘rinlarini aniqlash tartibi.
- 7.Musobaqaning alohida shartlari (qanday xollarda o‘yinda qo‘shimcha vaqt belgilanishi va uning davomiyligi o‘yin durang bilan yakunlanganda yoki o‘tkazilgan musobaqa natijasida ochkolar soni teng bo‘lganda g‘olibni aniqlash usullari, o‘yin qoidalari ko‘rsatilganidan tashqari nechta zaxira o‘yinchi almashtirish mumkinligi va hokazo)

8. Jamoalar va musobaqa qatnashchilarini rasmiylashtirish tartibi, formasi, o'yinchilarning talabnoma va qayta talabnoma berish muddati.

9. Musobaqalarni olib boradigan hakamlar kollegiyasining nomi.

10. O'tkazilgan o'yinga norozilik bildirish va uni qarab chiqish shuningdek o'yinchilarni maydondan chiqarib yuborish yoki ularni ogohlantirish bilan bog'liq bo'lgan intizom masalalarini qarab chiqish tartibi.

11. O'yinchilar intizomni bo'zganligi uchun jamoalarning javobgarligi hamda stadion va klub ma'muriyatining o'yin o'tkazish vaqtida tartib saqlashi uchun javobgar bo'lishi.

12. Musobaqa o'tkaziladigan joylar va ularga qo'yiladigan talablar.

13. G'oliblarni mukofotlash xamda oxirgi o'rinlarni egallagan jamoaning yoki jamoalarning keyingi xuddi shunday musobaqada qatnashishlari shart.

Tayanch tushunchalar

Birinchilik yoki chempionatlar, kubok musobaqalari, saralash musobaqalari, davrali tizim, aralash tizim, chiqib ketish, musobaqa setkasi, aylanma usul, musobaqaning alohida shartlari, futbol federatsiyasi, talabnoma.

Nazorat uchun savollar

1. Musobaqa o'tkazish qoidalari ?

2. Qur'a tashlash usullari qanday?

3. Olimpiya usuli qanday usul?

4. Aylanma usul qanday usul?

5. 10 ta jamoa o'rtasida chiqib ketish usuli?

6. O'tkazilayotgan musobaqaning maqsad va vazifalari?

7. Kim musobaqani o'tkazayotgani (federatsiya, tashkiliy ko'mita va hokazo) ?

8. Musobaqa o'tkazish shartlari?

9. Musobaqaga qo'yiladigan jamoalar soni va nomi?

10. Musobaqa o'tkaziladigan o'yin tizimi?

Foydalangan adabiyotlar

1. Iseyev Sh.T. Futbolchilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish.

// O'quv qo'llanma. – Toshkent. ITA-PRESS, 2014. – 460 b.

2. Isroilov Sh.X., Nurimov Z.R., Abidov Sh.U., Davletmuratov S.R., Karimov A.A. Sport va harakatli o'yinlar (Futbol). – Toshkent. "Sano-standart", 2017. – 320 b.
3. Qurbonov O.A. Futbol. – Toshkent. 2012.
4. Мирзамахмудов Ш. Футбол ўйини техникаси ва тактикаси. – Тошкент. "Фан", 2006. – 137 б.
5. Нуримов Р.И. Футбол. Дарслик. – Тошкент. 2005.
6. Nurimov R.I., Abidov Sh.U., Nurimov Z.R., Davletmuratov S. R. Sport va milliy o'yinlar (Futbol). – Toshkent. ITA-PRESS, 2017. – 180 b.
7. Холмирзаев Э. Спорт ўйинлари ва ўқитиш методикаси. – Тошкент. DIZAYN-PRESS, 2011. – 244 б.
8. Usmanxodjayev T.S. Sport pedagogik mahoratini oshirish. – Toshkent. Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018. – 272 b.
9. Футбол. Дарслик. Р.А. Акрамовнинг умумий тахрири остида. – Тошкент. ЎзДЖТИ, 2006. – 437 б.
10. Yusupov N.M., Shermuhamedov A.T., Artiqov A.A., Bektorov O.Yo. Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol). // O'quv qo'llanma. – Toshkent. Iqtisod-Moliya, 2015. – 152 b.

3-BOB. FUTBOL O‘YIN TEXNIKASI VA TAKTIKASINING TASNIFI

3.1. O‘yin texnikasi

O‘yin texnikasi. Qo‘yilgan maqsadga erishmoq uchun u o‘yinda xilma-xil tarzda qo‘shib turib qo‘llaniladigan maxsus usullar to‘plami futbol texnikasini tashkil etadi.

Texnik usullar - bu futbol o‘yining vujudga keltirish vositasidir. Yuksak sport natijalariga erishish ko‘p jihatdan futbolchining anashu xilma-xil vositalarni qanchalik to‘liq bilishiga, raqib jamoa o‘yinchilari qarshilik ko‘rsatayotgan, ko‘pincha esa charchoq orta borayotgan sharoitda o‘yin faoliyatidagi turli xolatlarda ularni qanchalik mohirlik bilan samarali qo‘llanishga bog‘liq. Futbol texnikasini yaxshi bilish futbolchining xar tamonlama tayyorgarlik ko‘rishi va garmonik kamol topishidagi ajralmas qismidir.

O‘yin taraqqiyotining 100 yildan ortiq tarixi mobaynida futbol texnikasida muayyan o‘zgarishlar bo‘ladi. Bu evalyutsiyaning asosiy yo‘nalishlari quydagilardan iborat: boshning chakka qismi va orqasi bilan zarba berish, to‘pni boldir bilan to‘xtatish singari noratsional usul va uslublarni qo‘llash ancha kamayib ketdi: oyoq yuzi bilan zarba berishdan, to‘pni son va ko‘krakda to‘xtatishdan, to‘pni qo‘l bilan tashlash (darvozabon texnikasi)dan foydalanish koefitsenti oshdi, aldash xarakatlari (fintlar ko‘paydi) hozirgi futboldagi texnik usullar o‘yin xarakatlari tezligi va aniqligini oshirish uchun kuchdan etarlicha tejab foydalanish imkonini beradigan biomexanika nuqtai nazardan maqbul xarakter tizimi bilan xarakterlanadi. Tez va ishonchli, sodda va samarali bo‘lsin, futbol texnikasini qo‘llanishga qo‘yiladigan hozirgi kundagi talab anashundan iborat.

Futbol texnikasining klassifikatsiyasi. Futbol texnikasining klassifikatsiyasi texnik usullarni umumiy hususiyatli belgilariga qarab guruxlarga bo‘lishdan iborat.

O‘yin faoliyati xarakteriga qarab futbol texnikasida ikkita yirik bo‘lim ajratiladi: maydon o‘yinchisi texnikasi va darvozabon texnikasi. Xar qaysi bo‘lim esa quydagi: xarakterlanish texnikasi va to‘pni boshqarish texnikasi bo‘limchalariga bo‘linadi. Kichik bo‘limlar turli usullarda ijro etiladigan aniq texnik usullardan xarakterlanish texnikasi uslublari va usullaridan iborat. Bulardan maydon

o'yinchilari va darvozabon foydalanadi. Ammo ayrim amal va usullar o'zining muayyan turlariga ega. Usul va turlarda harakatning asosiy mexanizmi umumiy bo'lib, detallardagina farq bo'ladi. Xar xil uslub va usullarni ijro etish shartlari futbol texnikasini yanada turli-tuman qiladi.

Futbol texnikasining xarakteristikasi maydon o'yinchisi va darvozabon uchun umumiy kichik bo'lim bo'lgan xarakatlanish texnikasidan boshlanadi.

Xarakatlanish texnikasi – quyidagi usullar guruhini o'z ichiga oladi: usullar xilma-xil tarzda qo'shib foydalaniladi. Mana, masalan futbolchining xarakatlanishi tezligi nihoyatda xilma-xil, sekin yurishdan boshlab startdagi tezlanishi maksimal tezlikka qadar o'zgaradi, yugurishning maromi va yo'nalishi qo'qqisdan o'zgarib turadi. Yugurushning xilma-xil usullari sakrash, to'xtash, burulish bilan birga qo'shib olib borish futbolchi xarakatlanishiga xos xususiyat xisoblanadi. Xarakatlanish texnikasining usullari maydon o'yinchilari va darvozabonning to'pni boshqarish san'ati bilan chambarchas bog'liq. Xarakatlanish texnikasi usullarini keragicha hamda kompleks tarzda qo'llanish ko'p taktik vazifalarning samarali hal qilish imkonini beradi.

Yugurish. Futboldagi asosiy xarakatlanish vositati yugurishdir, to'pni boshqarmayotgan futbolchilari yugurish yordamida maydonda turlicha joylashib oladilar. Bundan tashqari yugurish tarkibiy qism sifatida to'pni boshqarish texnikasiga ham kiradi. Futbolda yugurishning quyidagi amallari qo'llaniladi: oddiy yugurish, tisarilib yugurish, chalishtirma qadam tashlab yugurish, juftlama qadam tashlab yugurish. Oddiy yugurishdan asosan to'g'riga borayotgan o'yinchilar bo'sh joyga chiqish, raqibni quvish va hokazolarda foydalaniladi.

Tisarilib yugurishdan asosan to'pni olib qo'yida va to'sib olishda qatnashayotgan himoyadagi o'yinchilar foydalanadilar. Yugurishning bu turi ham tsiklik bo'ladi. Qisqa, lekin tez-tez qadam tashlash havoda uchish fazasining qariyb yo'qligini unga xos xususiyatidir. Chalishtirma qadam tashlab yugurishdan xarakat yo'nalishlari o'zgartirish uchun turgan joydan o'ngga yoki chapga siltanib yugurish paytida burilib olgandan keyin foydalaniladi. U xarakatlanishning mahsus vositasi bo'lib, asosan boshqa yugurish turlari bilan birga qo'shib qo'llaniladi.

Juftlama qadam tashlab yugurishdan taktik jihatdan kerakli holatda o'tishda (masalan, o'yinchi oldini to'sib olishda) foydalaniladi. U dastlab xarakatlanish fazasi sifatida ijro etiladi.

Sakrash. To'xtash va burilish usullarining ba'zilarini ijro etishda sakrashdan foydalaniladi. Sakrab zarba berishning ayrim usullari, to'pni oyoqda, ko'krakda, kalla bilan to'xtatib qolish va ba'zi fintlar texnikasining tarkibiy qismiga kiradi. O'yinda oldinga, yon tomonlarga, yuqoriga hamda shularga yaqin yo'nalishlarda sakraladi. O'yindagi vaziyat ko'pincha maksimal baland yoki maksimal uzun sakrashni talab qilmadi. Bunda sakrashning samaradorligi futbolchining koordinatsion qobiliyati bilan belgilanib futbolchi turli dastlabki xolatlardan fazo, vaqt va kuch xarakteristikalari optimal bo'lgan xarakatlar qilish kerak bo'ladi. Sakrashning ikki xil usuli bor: bir oyoqda deysinib sakrash va ikki oyoqda deysinib sakrash.

Maydon o'yinchisining texnikasi.

Maydon o'yinchisining texnikasi ikkita kichik bo'limdan iborat. Bulardan biri xarakatlanish texnikasi bo'lsa, ikkinchisi to'pni boshqarish texnikasidir.

Maydon o'yinchilari xarakatlanish texnikasining yuqorida tahlil qilingan.

To'pni boshqarish texnikasiga quyidagi usullar gruppasi kiradi: zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni olib yurish, xarakatlar (fintlar) to'pni olib qo'yish. Bundan tashqari qo'lda bajariladigan mahsus usul yon chiziqdan to'pni tashlab berish ham to'pni boshqarish texnikasiga kiradi.

O'yin vaqtida qaysi usul qancha miqdorda ijro etilishi futbolchilarning o'yindagi funktsiyalariga bog'liq. Usullarning ijro etish sifati esa maydon o'yinchilarining hammasida yuksak darajada bo'lishi kerak.

To'pga bosh bilan zarba berish. Bu texnik usul o'yindagi muhim vosita hisoblanadi. To'pga bosh qo'yish o'yin jarayonida yakunlovchi zarba berishda va sheriklarga to'p oshirishda qo'llaniladi.

Peshona bilan zarba berish va shuning variantlari bu usuldagi eng ko'p foydalaniladigan usullardir. Ammo o'yin vaziyatlari shunchalik ko'p to'pning yo'nalishi traektoriyasi va tezligi shu qadar xilma-xilki o'yin jarayonida bosh bilan

zarba berishning asosiy usulini va o'yinning variantlarini ishlatish imkoniyati bo'lmaydigan paytlar ham uchrab turadi. Bunday paytlarda chekka bilan, engsa bilan, boshning tepa qismi bilan zarba berish usullari ancha samara beradi. Biroq bunday zarbalar kamdan kam qo'llaniladi, shuning uchun ularni maxsus qarab chiqamiz.

Bosh bilan to'pga zarba berish tayyorlov, ishchi va yakunlovchi fazalarni o'z ichiga oladi.

Tayyorlov fazasi boshni orqaga tortish. Buni bajarish uchun bosh bilan gavdani orqaga tortiladi. Bunda gavdani roselaydigan antagonist – mushaklar cho'ziladi. To'p o'yinchining nazaridan pastda qolmasligi, boshni esa orqaga juda tashlab yubormasligi kerak.

Ishchi faza – zarba beruvchi xarakter va surib borish. Zarba beruvchi xarakterni bajarish gavdani keskin rostlashdan boshlanadi. Bevosita zarba berish bosh bilan gavda frontal tekislikdan o'tayotgan paytda bo'lgani ma'qul. Ana shu holatda bosh xarakati eng katta tezlikka erishgan bo'lib, bu kuchli bosh urush imkoniyatini beradi.

Yakunlovchi faza- keyingi xarakterlar uchun dastlabki holatga o'tish. Surib borish tugagandan keyin gavda xarakati tormozlanadi. Oldinga tomon juda engashib ketish yaramaydi, chunki bosh bilan urgandan keyin boshqa xarakter va xolatlarga tayyor turish kerak bo'ladi.

Peshona bilan zarba berish. Boshni oldi orqa tekislikda anchagina orqaga yuritish katta kuch bilan bosh urish imkonini beradi. Shunda uchib kelayotgan to'pni va mo'ljal qilinadigan nishonni ko'rib turish mumkin, bu esa muayyan darajada zarbani aniq chiqishga sabab bo'ladi. O'yindagi vaziyatga qarab peshona bilan zarba berishning ikki xil varianti qo'llaniladi: sakramay zarba berish va sakrab zarba berish.

To'pni to'xtatish. To'pni to'xtatish, to'pni qabul qilish va egallash vositasi bo'lib xizmat qiladi. To'pni oyoq, gavda va bosh bilan to'xtatiladi.

To'pni oyoq bilan to'xtatish – eng ko'p qo'llaniladigan texnik usul. Uni turli usullarda bajariladi. Xarakterning asosiy fazalari hamma usullar uchun umumiy.

Tayyorlov fazasi – dastlabki holatda turib olish. Bu faza bir oyoqqa tayangan holat bilan xarakterlanadi. Turg'unlik bo'lishi uchun gavda og'irligi sal bukilgan tayanch oyoqqa tashlanadi. To'xtovchi oyoq to'p tomon o'tkazilib, to'xtovchi yuzasi to'pga qaratiladi.

O'tkazib yuborib to'p to'xtatish. Xozirgi futbolda to'pni o'tkazib yubormay to'xtatish tobora kam qo'llanilmoqda, chunki o'yin surati sekinlashadida. O'yin vaziyatidan yaxshiroq foydalanish uchun qo'shimcha xarakatlar qilish kerak bo'ladi. O'yindagi ba'zi xolatlar o'yinchidan to'pni o'tkazib yubormay to'xtatishni talab qiladigan vaziyatlar ham so'zsiz uchrab turadi. Biroq, zamonaviy futbol to'pni hali to'xtatmasdan oldin futbolchi keyin qanday xarakat qilish haqida bir qarorga kelib olishi bilan xarakterlanadi. Ayni shu o'tkazib yuborib to'xtatish dumalab yoki uchib kelayotgan to'pning tezligini so'ndiribgina qolmay, balki uning yo'nalishini kerakli tomonga o'zgartirish, keyingi xarakatlarga qulayroq tayyorlanib olish imkonini beradi. To'pni ko'pincha yon tomonga (o'ngga – chapga) yoki orqaga o'tkazib olinadi.

Ko'krak bilan to'xtatish. Bunda ham to'pni to'xtatish amortizatsiya va so'ndiruvchi harakatga asoslangan bo'ladi. Xarakat tuzilishining uch fazali ekani ko'krak bilan to'p to'xtatishga xos xususiyatdir.

Tayyorlov fazasida to'pni to'xtatish uchun qulay holatda mana bunday turib olinadi: futbolchi to'p tomonga qarab oladi, oyoqlar kerilgan yoki kichikroq qadam (50 yoki 70 sm) kengligida ochilgan holda turiladi, ko'krak sal oldinga olingan, qo'llar tirsagi sal bukilib, past tushirilgan. Ishchi faza sundiruvchi xarakat bilan xarakterlanadi. To'p yaqinlashib kelganda gavda orqaga tortilib, elka bilan ikki qo'l oldinga chiqariladi. Yakunlovchi fazada og'irlik markazi o'qi to'p bilan xarakat qilish mo'ljallangan tomonga o'tkaziladi. Ko'krak balandligida uchib kelayotgan hamda turli traektoriyada pastga tushib kelayotgan to'plarni to'xtatishdagi mexanizm asosan bir xil bo'lib, ayrim detallardagina farq qiladi. Ko'krak bilan to'p to'xtatishdagi amortizatsiya yo'li qisqa bo'lgani sababli to'pning tezligi va traektoriyasini juda aniq muljallay bilish hamda sundiruvchi harakatni o'z vaqtida bajarish lozim.

To'pni bosh bilan to'xtatish. Bu texnik usul o'yinda kam qo'llaniladi, chunki uni bajarish qiyin, qolaversa ishonchliligi boshqa usul va uslublarga qaraganda juda kam. To'xtatuvchi qismi ko'proq peshonaga to'g'ri keladi. Peshona suyaklari qattiq bo'lgani uchun sundiruvchi xarakat hisobigagina amortizatsiya qilinadi. Bu esa ishonchlilikni kamaytiradi. Biroq, qiyin bo'lishiga qaramay, to'pni bosh bilan to'xtatishni o'zlashtirib olish nihoyatda zarur.

Bo'y baravar uchib kelayotgan va turlicha traektoriyada tushib kelayotgan to'plarni peshona bilan to'xtatsa bo'ladi.

To'p bo'y baravar uchib kelayotgan bo'lsa o'yinchi kichikroq qadam tashlab to'p tomonga qarab oladi.

To'pni tashlash

To'pni tashlash - maydon o'yinchilari qo'lda bajaradigayu yagona usul. To'p tashlash harakatining tuzilishi ko'p jihatdan futbol qoidalarining talabiga qarab belgilanadi va unchalik murakkab hisoblanmaydi. Biroq to'pni uzoqroq (25- 30 m) masofaga etkazib tashlash uchun maxsus ko'nikma hosil qilingan bo'lishi va qorin, elka kamari hamda qo'ldagi mushak gruppalariga muayyan darajada kuch berilishi kerak.

To'pni tashlashda uni keng «yozilgan barmoqlar yon tomonlaridan (o'yinchiga qaragan tomoniga yaqinroq) qamrab turadigan qilib, bosh barmoqlari qariyb bir-biriga tegadigan darajada qo'lga olinadi.

Qo'lni yuqoridan orqaga tortish tayyorlov bosqichi hisoblanadi. Dastlabki holat - oyoqlarni (elka kengligida) kerib turish yoki bir qadam tashlagan holatda turish. To'pni tutgan qo'llar tirsakdan sal bukiladi va yuqori ko'tarilib, boshdan orqaga o'tkaziladi. Gavda orqaga egiladi, oyoqlar tizzasi bukilib, gavdaning og'irligi (qadam tashlab turgan holatda) orqadagi barmoqlarining holati oyoqqa tushadi.

Ishchi bosqich - oyoqlar, gavda, qo'llarni keskin rostlashdan boshlangan to'pni tashlash harakati uloqtirish tomonga barmoqlar yordamida kuch berish bilan tugallanadi.

Yakunlash bosqichini bajarish tashlash vaqtida futbolchining ikkala oyog'i

erga tegib turishi lozimligi to'g'risidagi qoida talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Shunga binoan yakunlovchi bosqichni bajarishning bir qancha variantlari bor. Birinchi holda o'yinchi qo'llari frontal tekislikdan o'tayotganda to'pni qo'yib yuboradi va gavdaning olg'a tomon harakati darhol tormozlanadi. Ba'zan uloqtirish paytida orqadagi oyoqni oldingi oyoqqa keltirib juftlanadi.

Nihoyat, yakunlovchi boshichda ataylab yiqilish mumkin. Bunda gavda frontal tekislikdan o'tgandan keyin to'p tashlab yuborilgan zahoti olg'a tomon pastga harakat davom etadi. Qo'llar gavdadan ilgarilab ketib, erga tushadida, yiqilishni amortizatsiyalaydi.

Tashlash uzoqligini oshirish uchun ba'zan yugurib kelib uloqtiriladi. Yugurib kelish to'pni tashlashda qatnashadigan a'zolarining tezligini oshirishga yordamlashadi.

Darvozabonning o'yin texnikasi

Darvozabonning o'yin texnikasi maydon o'yinchisining texnikasidan tubdan farq qiladi. Bu darvozabonga binoan jarima maydoni ichida qo'l bilan to'p o'ynashga ruxsat etilgani bilan bog'liqdir.

Quyidagi usullar gruppasi darvozabonning o'yin texnikasiga kiradi: to'pni ilib olish, qaytarish, o'tkazib yuborish va tashlash. Uyinda sheriklar va raqib jamoasi o'yinchilarining qaerda turganiga, shuningdek to'p harakatining yo'nalishi, traektoriyasi va tezlitiga qarab darvozabon harakatining xilma-xil uslublari, usul va turlari qo'llaniladi.

Uyin jarayonida darvozabon maydon o'yinchisi ixtiyoridagi kerakli texnik usullardan foydalanaveradi.

Texnik usullarning muvaffaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan darvozabonning harakatga qanchalik tayyor turganligi bilan belgilanadi. Darvozabonning to'g'ri dastlabki holatda bo'lishi uning harakatga tayyor ekanligi omillaridandir. Bunday dastlabki holat oyoqlarni elka kengligida kerib, sal bukib turish bilan xarakterlanadi. Yarim bukik qo'llar ko'krak balandligida oldinga uzatig'liq. Kaftlar olg'a tomon ichkariga qaragan. Barmoqlar sal bo'shashtirilgan. Dastlabki holatning to'g'ri bo'lishi darvozabonga og'irlik markazi o'qini tezlik bilan tayanch

sathidan tashqari chiqarib olib, lozim bo'lgan harakatlarni oddiy, juftlama yoki chalishtirma qadam tashlab, sakrab va yiqilib bajarish imkonini beradi.

To'pni ilib olish

To'pni ilib olish - darvozabon o'yin texnikasining asosiy vositasidir. Bu ko'pincha ikki qo'llab amalga oshiriladi. To'pning yo'nalishi, traektoriyasi va tezligi qandayligiga qarab, uni pastdan, yuqoridan yoki yondan ilib ushlab olinadi. Darvozabondan anchagina naridan uchib borayotgan to'plarni yiqilib turib olinadi.

To'pni pastdan ilib olish darvozabon tomon yumalab kelayotgan, yuqoridan tushib kelayotgan va past (ko'krak balandligida) uchib kelayotgan to'plarni egallab olishda qo'llaniladi.

Yumalab kelayotgan to'pni ilib olishning tayyorlov bosqichida darvozabon oldinga engashib, qo'llarini pastga tushiradi. Bunda kaftlar to'pga qaragan, sal yoziq, yarim bukik barmoqlar erga tegay deb turadi. Qo'llar haddan tashqari tarang tutilmasligi kerak. Oyoqlar juftlangan, hech bukilmagan yoki sal bukilgan bo'ladi.

Ishchi bosqich shundan iboratki, to'p qo'lga tegish paytida barmoqlar uni ostidan tutib oladi, qo'llar tirsakdan bukilib, to'pni qorin tomon torta boshlaydi. Pastga tushirilgan qo'llar vaznining amortizatsiyasi ta'siri va bukilishi hisobiga to'pning tezligi so'ndiriladi. Yakunlovchi bosqichda darvozabon qaddini rostlaydi.

Hozirgi zamon futbolida yumalab kelayotgan to'pni ikki qo'llab pastda; ilib olishning boshqa variantlari ham qo'llaniladi. Bu variantning xususiyati shundaki, unda oldinga engashish o'rniga taxminan 50—80° tashqariga burib turib bir oyoqda cho'nqayiladi. Tizzasi anchagina bukilib, uchiga tayanib turilgan ikkinchi oyoq ham tashqariga buriladi. Pastga tushirilgan qo'llarning kafti to'pga to'g'rilangan bo'ladi. To'pni bevosita, ilib olish yuqorida tasvirlangan variantdagi singari bo'lash. Yakunlovchi bosqichda oyoqlarni burish va to'g'rilash hisobiga darvozabon qaddini rostlab, keyingi harakatlar uchun kerakli dastlabki holatni oladi. To'siqning straxovka qilish sathi anchagina bo'lgani uchun to'p ilib olishning bu varianti dinamik ishonchliroqdir.

Past qorin balandligi darajasida uchib kelayotgan va darvozabonning old

tomonida yuqoridan tushib kelayotgan to'plarni ilib olishda tayyorlov bosqichida salgina bukilgan qo'llar kaftlari oldinga qaratib, to'p qarshisiga uzatiladi.

Barmoqlar bir oz yoziq va yarim bukik bo'ladi. Ayni vaqtda gavda ozroqqina oldinga zngashadi, oyoqlar esa sal bukiladn. Oyoqlarning qay darajada bukilishi to'pning uchib kelish traektoriyasiga bog'liq. To'p qo'lga tegish paytida darvozabon uni ostidan barmoqlari bilan tutib oladida, qorni yoki ko'kragi tomon torta boshlaydi. To'p anchagina tez kelayotgan bo'lsa, oyoq-larni to'g'rilash va gavdani oldinga engashtirish hisobiga orqaga tomon qo'shimcha so'ndiruvchi harakat qilinadi.

Uyin jarayonida darvozabonning yon tomoniga yumalab va past uchib kelayotgan, shuningdek uning old tomonida ancha nariga tushayotgan to'plarni ilishga ham to'g'ri keladi. Bunday hollarda oldin to'pning harakat yo'nalishi tomonga qarab jiliy'adi.

Bu ish yugurish qadami, juftlama qadam yoki chalishtirma qadam bilan, shuningdek ko'proq bir oyoqda.depsinib yuqoriga, oldinlab yuqoriga yoki yon tomonga yuqorilab sakrash bilan amalga oshiriladi. Shundan keyingi hara-katlar sistemasining tahlili yuqrrida berilgan.

To'pni yuqoridan ilib olish o'rtacha traektoriyada (ko'krak va bo'y baravar) uchib kelayotgan, shuningdek baland uchib kelayotgan va pastga tushib kelayotgan to'plarni egallab olish uchun qo'llaniladi.

Darvozabon tayyorlov bosqichida dastlabki holatni egallayotganda qo'llarini sal bukib, oldinga yoki yuqorilatib oldinga (to'pning uchib kelish balandligiga qarab) uzatadi oldinga qaratilgan kaftlarning barmoqlari yoziq, yarim bukilgan bo'lib, «yarim sfera» singari shakl hosil qilib turadi. Bosh barmoqlar bir-biridan uncha uzoq bo'lmaydi (3—5 sm dan oshmaydi).

Ishchi bosqichda to'p qo'lga tegish paytida barmoqlar uni sal oldinroq yonidan tutib oladi, barmoqlar bir-biriga salgina yaqinlashadi. Barmoqlarning so'ndiruvchi harakati va qo'llar bukilishi hisobiga to'pning tezligi sindiriladi. U yakunlovchi bosqichda darvozabon qo'llarini maksimal darajada bukib, to'pni eng qisqa yo'l bilan ko'kragiga tortadi.

Qiyin sharoitida darvozabon to'pni asosan u uchib kelayotgan tomonga kerakligicha jilgandan keyingina ilib oladi. Buning uchun harakatlanish texnikasining turli priyomlari va ularning birga qo'shilgan variantlari qo'llaniladi.

Baland to'plarni, ya'ni baland traektoriyada uchib kelayotgan to'plarni qo'lga kiritish uchun sakrab ikki qo'llab yuqoridan ilib olish qo'llaniladi.

To'pning uchish yo'nalishiga qarab bir yoki ikki oyoqda deysinib yuqoriga, yuqorilab oldinga yoki yuqorilab yonga sakraladi. Harakatlanayotgan paytda asosan bir oyoqda, joyda turganda esa ikki oyoqda deysinib sakraladi. Depsinish paytida qo'llar silkinch harakat qilib, to'p tomon yuqoriga uzatiladi. To'pni ilib olgandan keyin oyoqlarni bir oz bukib erga to'shiladi.

To'pni yondan ilib olish darvozabonning yon tomoniga o'rtacha traektoriyada uchib kelayotgan to'plarni qo'lga kiritish uchun qo'llaniladi.

Tayyorlov bosqichida qo'llar oldinlatib yonga, to'p uchib kelayotgan tomonga uzatiladi. Panjalar deyarli parallel, barmoqlar eal yoziq va yarim bukik. Gavdaning og'irligi to'p ilinadigan tomondagi oyoqqa o'tkaziladi. Gavda ham shu tomonga sal buriladi. Ishchi va yakunlovchi bosqichlar bajarilish strukturasi jihatdan to'pni yuqoridan ikki qo'llab ilib olishdagiga o'xshaydi.

To'pni yiqila turib ilib olish darvozabondan chetga qo'qqisdan, aniq, goho esa juda kattiq yo'naltirilgan to'plarni qo'lga kiritishning samarali vositasidir. To'p uzatilganda (darvoza bo'ylab «g'izillatib» berilgaida) ushlab qolish va raqib oyog'idagi to'pni olib qo'yishda qo'llaniladi.

Iqila turib to'p ilishning ikki varianti bor: uchish bosqichisiz ilish va uchish bosqichi bo'lganda ilish.

Birinchi variant odatda darvozabonning yon tomoniga undan 2—2,5 m narida yumalab yoki past uchib kelayotgan to'plarni ilib olish uchun qo'llaniladi. Tayyorlov bosqichida to'p harakati tomonga katta qadam tashlanadi. To'pga yaqin turgan oyoq qattiq bukiladi. Og'irlik markazining o'qi tayanch sathidan chiqarilib, pastroq tushiriladi. Qo'llar to'p tomon keskin uzatiladi, bu gavdaning harakatlanishiga ham, yiqilishga ham yordam beradi. Erga tushish bunday tartibda bo'ladi: oldin oyoqning ooldir qismi, ke-iin tos-son va gavdaning yon qismlari erga

tegadi. Parallel uzatilgan qo'llar to'p yo'lini to'sib chiqadi. Panjalarningturishi, shuningdek bevosita to'p ilib olish yiqilmay ikki qo'llab yuqoridan ilishda qanday bo'lsa, shunday. Darvozabon g'ujanak bo'layotganda qo'llarini bukib, to'pni ko'kragiga tortadi. Ayni vaqtda oyoqlarini ham bukadi.

Darvozabondan ancha narida dumalab va uchib kelayotgan to'plarni ilib olish uchun uchish bosqichli yiqilish qo'llaniladi. Dastlabki bosqichda darvozabon uchib kelayotgan tomonga tezda bitta yoki ikkita juftlama yoki chalishtirma qadam tashlaydi. Bunday paytda qaysi harakatlanish usulini tanlash va undan foydalanish darvozabonning hosil qilgan shaxsiy ko'nikmalariga bog'liq. Depsinishga tayyorlanish gavdani oldinga engashtirib, og'irlik markazi o'qini tayanch sathidan chetga chiqarishdan boshlanadi. To'p kelayotgan tomonga yaqin oyoqda depsiniladi. Qo'llar to'p tomonga keskin uzatiladi. Ularning harakati va ikkinchi oyoqning silkib bukilishi depsinish kuchi oshishiga yordam beradi. Depsinish burchagining qanday bo'lishi to'pning uchish balandligiga bog'liq. Baland kelayotgan to'plarni ilib olishda yuqorilab yon tomonga, o'rtacha balandlikda kelayotganlarini ilishda esa yon tomonga depsinib chiqiladi. Dumalab kelayotgan va past uchib kelayotgan to'plarni ilib olishda gavda ko'proq engashadi, depsinuvchi oyoqning bukilishi ko'proq, darvozabonning uchish traektoriyasi past, er bilan parallel bo'ladi. To'p darvozabonning uchish bosqichida ilib olinadi. To'p qo'lga kiritilgandan keyin g'ujanak bo'linadi (oyoqning tos-son bo'g'imi va qo'llar bukiladi), bu old-ort o'qi atrofida olg'a tomon aylanishga olib keladi.. Tortish kuchi ta'sirida qo'yidagi tartibda erga tushiladi: oldin bilak, keyin elka, gavda va tosning yon qismlari, oyoqlar erga tegadi.

To'pni qaytarib yuborish

To'pni ilib olish mumkin bo'lmagan hollarda (raqibning xalaqit berishi, juda qattiq tepilganligi, to'pga etish qiyinligi va h. k. sababli) to'p qaytarib yuboriladi. Darvozabonning darvozaga ketayotgan to'p yo'lini to'sishdagi, to'g'ridan g'izillatib uzatilgan va yuqoridan uzatib tushirilgan to'plarni olib qolishdagi harakatlari to'pni qaytarib yuborishga kiradi. Bunda darvozabon to'pni egallab olmaydi.

To'pni ikki qo'llab ham, bir qo'llab ham qaytarib yuboriladi. Birinchi usul ishonchliroq, chunki bunda to'sib qoluvchi joy kattaroq bo'ladi. Biroq ikkinchi usul darvozabondan ancha naridan o'tayotgan to'plarni qaytarib yuborish imkonini beradi. To'pni bir qo'llab yoki ikki qo'llab qaytarishda dastlabki va tayyorlov bosqichlaridagi harakatlar ko'p jihatdan to'pni yuqoridan va yondan ilib olishdagi harakatlarga o'xshaydi. To'pning harakat yo'nalishi va traektoriyasiga moslab, darvozabon taranglashgan, barmoqlari sal yoziq bitta qo'lini eki ikkala qo'lini tezlik bilan to'p qarshisiga uzatadi. To'pni ko'pincha kaftlar bilan qaytariladi. Gohida to'p bilakka tegib qaytadi. To'pni qaytarib yuborganda darvozadon yon tomonga yo'naltirish tavsiya qilinadi.

Darvozabondan ancha naridagi to'plarni yiqila turib bir yoki ikki qo'llab qaytarib yuborish kerak. Bunda qaytarib yuborish qiyinroq bo'lgan to'plarga bir qo'lda etib olish mumkinligini nazarda tutish kerak.

To'p harakatining yo'nalishi, traektoriyasi va tezligi qandayligiga qarab, yiqila turib to'p ilishdagi singari dastlab to'p tomonga ilinadida keskin deysiniladi. Tarang uzatilgan bir yoki ikkala qo'l to'p qarshisiga chiqib, bir yoki ikkala kaft bilan yoxud bir yoki ikkala qo'lni musht qilib to'p qaytarib yuboriladi. Yakunlovchi bosqichda to'pni yiqila turib ilishdagi harakatlarga o'xshab g'ujanak bo'lib erga tushiladi.

To'g'ridan g'izillatib uzatilgan va yuqoridan uzatib tushirilgan to'plarni to'sib qolayotganda darvozabon raqib o'yinchilari bilan kurashda to'pni anchagina nariga qaytarib yuborishi kerak. Buning uchun to'pni u bir yoki ikkala qo'lini musht qilib urib yuboradi.

Musht bilan to'p qaytarishda zarba berishning ikki varianti bor elkadan boshlab urish va bosh ortidan boshlab urish.

Elkadan boshlab urishning tayyorlov bosqichida darvozabon tirsagi bukilgan zarba beruvchi qo'lini elkasi tomon tortadi.

Gavdani ham shu tomonga buriladi. Zarba berish harakati gavdani dastlabki holat tomonga burishdan boshlanib, qo'lni keskin to'g'rilash bilan tugaydi. Qo'l to'la to'g'rilanib olgunga qadar to'p mushtga tegadi. Zarba barmoqlarning birinchi

suyagiga to'g'ri keladi.

Bosh ortidan boshlab urish uchun sal bukilgan qo'l yuqori ko'tarilib, bosh orqaga tortiladi. Gavda ham orqaga egiladi. Gavda bilan qo'lning keskin to'g'rilanishi hisobiga zarba beriladi. To'pga u darvozabondan sal oldinda paytida bevosita zarba berish kerak. Zarba bar^oqlarning o'rta suyagi bilan bfiladi.

To'pni ikkala qo'lni mushtlab qaytarib yuborish ishonchliroq bo'ladigan vaziyatlar ham (masalan, to'p ho'l va og'ir bo'lsa) uchrab turadi. Zarba berishdan oldingi dastlabki holat - tirsaklar bukilgan, musht tugilgan qo'llar ko'krak oldida. Bunda har ikkala musht tugilgan qo'l barmoqlari juftlanib, bir-biriga to'pni qaytarish (elkadan boshlab urib tegib turishi kerak). Tarang tutilgan ikkala qo'lni baravariga to'g'rilab, mushtlar bilan to'pga zarba beriladi.

To'pni joyda turib, qadam tashlab, turli harakatlanishlardan keyin va ayniqsa sakrab turib bitta yoki qo'lni musht qilib urib qaytarib yuborish mumkin. Sakrab to'p qaytarish darvozabonga baland to'plar uchun raqib bilan muvaffaqiyatli kurashish imkonini beradi. Bunda bir yoki ikkala oyoqda depsinib, yuqorilatib olg'a tomon sakraladi. Uchish bosqichida tayyorgarlik harakatlari qilinadi. Zarba berish harakati ko'tarilishning eng yuqori nuqtasiga etganda (yoki shundan sal oldinroq) boshlanadi. Erga oyoqlarni sal bukib tushiladi.

To'pning qo'ldan sirg'anib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha hollarda to'pga mushtning o'rta qismi bilan zarba berilishi kerak.

To'pni tepadan oshirib yuborish

Darvozaga uchib kelayotgan to'pni yuqori to'sin ustidan o'tkazib yuborishga tepadan oshirib yuborish deyiladi. Asosan darvozabondan yuqori yoki uning yon tomonidan qattiq va baland yo`nalishda uchib kelayotgan to'p tepadan oshirib yuboriladi.

Darvozabonning to'pni tepadan oshirib yuborishdagi harakatlari ko'p jihatdan to'pni qaytarib yuborishdagi harakatlarga o'xshaydi. Tepadan oshirib yuborish ham bir yoki ikki qo'llab bajariladi. Ushlab va etish olish qiyin bo'lgan to'plarni yiqila turib tepadan oshirib yuboriladi.

Tayyorlov bosqichida bir yoki ikki qo'lni tarang qilib, to'pning uchish

yoʻnalishiga uzatiladi. Uchib kelayotgan toʻp toʻsiqqa - burchak hosil qilib qoʻyilgan bir yoki ikkala qoʻl kaftiga tegib, yoʻnalishni oʻzgartiradi. Toʻpni kaftlar bilan tepadan oshirib yuborish eng ishonchli usuldur. Lekin hamma vaqt buning iloji boʻlavermaydi. Koʻpincha yuqori toʻsin tagiga kirib borayotgan toʻpni tepadan oshirib yuborish uchun tarang barmoqlarni unga etkazib, yoʻlini toʻsish va yoʻnalishini oʻzgartirish kifoyadir. Bunday toʻplar musht bilan ham tepadan oshirib yuboriladi. Bunda yuqorilatib ort tomonga yoʻnaltirilgan musht bilan sekingina urish hisobiga toʻpning uchish yoʻnalishi oʻzgartiriladi.

Bir qoʻllab tepadan oshirib yuborish darvozabondan anchagina narida uchib kelayotgan toʻp yoʻlini toʻsish imkonini beradi. Bunda yiqila turib toʻpni chetdan oʻtkazib yuborish samaraliroq chiqadi. Tayyorlov bosqichining (depsinish va uchishning) va yakunlovchi bosqichning bajarilishi darvozabonning toʻp qaytarib yuborishdagi harakatlariga oʻxshashdir. Asosiy bosqichda toʻp kaft yoki musht bilan tepadan oshirib yuboriladi.

Toʻpning uchish yoʻnalishi va darvozabondan ungacha boʻlgan masofa qanchaligini hisobga olgan holda toʻpni joyda turib, sakrab va harakatlangan holda tepadan oshirib yuboriladi.

Toʻpni tashlab berish

Hozirgi futbolda darvozabonlar toʻpni koʻpincha tashlab beradilar, chunki bunda toʻpni tepgandagidan koʻra aniqroq yoʻnaltirib berish mumkin. Tashlash masofasiga kelganda esa, tegishlicha jismoniy tayyorgarligi va aʻlo daraja ratsional texnikasi boʻlgan darvozabon toʻpni anchagina (35-40 m) masofaga tashlab bera oladi.

Bu texnik usul odatda asosan bir qoʻllab, ahyon-ahyonda esa oʻyinni borishiga qarab ikki qoʻl bilan ham bajariladi.

Toʻpni darvozabon tamonidan bir qoʻllab tashlab berish yuqoridan, yondan va pastdan bajariladi.

Toʻpni yuqoridan tashlab berish - eng koʻp tarqalgan usul. Bu usulda darvozabon sheriklarga turli yoʻnalishda, anchagina masofaga va etarlicha aniq toʻp tashlab berish mumkin.

To'p tashlashdan oldingi dastlabki holat - bir qadam tashlab tik turish. To'p shundoqqina kaft ustida bo'lib, yoziq va yarim bukilgan barmoqlar uni tutib turadi. Tayyorlov bosqichida qo'l tortiladi. To'p tutgan qo'l tirsagi bukilib, yon tarafdin orqaga tortilib, bosh balandligida (yoki yana sal balandroq) yuqori ko'tariladi. Gavda shu qo'l tortilgan tomonga burilib, sal oldinga engashadi. Tana og'irligi orqadagi sal bukilib turgan oyoqqa o'tkaziladi. Oldindagi oyoqning uchi erda bo'ladi. Asosiy bosqichdagi tashlash harakati oyoqlarni to'g'rilab, gavnani burishdan boshlanadi. Shundan keyin qo'l yozilib, uloqtirish tomonga harakatlanadida, bu harakat panjaning keskin yo'naltiruvchi harakati bilan tugaydi. Tananing og'irligi orqadagi oyoqqa o'tkaziladi.

To'pni yondan tashlashda u anchagina uzoqqa etib borsa ham uning aniqligi unchalik bo'lmaydi.

Tayyorlov bosqichida qadam tashlab turgan dastlabki holatda qo'l tortiladi. To'p tutgan qo'l yonlatib orqaga (elkadan sal pastroq) uzatiladi. Gavda shu tomonga buriladi. Tana og'irligi orqadagi sal bukilgan oyoqda. To'p tashlash oyoqning uchiga ko'tarilib, keskin to'g'rilanish va gavnaning burilishi hisobiga bajariladi. Bu uzuvchi harakatlar qo'lning to'g'ri tutilib, yon tomondan olg'a keskin harakat qilishi bilan tugaydi. To'p frontal tekislikka yaqinlashib qolganda panjadan uziladi. Tashlashning bundan oldin bo'lishi yoki kech qolishi to'pning uchish yo'nalishida anchagina xatolar bo'lishiga olib keladi.

To'pni pastdan tashlash uni past traektoriyali qilib (asosan erda dumalatib) tashlashda ishlatiladi.

Dastlabki holatda bir qadam tashlangan holda oyoqlar anchagina bukilib turadi. Panjasi to'pni tagidan tutib turgan qo'l quyi tushiriladi. Keyin darvozabon qo'lini orqaga tortib, tanasi og'irligini oldindagi oyog'iga o'tkazadi. To'p tutgan qo'l erga parallel tarzda olg'a tomon keskin harakat qiladi. Gavda ozgina engashadi. Shu tarzda eng oxirgi holatda to'p qo'ldan tushib, mo'ljal tomon otilib ketadi.

To'pni ikki qo'llab tashlash ko'pincha yuqoridan, bosh ortidan boshlab bajariladi. Bunday harakatlar ko'p jihatdan yon chiziq nariyog'idan to'p

tashlashdagi harakatlarga o'xshash, shuni qayd etish lozimki, qoidaning to'p tashlash paytida ikki oyoqqa tayanib turish xaqidagi talabi darvozabonning to'p tashlashiga aloqador emas.

To'pni joyda turib, qadam qo'yib tashlayversa bo'ladi. Yurib yoki yugurib borib to'p tashlab berish qoidada qat'iy chegaralangan bo'ladi.

3.2. O'yin taktikasi

Taktika deganda o'yinchilarning raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan yakka va jamoa harakatlarini tashkil qilishni, ya'ni jamoada futbolchilarining muayyan rejaga binoan aynan shu raqib bilan muvaffaqiytli kurash olib borishga imkon beradigan birgalikdagi harakatlarini tushunish kerak.

Taktikadagi asosiy vazifa hujum va himoya harakatlarining maqsadga erishtira oladigan eng qulay vosita, usul va uslublarini belgilashdan iboratdir.

Qanday taktikani tanlash har bir alohida holda jamoa oldida turgan vazifalarga, kuchlar nisbati va o'yinchilarning taktik tayyorgarligiga, maydonning holatiga, iqlim sharoiti va hokazolarga bog'liq.

Futbol o'yini ko'p martalab hujumdan himoyaga va himoyadan hujumga o'tishdan iborat bo'lgani uchun ham, tabiiyki, har qaysi jamoaning hujum va himoya harakatlari uyushgan bo'lishi kerak. Taktika uchrashuv vaqtida butun o'yin faoliyatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Raqib jamoaga qarshi to'g'ri tanlangan kurash taktikasi muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi, noto'g'ri tanlangan yoki uchrashuv mobaynida asqotma (foйда bermaydi)gan taktika esa odatda mag'lubiyatga olib keladi.

Raqiblarni neytrallash vazifalarini to'g'ri hal qila bilish va hujumdagi o'z imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalana olish umuman jamoaning ham, uning alohida o'yinchilarining ham taktik tayyorligini ko'rsatadi. Hujum va himoyada hamma futbolchilarning harakatlari yaxshi uyushtirilgan hamda, albatta, faol bo'lgandagina jamoa muvaffaqiyatga erisha oladi.

Murabbiy uchrashuvning taktik rejasini qanday qilib tuzgan bo'lmasin, bu reja alohida futbolchilarning harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ana shuning uchun ham yakka taktik kamolotga erishmay turib, jamoaning o'yinni chiroyli va

risoladagidek qiladigan aniq taktik harakatlar qilishini xayolga ham keltirib bo'lmaydi.

Futbol o'yinida taktika bilan texnika bir-biriga chirmashib ketgan bo'ladi. To'pni kimga va qanday uzatishni, raqibni dog'da qoldirish uchun aylanib o'tishni ishlatish kerakmi yoki to'pni sherikka oshirgan ma'qulmi, darvozaga qaysi paytda zarba berishni hal qilayotgan o'yinchi taktik tafakkurdan foydalanadi, ahd qilgan harakatini amalga oshirayotganda esa u texnik mahoratini namoyish qiladi. Demak, texnika o'yinchining taktik rejalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Texnik tayyorgarlik a'lo darajada bo'lsagina xilma-xil taktik harakatlarni bajarish mumkin.

Kuchi teng jamoalar uchrashuvidagi g'alabaga ko'pincha mag'lub bo'lganlarda iroda kamlik qilgani yoki jismoniy va texnik tayyorgarlik bo'sh bo'lgani sabab qilib ko'rsatiladi. Biroq futbol o'yinidagi g'alaba ko'pincha taktik rejalar kurashi bilan belgilanadi. Taktika ikki jamoaning jismoniy, texnik va ma'naviy-irodaviy tayyorgarlikdagi darajalari teng bo'lganda, ulardan birining g'alaba qilishini ta'minlab beradigan muhim omildir. Yirik musobaqalardagi ko'plab misollar shundan dalolat beradi.

Ustalik bilan ishlatilgan taktikagina muvaffaqiyat keltira oladi. Ba'zan jamoalar har qanday raqibga qarshi o'ynaganda ham bir xil taktika ishlatadilar. Taktik jihatdan bunday qashshoqlik, bir xillik mahoratning o'sa borishiga to'sqinlik qiladi. Har bir jamoa, ayniqsa yuqori razryadli jamoalar xilma-xil taktik usulda o'ynay bilishi kerak, bo'lmasa u, ayrim yutuqlari bo'lishiga qaramay, musobaqalarda katta g'alabaga erisha olmaydi.

O'quv-mashg'ulot jarayonida taktik tayyorgarlikka jiddiy e'tibor beriladi. Har bir o'yinchi va umuman jamoa a'zolari taktik harakatlarning xilma-xil variantlarini mukammal egallagan bo'lishi kerak.

Hujum harakatlari bilai himoya harakatlarining doimiy kurashi natijasida o'yin taktikasi uzluksiz takomillashib boradi. Xuddi ana shu kurash futbol taktikasi taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

O'yinchilarni vazifalari

Raqibga qarshi kurashayotgan jamoa harakatlaridagi uyushqoqlikka alohida futbolchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash bilan erishiladi. Hozirgi vaqtda o'yinchilarni vazifalariga (o'yindagi ixtisosiga) ko'ra bo'lish ular tayyorgarligidagi universallikka asoslangan bo'ladi. Bu hamma ishni barcha birdek bajara oladi, degan so'z emas, albatta. Ammo har bir futbolchi o'yinning hamma texnik usullarini egallagan bo'lishi, hujumda ham, himoyada ham bilib va birdek harakat qilishi kerak. O'yindagi ayrim vazifalarni esa o'yinchi ayniqsa yaxshi ijro etadigan bo'lishi lozim.

Futbolchilar vazifalariga ko'ra darvozabonlarga, qanot himoyachilari, markaziy himoyachilar, o'rta qator o'yinchilari, qanot hujumchilari va markaziy hujumchilarga bo'linadi.

Jamoadagi har qaysi ixtisos o'yinchilariga bo'lgan talablar va ularning asosiy vazifalarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Darvozabon

Hozirgi vaqtda darvozabonning o'yini turli-tuman va murakkabdir. Darvozabonning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi, uning irodasi mustahkamligiga yuksak talablar qo'yilayotganligi ham ana shundan.

Odatda, darvozabon - baland bo'yli (175 sm va undan ham yuqori), a'lo darajada jismoniy tayyorgarlik ko'rgan, harakati (reaksiyasi) juda tez, start tezligi yuqori o'yinchi bo'ladi. U dovyurak va jur'atli, sakrovchan, epchil va hozirjavob bo'lishi; harakatlarni yaxshi muvofiqlashtira oladigan, yaxshi mo'ljal oladigan va rejalay biladigan bo'lishi; to'pning ehtimol bo'lgan uchishi, yo'nalishi, tezligi va yo'nalishi (traektoriyasi) ni darhol aniqlay oladigan bo'lishi; himoya qatorlarini mohirona boshqarishi, ya'ni o'yinga izchillik va uyushqoqlik kiritishi kerak.

Darvozabon joyda turganda ham, harakat va sakrab o'ynaganda ham texnik usullarning hammasini a'lo darajada bilishi zarur. Darvozabonning mahorat darajasi ana shu usullarning nechog'lik to'g'ri, aniq va ishonchli bajarilishiga, bog'liq. Darvoza oldidagi o'yin bilan, darvozadan chiqib harakat qilishni muvaffaqiyatli qo'shib olib borish hamda o'z darvozasini himoya qilish va hujum

uyushtirishda sheriklar bilan bahamjihat mohirona harakat qilish ham darvozabonning yuksak mahoratini ko'rsatadi.

Himoya qatorining o'yinchilari

Qanot ximoyachilari

Hozirgi futbolda qanot himoyachilarining vazifalari kengayib ketdi. Ularning vazifasi endilikda raqib hujumini «buzish»dan iborat bo'lmay, balki himoyada ishonchli va mohirona o'ynash bilan o'z jamoasining hujum harakatlariga faol qo'shilishni birga qo'shib olib borishdan iborat bo'lib qoldi. Ish hajmining juda ortib, harakat turlarining ko'payib ketishi himoyachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi ortishini - kuchi, tezkorligi, tezkor chidamliligi, epchilligi, sakrovchanligi, start tezligining yuksakligi rivoj topishini talab qilib qoldi. Bu o'yinchilarda harakat muvofiqligi yaxshi erda va havoda mohirona yakkama-yakka tortisha oladigan bo'lishi kerak. Ular jamiki texnik usullarni yaxshi bilishi, raqiblarga (to'pi boriga ham, to'pi yo'g'iga ham) mohirona bas kelishi, himoya va hujumni uyushtirishda kerak vaqtida, bilib birgalashib harakat qilishi kerak.

Mudofada qanot himoyachilariga bo'lgan asosiy talablar:

- a) zonada mohirona harakat qilish;
- b) raqib darvozaga yaqinlashib qolganda qattiq qo'riqchilik qilishga o'tish (yakkama-yakka kurashda ham mohirona o'ynash bilan birga);
- v) havoda kurash olib borish (yuqoridan to'p uzatilganda);
- g) sheriklarini, lozim bo'lib qolganda esa darvozabonni ham straxovka qilish;
- d) raqib zarba berganda va to'p uzatganda shunga yarasha vaqtida harakat qilish.

Hujumda qanot himoyachilariga qo'yiladigan asosiy talablar:

- a) to'pni raqiblardan olib qo'ygandan keyin uni sheriklariga vaqtida va aniq uzatib berish;
- b) to'p jamoadosh sherigiga yoki darvozabonga o'tganda, qanot tomonda mohirlik bilan ochilish;
- v) raqib uchun kutilmaganda hujumga qo'shilish;

Bunda to'p shu himoyachida bo'lib, u qanotda harakat qiladi, shuningdek qanot hujumchisi bilan o'rin almashadi yoki qanotdagi zona bo'sh qolganda shu hujumchi o'rnida o'ynaydi.

Markaziy himoyachilar

Mudofaaning markaziy qismida o'ynaydigan futbolchilar haqli ravishda asosiy o'yinchilar hisoblanadi. Chunki ular darvoza zabt etiladigan eng xavfli joyda raqib bilan kurash olib boradilar.

Qanot himoyachilarining jismoniy va texnik fazilatlariga qo'shimcha tarzda markaziy himoyachilar havoda kurasha olish uchun baland bo'yli va juda sakrovchan ham bo'lishlari kerak.

Oldingi markaziy himoyachi o'ziga topshirilgan vazifa bilan zonada harakat qilishni mohirlik bilan qo'shib olib borishi kerak. O'ziga topshirilgan o'yinchini nazorat qilib borish uning uchun birinchi galdagi vazifa bo'lib, zonada harakat qilish ikkinchi navbatdagi vazifadir.

Oldingi markaziy himoyachi mudofaada markaziy hujumchining harakatlarini e'tibor bilan kuzatadi, zarur bo'lganda esa orqa himoyachi bilan o'rin almashib, mudofaadagi sheriklarini straxovka qiladi. Hujumda u to'p olgandan keyin hujum harakatlariga qo'shib tezlik bilan olg'a boradi yoki sheriklariga to'p oshirib beradi. Ayrim paytlarda ikkinchi eshelondagi hujumni qo'llanadi va iloji bo'lsa darvozaga to'p tepadi.

Orqadagi markaziy himoyachi taktik sharoitni nozik did bilan tushunishi, raqiblarning taktik yo'llarini «o'qiy» olishi hamda to'pni egallab olish va sheriklarini straxovka qilish uchun mudofaada to'g'ri joy tanlashi kerak. Uning asosiy ishi mudofaa qiluvchilarning hamma harakatlarini muvofiqlash, zonada o'ynash, darvozabon va sheriklar bilan hamkorlik qilish. Sun'iy «o'yindan tashqari holat»ni to'g'ri uyushtirishga hammadan ko'p javob beradigan ham shu o'yinchidir.

Hujumga o'tayotganda orqadagi markaziy himoyachi darvozabon yoki sheriklaridan to'p olish uchun ochiq joyga chiqadi, keyin esa aniq va xilma-xil uzatishlar qilib, atakaning davom ettirilishiga imkon yaratadi. Nisbatan erkinroq

ekanidan keskin holatlar yaratish uchun maksimal foydalanishga intilib, gohida uning o'zi ham hujumga qo'shilishadi, ba'zan esa uzoq yoki o'rtacha masofadan to'p tepib, hujumni yakunlaydi. Hozirgi vaqtda himoyachilarning vazifalari universallashtirish tomon taraqqiy etib, ularning harakatlari yarim himoyachi va qanot hujumchilarining harakati bilan yaqinlashib bormoqda.

O'рта qator o'yinchilari

Hozirgi futbolda o'рта qator o'yinchilarining harakatlariga ko'p jihatdan jamoaning muvaffaqiyat qozonishiga aloqador omillardan biri deb qaraladi. Bu ixtisosdagi futbolchilar butun o'yin davomida yuksak ishchanlikni ta'minlaydigan a'lo darajada har tomonlama tayyorgarlik ko'rgan bo'lishlari kerak. Ular hujum va mudofaa harakatlarida faol bo'lishlari, o'yinni yuksak sur'atli o'tkazishlari va birdam ham susaytirmasliklari dardkor. Taktik tayyorlik yuzasidan, jamoa bo'lib o'ynash vositalari va uslublarini tanlashda epchil va ixtirochi bo'lish yuzasidan o'рта qator o'yinchilari oldiga oshirilgan talablar qo'yilmoqda. Ular hujumda ham, himoyada ham hamma sheriklarining hamkorligini uyushtirib turadilar. O'рта qator o'yinchilari mudofaada ham, hujumda ham bir xilda yaxshi o'ynashlari, butun jamoa o'yinini tashkil eta bilishlari kerak. Ularning harakatlari yuksak darajadagi ijrochilik mahoratiga asoslangan va doimo mustahkam, yaxshi bo'lishi lozim. Ular nihoyatda xilma-xil uzatishlardan, aylanib o'tish va hokazolardan foydalanadilar. Odatda o'рта qatordagi yuksak mahoratli o'yinchilar juda qattiq, a'lo darajada, zarba bera oladigan bo'lishi kerak.

Hujumda o'рта qator o'yinchilariga qo'yiladigan asosiy talablar:

- a) mudofaadan hujumga o'tishni tashkil etish va hujum rivojini davom ettirish;
- b) maydon o'rtasini nazorat qilish va jamoa uzoq vaqt to'pni boshqarib turishini, binobarin, tashabbusni qo'ldan bermay turishini ta'minlash;
- v) hujumni yakunlashda qatnashish;
- g) yaqinda va uzoqda turgan sheriklari bilan hamkorlik qilish;
- d) hujum rivojlanishida to'pni qanotdan tez oshirish va bo'shagan zonaga tez ochilib chiqish yordamida tasodifiylikni yuzaga keltirish.

Mudofaada oʻrta qator oʻyinчилariga qoʻyiladigan asosiy talablar:

a) maydonning butun boʻyi va eni boʻylab toʻgʻri taqsimlanib turish, joylashish hisobiga raqibning javob hujumini tez rivoj topishiga toʻsqinlik qilish;

b) oʻzi turgan zonadagi eng yaqin raqib oʻyinчисini yoki shaxsan birkirib qoʻyilgan raqibni kuzatib borish;

v) toʻp uzatilishi va darvozaga toʻp tepilishiga yoʻl qoʻymaslik;

g) sheriklarni straxovka qilish va ular bilan hamkorlik qilish:

Jamoaning oʻrta qatori koʻpincha turli taktik rejada harakat qiluvchi futbolchilardan tuzilib, yarim hujumchi, bogʻlovchi (dispetcher) va yarim himoyachidan iborat boʻladi.

Yarim hujumchi asosan hujum qiluvchi oʻyinchi vazifasini bajaradi. Goho u hujumning boshida harakat qiladi va harakatni faol yakunlaydi. Dispetcher hujumda gruppа va jamoa harakatlarini uyushtiradi. Yarim himoyachi birinchi galda oʻz darvozasi mudofaasini tashkil etishga yordam berib, baʼzi baʼzidagina jamoasining hujum qatorlariga yorib kirib boradi.

Oʻrta qatorni tuzayotganda oʻyinчилar bir-birini toʻldirib, umuman shu oʻyin ixtisosi uchun nazarda tutilgan vazifalarning hammasini bajarilishini toʻliq va ishonchli taʼminlaydigan qilib tanlanadi. Biroq yarim himoyachilar oʻyin taktikasi rivojlanishidagi asosiy tendentsiya ular jamoaning yakunlovchi hujum harakatlarida bevosita ishtirok etishlaridan iborat.

Hujum qatorining oʻyinчилari. Qanot hujumчилari

Futbolda hujum qatorining qanot hujumчилari ham boshqa oʻyinчилari singari tezkor, chaqqon, qoʻrqmas va bardoshli boʻlishi kerak. Harakat surʼati va maromini oʻzgartira bilish, raqib kutmaganda «portlay bilish» forwardlar (qanot hujumчилari) uchun shart boʻlgan xislat. Erda va havoda samarali kurasha olish uchun hujumчилar sakrovchan va kuchli boʻlishlari kerak. Hujumчилar toʻpsiz mohirona manyovr qilish hamda zarba berish, toʻpni moslash, toʻp olib yurish, raqibni aldab oʻtishdek xilma-xil texnik usullarni yuqori tezlik bilan bajara bilish shart. Qolgan hujumчилar kabi ular ham ataka harakatlarining yakunlovchi bosqichida qatʼiylik va mustaqillik koʻrsatishlari, kombinatsion oʻyinda sheriklar

bilan mohirona, hamjihatlik bilan harakat qilishlari kerak.

Hujumda qanot hujumchilariga qo'llanadigan asosiy talablar:

a) «o'yindan tashqari» holat chegarasida mohyrlik bilan o'ynash, shuningdek, ortki va o'rta qator o'yinchilari uzatgan to'pni olish uchun orqaga qayta bilish;

b) qanotda tezkor shaxsiy manyovr qilib, keyin to'pni raqibning jarima maydoniga uzatib yoki g'izillatib oshirib berish;

v) hujum qatoridagi sheriklari bilan, yoyinki hujumga qo'shilgan himoyachilar o'rta qator o'yinchilari bilan hamkorlik qilish;

g) hujumni yakunlashda qatnashish.

Jamoa hujumi bekor ketgandan keyin mudofaaga o'tayotganda qanot hujumchisi raqib tomon qanot hujumchisini ta'qib qiladi yoki eng yaqinidagi to'pni bor raqib bilan kurash boshlaydi. Qanot hujumchisi natijali hujum qilish uchun kuch saqlab mudofaa harakatlarida kam, lekin faol qatnashadi.

Markaziy hujumchi

Hujumni keskin davom ettirish yo'llarini uzluksiz izlash, hujum qatorining «uchida» o'ynash, jamoa urinishlarini natijali yakunlashda faol qatnashish bu futbolchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Markaziy hujumchi zarba joyi (pozitsiyasi) ga eng qisqa yo'l bilan etishga intilib, maydonning butun kengligi bo'ylab ko'p martalab va xilma-xil ochilib chiqadi. U tezkor manevr qiladigan, bitta, ba'zan esa bir nechta himoyachi bilan kurashda darvozaga qarata zarba bera oladigan, sheriklari tepalatib uzatgan to'pdan mohirona foydalana biladigan, qaytgan to'pga qo'shimcha zarba berishga intiladigan bo'lishi kerak. Kurashda qo'rqmaslik, qat'iylik, fidoiylik bu xislatlarning hammasi yuqori mahoratli markaziy hujumchilarga xos fazilatlaridir.

Aslida markaziy hujumchilarning mudofaada aniq vazifalari bo'lmaydi. Ularning hujumdagi faolligining o'zi bir necha himoyachilar harakatini bo'g'ib turadi, chunki ort tomonida tezkor manevrli raqib bo'la turib, himoyachilar o'z hujum qatoriga borib qo'shilishga jur'at etolmaydilar. Markaziy hujumchi yakkama-yakka kurash va vaqt kamligi sharoitida yakka harakatlar bilan grupp

harakatlarini mohirona qo‘shib olib boradigan joyni ustalik bilan tanlaydigan, yakunlovchi harakat yoki usullarni bajara oladigan bo‘lishi kerak.

3.3. Texnika va taktikani bir-bir bilan bog‘liqligi.

Texnika malakalarining rivojlanishi va ularning taktik tayyorgarlik bilan bog‘liqligi. Yosh futbolchilarning texnika malakalarini rivojlantirish amaliy mashg‘ulotlar davomida muxim o‘rin egallaydi. Amaliyotdan ma‘lumki, yosh futbolchilarni texnika usullariga o‘rgatish natijalari bir xilda emas. Tafavut texnika usullarining o‘yinchi tomonidan qanday tarzda egallanishi va qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi.

Shu narsa aniqlanganki, bo‘sh zarbaga ega bo‘lgan o‘yinchi to‘pni qabul qilib olish, uni olib yurish va aldashlarda yuqori texnikani namoyish qiladilar, kuchli zarbaga ega bo‘lgan futbolchilar esa ko‘pincha bu usullarni yomon bajaradilar. Turli xildagi aldanchi harakatlarni yaxshi o‘zlashtirgan o‘yinchi to‘pni olib qo‘yishdagi tajribasizligi amalda ko‘zatilgan. Yoshlik davrida tomir otgan yomon odatlar, yomon texnika kelgusida o‘yinchi to‘pni malakalarning xosil bo‘lishiga xalaqit qiladi. Shu tarzda texnikadagi bilimlari turlicha bo‘lgan futbolchilar shakllanadi. Ular faqat o‘zlari yaxshi bajara oladigan usullarnigina ishtiyoq bilan amalda qo‘llaydilar. Buning xammasi ularning faoliyat doirasini kamaytiradi, jamoaning taktik imkoniyatlarini cheklaydi va uning natijalarini pasaytiradi.

Texnik mahoratni takomillashtirishda bugungi futbolning xususiyatlarini hisobga olish juda muximdir. Bu xususiyatlar qanday?

Futboldagi sur‘at tezlashgan, demak, futbolchilar o‘yin davomida texnika usullarini yanada tez va sifatli bajarishlari lozim.

2. Oxirgi yillarda futbolda kuchli yakkama-yakka olishuv diapazoni ancha kengaydi. Shuning uchun o‘yinchi texnika usullarini shiddatli va kuchli ko‘rash olib borish vaziyatida bajaradi.

3. Musobaqalar paytida turli xildagi o‘yin variantlari qo‘llanilmoqda va yoshlik chog‘idanoq egallangan texnika malakalarini oqilona qo‘llashga qodir bo‘lgan futbolchi ularni to‘liq ro‘yobga chiqara olishi mumkin.

4. Natijada, yoki sportchilar har bir texnika usulini egallab olishi zarur. Agar faqat yuzaga kelgan yoki majburan orttirilgan o'yin amplusini hisobga olgan holda futbol texnikasiga o'rgatilsa, bu noto'g'ri bo'ladi.

Misol. Jamoada 14 yoshli o'yinchi himoyachi bo'lganligi sababli, uni asosan bosh bilan o'ynash, zarba berish va to'pni olib qo'yishga o'rgatishgan.

Ikki yildan so'ng tezkorligi va manyovr qilishni bilganligi sababli, uni hujumchi sifatida qo'llashmoqchi, lekin to'pni moxirlik bilan egallay olmasligi va ayniqsa, unda aldamchi harakatlarni bajarish malakasining yo'qligi bunga to'sqinlik qiladi.

Yana bir boshqa misol. Bolalikdan hujumchi vazifasida o'ynagan o'yinchi katta yoshda to'pni olib qo'yishni ustalik bilan bajara olmaydi: u umuman to'p uchun ko'rashmaydi yoki uni bilmay bajaradi. Shuning uchun texnika jihatdan qurollanganlik o'rtacha darajada bo'lgan o'yinchilarni o'rgatish va tayyorlash davomida ularni mashg'ulotlar uchun alohida guruhlariga taqsimlash zarur. Bu guruhlarda texnikaga o'rgatish taktika vazifalarini asta-sekin murakkablashtirgan holda amalga oshiriladi.

Misol. Agar yosh futbolchi zarbalarni yaxshi bajarsa, uni elementar (oddiy) o'rgatishdan ozod qilish va undagi paydo bo'lgan malakalarni o'yin vaziyatlarini eslatuvchi murakkab sharoitlarda rivojlantirish zarur.

2.Jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi va ularning taktik tayyorgarlik bilan bog'liqligi. Yosh futbolchilarning turli xil qobiliyatlarini shunday darajada asta-sekin rivojlantirish lozimki, bu keyinchalik ish qobiliyatining yuqori darajada rivojlanishini ta'minlashi zarur. Ko'p yillik tajribadan ma'lumki, kuchli muskulaturaga ega bo'lgan bolalar odatda, tezkor, sakrovchan bo'ladilar, lekin ish qobiliyati ularda etarli darajada emas, harakatlari qo'pol, chaqqonligi cheklangandir.

Muskulaturasi kuchsizroq bo'lgan bolalar sekin yuguradilar, kam sakrovchan bo'ladilar, lekin ular chidamlirok, kat'iyatliroq, bo'ladilar ularning harakatlari hamda o'yindagi chaqqonligi samaraliroqdir. Yosh futbolchilar uchun o'z jismoniy kamchiliklarini o'z vaqtida tushunib etishlari juda muhimdir, chunki bu

kamchiliklarni bartaraf etishga kechikmaslik lozim.

Hozirgi paytda bolalarni futbol to'garaklariga (seksiyyalariga) saralashda to'pni egallash ko'nikmasi hamda o'yindagi chaqqonlikka asosiy e'tibor qaratiladi. Ba'zi mutaxassislarning fikricha, agar bolalarda texnik tayyorgarlik yaxshi bo'lsa, bo'sh jismoniy qobiliyatlar faqat e'tiborga olib qo'yiladi; ularning fikricha, hatto yaxshi jismoniy qobiliyatlar yomon texnikaning o'rnini qoplay olmaydi. Ko'p xollarda bunday bolalarni to'garaklarga qabul qilmaydilar. Bu juda noto'g'ridir. Hozirgi kunda o'yin maydonlarining yuqligi tufayli iqtidorli bolalar kamayib bormoqda. Bizningcha, jismoniy rivojlanganlik darajasi o'rtadan yuqori bo'lgan bolalarni saralab olish zarur. Ular tegishli darajada o'rgatishdan so'ng yaxshi texnikaga ega bo'lishlari mumkin. O'sib borayotgan jismoniy yuklama yosh futbolchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish usuliyatiga muhim darajada to'zatishlarni kiritishni taqozo etadi.

O'yin taktikasi bo'yicha bir qator eslatmalar:

a) jismoniy qobiliyatlar darajasining oshishi sababli oxirgi o'n yillikda shiddatli futbolning o'sish sur'ati tezlashdi;

b) har doim shuni nazarda tutish lozimki, bolalarni jismoniy qobiliyatlarini turli xil uslublar yordamida jismoniy sifatlarga aylantirish mumkin va shart. Yaxshi rivojlangan, kuchli muskulaturaga ega bo'lgan bolalarda birinchi navbatda harakatchanlik, chaqqonlikni shakllantirish, jismonan kuchsiz bolalarda esa, asosan, mushak kuchini asta-sekin oshirib borish zarur;

v) alohida jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun yaroqli bo'lgan vositalarni bilish juda muhimdir. Yosh futbolchilarning umumiy va maxsus qobiliyatlari darajasi butun jamoaning ish qobiliyat uning taktik imkoniyatlarini aniqlab berishi mumkin.

3. O'yindagi chaqqonlik malakalarining rivojlanishi va ularning taktik tayyorgarlik bilan bog'liqligi. Yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligida o'yin omillarining o'zaro ta'sirini hisobga olish juda muhimdir. Agar gap o'yindagi chaqqonlikning rivojlanishi hamda taktik tayyorgarlik o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida ketgan paytda ham u hisobga olinadi. O'yindagi chaqqonlik deganda

mavjud bo'lgan taktik tayyorgarlik, jismoniy-aqliy-emotsional sifatlari, ya'ni shularning xammasini o'yinda qo'llay bilish nazarda tutiladi.

Yosh futbolchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar davomida ko'pincha katta jamoalarda qo'llaniladigan harakat tizimlari va taktika usullariga taqlid qilinishini, bunda eng muximi - natija ko'rsatish ekanligini ko'zatamiz. Buning natijasida o'smirlar va o'spirin jamoalarda "tozalovchilarga" duch kelishimiz mumkin. Biroq ma'lum bir davrdan so'ng bu shunga olib keladiki, jamoa tomonidan tanlangan o'yin tizimi hamda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan taktik echimlar asos qilib olinadi va xar tomonlama texnik, taktik, jismoniy, aqliy, emotsional tayyorgarlikni ikkinchi o'ringa surib qo'yadi.

Yosh futbolchilarni o'rgatishda murabbiylar ularda tanlangan o'yin tizimining faqat ba'zi taktik vazifalarini hal eta oladigan qobiliyatlarni rivojlantirish bilan qoniqishlari kerak emas. Har tomonlama chaqqon futbolchilarni tarbiyalash zarur. Ular murakkab sharoitlarga tushib qolganlarida o'zlarini o'z uyidagidek his qila bilishlari lozim.

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, o'yindagi chaqqonlik murakkab malaka hisoblanadi. Uning shakllanishida hamma o'yin vaziyatlari bilan bog'liq bo'lgan bir nechta omillar ma'lum bir axamiyatga ega. O'yindagi chaqqonlik darajasiga qarab yosh futbolchilarga birinchi bahoni berish mumkin. Bu daraja kelgusidagi o'rgatishda hal qiluvchi bo'lishi mumkin.

O'yindagi chaqqonlik darajasi oshib borishi bilan futbolchi turli hildagi taktika vazifalarini xal qilishga qodir bo'lib boradi. O'rgatish jarayonida o'yinchining taktikaga oid bilim doirasining kengayishi va unda o'yin tajribasining hosil bo'lishi uning tayyorgarlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi, o'yinda yakka harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'yinda tashabbuskor bo'lishga yordam beradi.

Murabbiyning eng asosiy vazifasi - bu iqtidorli, tegishli qobiliyatlarga ega bo'lgan yosh futbolchilarda o'smirlik yoshining oxiriga kelib o'yindagi chaqqonlik va etarli darajadagi taktika jihatdan etuklikni rivojlantirishdir.

Tushuntirish maqsadida quyidagi ikkita diagramma materialini keltiramiz. Bu diagrammalar o'yindagi chaqqonlik va uni tashkil qiluvchi omillar

o'rtasidagi bog'liqlikni aniq tasavvur qilishga yordam beradi. Ikkala diagrammada biz bir xil ampluada ishtirok etuvchi bir nechta 15 yoshli o'yinchilarning o'yindagi chaqqonlik darajasini aniqladik. Birinchi diagrammada ko'rsatilgan o'yinchi yaxshi texnikaga, o'yinni o'rtacha tushunish xususiyatiga, taktikaga oid bilimlarga ega, bir vaqtning o'zida o'zing jismoniy qobiliyatlari, emotsional sifatlari o'rtadan yuqori. Bundan kelib chiqadiki, uning o'yindagi fikrlash darajasi o'rtadan yuqori, vaqti kelganda esa tez qaror chiqarishga qodir. Lekin u kuchli, qat'iyatli raqibga to'qnash kelishni yoqtirmaydi, ko'pincha mag'lubiyatga uchraydi; bu hol uning kayfiyatini tushirib yuboradi, boz ustiga u juda hayajonga beriluvchandir. Buning hammasi sho'nga olib keladiki, uning o'yindagi chaqqonligi o'rtacha darajada turadi.

Ikkinchi diagrammada tekshirilgan o'yinchi taktikaga oid bilimlarga, o'rtacha texnikaga ega va o'yinni bo'shroq tushunadi, lekin uning jismoniy qobiliyatlari hamda emotsional sifatlari o'rtadan yuqori. Bu o'yinchida maydonni ko'rish va to'g'ri joy tanlash qobiliyati yaxshi emas, o'zining kamchiliklari tufayli o'yinda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yadi, lekin u charchamasdan ko'rashishi mumkin. Balki uning xatosi, na jamoaning xatolari hamda past darajada natija ko'rsatishi uning kayfiyatini bo'zmaydi. Uning o'yindagi chaqqonligi, oldingi o'yinchi bilan taqqoslaganda, bir tekis, lekin o'rtadan yuqori emas.

Yuqorida aytilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, birinchi xolda jismoniy sifatlarni takomillashtirish va salbiy emotsiyalarni bartaraf etishga, ikkinchi xolda esa texnika malakalarini takomillashtirish, o'yinni tushunish hamda taktikaga oid bilimni rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim.

Taktika asosi. O'yindagi chaqqonlikni rivojlantirishning muxim tomonlari - bu futbolchilarning o'yindagi chaqqonlik darajasini tahlil qilish, so'ngra esa shuning asosida ijobiy malakalar, qobiliyatlar va sifatlarni rivojlantirish hamda turli xil kamchiliklarni yo'qotishdir.

O'yindagi chaqqonlikni takomillashtirish mashg'ulot (trenirovka) jarayonida oddiy (texnik), murakkab (texnik-taktik) yoki yanada murakkabrok (texnik-taktik, jismoniy, emotsional) mashqlardan foydalanishni nazarda tutadi. Biroq shuni esda

tutish kerakki, har bir mashq turli xil darajada murakkab bo'lgan taktika vazifalarini xal qilishga yordam beradi.

To'pni egallab turish va joy tanlash. To'pni egallab turish o'yin asosi hisoblanadi. To'p jamoada qolishi uchun xar bir o'yinchi maydonda o'z joyini tanlashi zarur. Joy tanlay olish o'yinchi uchun eng qimmatbaho xususiyat hisoblanadi, chunki maydonda harakat qilishga katta imkoniyatlar yaratib beradi. Bundan tashqari, bu doimiy jismoniy yuklama va jismonan takomillashtirish vositasi xamdir.

O'yin jarayonlarida sheriklarning vazifalari shundan iboratki, ular maydonda to'pni oshirib berish uchun qulay bo'lgan joylarni tanlashlari va shu orqali to'pni egallab turgan sherikiga yordam ko'rsatishlari lozim bo'ladi. Shu paytda raqib o'yinchilaridan biri bevosita xujum qilib, to'pni egallab olishga harakat qiladi, qolganlar esa joy tanlashlari bilan uni qo'llab turadilar.

"Qoralarning" to'pni egallab turgan 1-chi o'yinchisiga "oqlarning" 1-chi o'yinchisi xujum qiladi. "Qoralar" joy tanlash bilan o'zlarining 1-chi o'yinchilarini qo'llab turishga intiladilar, lekin "oqlar" xam xuddi shuni bajaradilar.

"Qoralarning" 1-chi o'yinchisi burchak to'pini tepib bergandan so'ng "oqlarning" 1-raqamli darvozaboni, to'pni ushlab olib, uni 3-chi raqamli sherigiga oshiradi. 3-chi o'yinchini "oqlarning" oldinga yugurib chiqqan, to'silmagan 4-chi o'yinchisi qo'llab turadi. To'pni egallab olish uchun qulay bo'lgan joyni tanlash nafaqat hujum uyushtirayotgan jamoa hujumchilarining, balki himoyalananayotgan jamoa o'yinchilarining ham vazifasi hisoblanadi.

Futbol maydoni, odatda, uchta qismga (hududga) bo'linadi va bu o'yinchilar uchun joy tanlash vazifalarini aniqlab beradi.

Mana shu uchta hududda joy tanlashning asosiy vazifalarini kurib chiqamiz (oson tushunish maqsadida tahlil o'z jamoasi misolida amalga oshiriladi).

Himoya qilinadigan hududdagi asosiy vazifa - raqib hujumini to'xtatib qolish va to'pni egallab olish.

Maydonning himoyalananayotgan qismida joy tanlashning uchta usuliga o'rgatish taklif qilinadi. Birinchisi - raqibni mahkam to'sib qo'yish. Bunga himoya

qilinayotgan hududda o'yinchini (to'p bilan yoki to'psiz), uning harakat, yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsan ta'qib qilish kiradi. Masalan, "oqlarning" 1-chi va 2-chi o'yinchilari hujum qilgan hollarda himoyachilar o'z darvozalarini to'sishga va o'yinchini ushlab qolishga harakat qiladilar.

Himoyalananayotgan hududda joy tanlashning ikkinchi usuli zonali himoya hisoblanadi. Bu paytda himoyachilar raqib o'yinchilarini yaqindan ta'qib qilmaydilar, lekin ularning harakatlanishlarini diqqat bilan ko'zatadilar hamda raqib to'p bilan (yoki to'psiz) "o'tish masofasiga" etib kelgunga qadar kutgan holda darvoza oldida o'z zonasini qo'riqlaydilar.

Joy tanlashning uchinchi usuli aralash himoya varianti, ya'ni yuqoridagi ikkita usullarning yangilashtirilgan varianti hisoblanadi.

Ximoyalananayotgan hududga raqib yaqindan ta'qib qilinmasdan etib keladi, u darvoza maydoniga yaqinlashishi bilan himoyachilar ketma-ket harakatlanib, uning keyingi haraktlanishlarini to'xtatadilar. Ximoya qilinayotgan hududning o'yinchilari tomonidan joyning to'g'ri tanlanishi sun'iy ravishda "o'yindan tashqari holatni" yaratishga, o'yin elementlarini (to'pni o'yinga kiritish, o'yinchi, darvozabon tomondan darvozadan to'pni tepib berishni) bajarishda ustunlikka ega bo'lishga, alohida o'yin holatlarida (burchak to'pi, erkin zarba, o'n bir metrlik zarba) ongli ravishda yo'l tutishga yordam beradi. Qarshi hujum boshlanishida (keyinchalik himoyalananayotgan hududga ketish bilan) o'yinchilarning joyni to'g'ri tanlashlari muhim ahamiyatga ega.

Tayyorgarlik hududida hujumchilar jamoalarining to'pni qachon egallab olishlarini nisbatan sust holda kutib turadilar. Bunday vaziyat yuzaga kelishi bilan hujumchilar raqib ta'qibidan ozod bo'lishga, ularning himoya zonasida boshlangan hujumini davom ettirish uchun faol o'rinni tanlashga harakat qiladilar.

O'z navbatida himoyachilar ham oldinga yurib, tayyorgarlix hududda (hujum qilayotgan hujumchilar aynan shu erga chekinishga majbur bo'ladilar) munosib o'rin egallaydilar. Qarshi hujumni tashkil qilish uchun joy tanlash ko'rsatilgan. Raqibdan to'pni olib qo'yish uchun joy tanlash yoki to'pni oldirib

qo'ygandan so'ng uni qayta egallab olish uchun joy tanlash ko'rsatilgan. Odatda, o'yin tayyorgarlik hududida kechadi, shuning uchun qaysi bir jamoa to'pga egalik qilayotganligiga qarab, harakatlanishlarning xususiyatlari belgilanadi. Agar to'p raqibda bo'lsa, yaqindan ta'qib qilishni qo'llash zarur. Bunda o'yinda yuzaga kelgan vaziyatlarga muvofiq holda joy tanlanadi (ushbu holda zonali himoya qo'llanilmaydi). Agar to'p "o'zinikida" bo'lsa, unda aldanchi harakatlar, sur'atni o'zgartirishdan foydalanib, raqibdan o'zib o'tish va hujumni rivojlantirish zarur.

Hujum uyushtirilayotgan xududda, bu erda, masalan, "oqlar" joylashgan. Joy tanlash birinchi navbatda hujumni rivojlantirishga, darvozaga yaqinlashishga, to'p kiritish vaziyatini yaratishga yordam berishi lozim. Keyingi vazifa o'yin holatlaridan (burchak to'pi, erkin zarbalar va x.k.) unumli foydalanish hisoblanadi va nixoyat xujum yakunlanganda yoki to'p yo'qotilganda joy tanlash to'pni ikkinchi bor olib qo'yishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Joy tanlash o'yin dinamikasining eng asosiy elementi, o'yindagi chaqqonlikning eng muhim tarkibi sifatida boshqa omillar bilan o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. To'g'ri va o'z vaqtida joy tanlash texnika usullarini muvaffaqiyatli qo'llashning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi (masalan, to'pga kech qoladigan o'yinchini, odatda, aldab o'tadilar; to'pning uchishini noto'g'ri hisoblaydigan o'yinchi ko'p xollarda bosh bilan zarba berishda xatolikka yo'l qo'yadi va x.k.). Yosh futbolchilar ko'pincha usullarni bajarishda emas, balki joy tanlashga tayyorlanish paytida xato qiladilar. "O'yinni oxirigacha o'ynadi", "doimo o'yinda bo'ldi" kabi tushunchalarning ma'nosi shuni anglatadiki, o'yinchi uchrashuv davomida har doim harakatda bo'lgan, har doim joy tanlagan. Jismoniy qobiliyatlar va joy tanlashga kelganda yosh futbolchilarda kamchiliklar ko'zatiladi. Murabbiy buni diqqat bilan nazorat qilishi zarur. U qaysi bir o'yinchi joyni "his qiladiyu, lekin uni tez egallab olishga jismonan qodir emas va aksincha, qaysi bir futbolchi jismonan qodir bo'lsada, qachon hamda qaysi joyni egallash lozimligini "his qilmasligini" bilishi zarur. Ko'pincha katta yoshdagi va ba'zida yosh futbolchilar: "To'psiz shuncha ko'p yugurishning nima keragi bor?", deb fikr yuritadilar. Bu savolga qarab

shunday xulosa qilish mumkinki, o'yinchi joy tanlashning muxim ahamiyatga ega ekanligini tushunmaydi yoki jismonan hamda ruxan chidamli emas. Jismoniy va ruhiy muvozanatni tarbiyalash murabbiyning eng muxim pedagogik vazifasi hisoblanadi (shunday o'yinchilar borki, ularni maydonda fikrlashga o'rgatish, boshqalarni ruhan, uchinchilarini esa jismonan mustahkamlash zarur).

Birinchi bor maydonga chiqqan futbolchilarga joy tanlash masalasi tashvish keltiradi. Shu narsa ko'zatilganki, 11-15 yoshdagi o'yinchilar ayrim uchrashuvlarda 8-12 hollarda qandaydir texnika usulini bajaradilar. O'smir yoshdagi o'yinchilar faqat 15-20 hollardagina buning uddasidan chiqadilar. Yosh o'yinchi o'zini maydonda "joylashtirgungacha", u o'yinda faol qatnasha olmaydi va o'zining eng yaxshi sifatlarini namoyon qilolmaydi..

3.4. Hujum taktikasi va himoya taktikasi.

Hujum taktikasi. Hujum taktikasi deganda to'p ixtiyorida bo'lgan jamoaning raqib darvozasini zabt etish uchun qiladigan xarakatlarini uyushtirish tushuniladi. Hujum xarakatlari tuzilishining xilma-xilligi, hujum rivoji sur'atining, asosiy yorib o'tish yo'nalishining o'zgartirilishi, nixoyat, yakkama - yakkaga kurash, texnik usullarning xilma-xil bo'lishi bularning xammasi hujumni barbod etishga intilayogan himoyachilarni nixoyatda qiyin axvolga qoldiradi.

Hujumdagi xarakatlar yakka (individual) xarakatlarga, gurux xarakatlari va jamoa xarakatlariga bo'linadi.

Yakka (individual) taktika. Hujumdagi yakka taktika bu futbolchining muayan maqsadni ko'zda tutgan xarakatlari uning mazkur o'yin vaziyatada bir qarorga kelishi mumkin bo'lgan bir qancha imkonyatlardan eng to'g'risini tanlay bilishi, futbolchining to'p o'z jamoasida bo'lganda raqibning diqqat e'tiborida chetga chiqa olishi, o'zi va sheriklari uchun o'ynaydigan bo'sh joy topishi xamda paydo qila bilishi, kerak bo'lib qolgan taqdirda esa himoyachi bilan kurashda yutib chiqa olishga asoslanadi.

To'psiz xarakatlar. To'psiz xarakatlar quydagilardan: ochilish, raqibni chalg'itish va maydonning ayrim qismida o'yinchilarni son jihatdan ortiqlicni yaratishdan iboratdir.

Ochilish - bu futbolchining sheriklaridan to'p olish uchun sharoit qulay bo'ladigan joyga o'tishi. Moxirlik bilan ochilish uchun hujumchi u yoki bu vaziyatning qanchalar qulayligini juda yaxshi baxolay oladigan bo'lishi kerak. Eng qulay joyga vaqtida chiqib olish hujumchi va unga qarshi o'ynayotgan himoyachining tezkorlik xislatlariga, sheriklarining xarakatiga va boshqa omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Muvaffaqiyat ko'p jihatdan hujumchining to'p qabul qiladigan joyga qanchalar tez chiqib olishiga va to'p olgandan keyin qanday xarakat qilishiga bog'liq. Hamma xollarda xam futbolchi joy tanlashda quyidagilarga amal qilishi kerak:

1. Ochilish raqib uchun kutilmaganda va katta tezlikda ijro etilishi kerak. Bu himoyachidan uzoqlashib, to'p olish uchun ma'lum darajada qo'shimcha(zapas) vaqt yutish imkonini beradi.

2. Ochilish hali to'p tegmagan sheriklar xarakatini qiyinlashtirib quymasligi lozim.

3.To'p tekkan o'yinchiga ortiqcha yaqinlashib borish tavsiya etilmaydi - bu hujum rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadi.

4. O'yindan chiqib qolmaslik uchun juda ehtiyot bo'lish zarur.

Raqibni chalg'itish - bu sheriklariga yakka xarakat uchun qulay sharoit yaratib berish maqsadida futbolchining xarakatlanishi. Qo'riqchisini ergashtirib ketish maqsadida ma'lum zonaga soxta xarakatlana borib, yo to'pi bor o'yinchining, yoki darvozaga bevosita xavf solish uchun qulay joyda turgan sherigining bemalol xarakat qilishini ta'minlab berish yaxshi moneyvr hisoblanadi.

Chalg'itish xarakatlari qilganda quyidagilar yodda turishi kerak:

1.Xarakatlanishlar «rostakam» bo'lishi, yani chinakam xavf solib, himoyachilarni xarakatlanayotganlar ortidan quvishga majbur etadigan bo'lishi zarur.

2. Xarakatlanishlar maksimal tezliqda bo'lmasligi kerak, chunki raqib uning xarakatlarini ilg'amay qolib, quvishni boshlamasligi mumkin.

3. Chalg'itish xarakatlarining bir qancha variantlarini bilgan ma'qul,

shundagina himoyachilar faoliyati nixoyatda qiyinlashib qoladi.

Maydonning ayrim qismida o'ninchilarni son jihatdan ortiqligini hosil qilish. Hujumchi o'yinchilar maydonning biron qismida himoyachilar bilan yakkama - yakka kurashni uddalay olmayotgan bo'lsa, o'yinchilardan biri to'pi bor hujumchi o'ynab turgan zonaga o'tgan ma'qul. Shunda maydonning ma'lum qismida miqdor ortiqligi xosil qilinib, bundan raqibni yutib chiqish uchun foydalansa bo'ladi.

To'p bilan xarakatlar. To'pni boshqarayotgan futbolchi xarakatlarning asosiy variantlari to'p olib yurish, aylanib o'tish, zarba berish, to'pni uzatish va to'xtatishdan iborat. O'yinchilarning xilma xil xarakatlari o'yin texnikasida mufassal taxlil qilinadi. Bu erda esa turli o'yin vaziyatlarida qaysi bir xarakatdan foydalanish ma'qulroq ekani haqida ba'zi tavsiyalar berish bilangina cheklana qolamiz.

To'pni olib yurish. To'pi bor o'yinchining sheriklarini raqiblar to'sib olgan bo'lib, to'pni uzatish imkoni bo'lmasa, ana shunda mana shu taktik vosita ishlatilgani ma'qul. Bunday hollarda o'yinchi qo'yidagi maqsadlarda to'p bilan birga maydonda uzunasiga vako'ndalangiga xarakat qila boshlashi kerak:

A) sheriklarning ochilishiga, shuningdek ularning qaysidir bir hujumda zonasiga yaqin o'tishga imkoniyat yaratib berish. Bu xolda sheriklarining yangi joylariga chiqib olishga vaqt etarli bo'lishi uchun xarakatlanish tez bo'lmasligi lozim;

B) raqib darvozasiga bevosita xavf solish uchun o'z - o'ziga sharoit yaratish. Bunda aksincha chora qo'rishni qiyinlashtirish uchun to'pni maksimal tezlikda olib yuriladi. Bundan tashqari, sheriklarning joyi qulayligidan darhol foydalanib qolish uchun to'pni boshqarayotgan futbolchi ularning xarakatlanishini etibor bilan kuzatib borishi kerak.

To'pi yo'q futbolchi to'pi bor futbolchiga nisbatan tezroq yugurishini hamma vaqt yodda tutish kerak: shuning uchun xam to'pni uzatish imkoniyati bo'lmagan taqdirdagina uni olib yurgan ma'qul. To'pni ortiqcha ushlab turish hujum rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadi va sheriklar ishini qiyinlashtiradi, chunki ular qulay joyga chiqib, to'p olmaganlaridan keyin yana joy almashtirishga majbur

bo'ladilar.

Aylanib o'tish. Aylanib o'tish ya'ni to'pni boshqarayotgan o'yinchining raqib bilan kurashda yutib chiqish maqsadidagi xarakatlari mudofadan yakka o'tishning muhim vositasidir. Aylanib o'tish usullari qanchalik xilma-xil va samarali bo'lsa, hujum shunchalik havfliroq bo'la boradi.

Aylanib o'tishning quydagi turlari mavjud: xarakat tezligini o'zgartirib aylanib o'tish, xarakat yo'nalishini o'zgartirib aylanib o'tish, aldash xarakatlari (fintlar).

Xarakat tezligini o'zgartirib aldab o'ttish mana bunday bajariladi: to'pi bor futbolchi unga yondan, oldinroq yon tomondan yoki orqaroq yon tomondan hujum qilayotgan himoyachi yaqinroq kelishini kutib, o'rtacha tezlikda xarakat qila boradi. Taxminan himoyachi bilan uchrashiladigan paytda, oraliq 2-3 metrcha qolganda, ya'ni himoyachi bevosita hujum qilish masofasiga kelib qolganida hujumchi xarakat tezligini keskin oshiradi. Bunda u go'yo himoyachi bilan shartli uchrashish nuqtasidan o'tib ketib qoladi. Aylanib o'tishning bu turi maydonning yon chizig'i bo'ylab to'p olib ketayotganda yoki to'pi bor o'yinchi diogonal xarakatlanayotganida ko'piroq foyda beradi. Aylanib o'tishning bu usulini boshqacharoq, muayyan xarakat joyi (uchastkasi)da xam tezlikni kamaytirib xam qilsa bo'ladi.

Fint qilib aylanib o'tishning umumiy printsplari. Aylanib o'tish ikki xaraktatdan - soxta va chin xarakatlardan iborat bo'ladi. Soxta xarakat «har bir mazkur himoyachining tezligida» bajarilishini, ya'ni fintni raqib «ko'rishi» kerak, bo'lmasa u sohta xarakatga e'tibor berib aksincha chora ko'rib ulgurmaydi. Vaholanki hujumchi raqibni sohta yo'nalishda qarshilik ko'rsatishga majbur etishni, binobarin aylanib o'tishni davom ettirish uchun kerakli yo'nalishni bo'shatib olishni mo'ljallab xarakat qiladi.

Fint iloji boricha tabiiy bo'lishi kerak, shundagina himoyachi bajarilayotgan xarakatning chinakam ekaniga ishonadi. Himoyachidan aylanib o'tib olgandan keyin to'pni gavda bilan to'sib olib, raqib to'pni olaolmaydigan xolatga o'tish lozim. Aylanib o'tishdan maqsad uni namoya qilishdangina iborat bo'lmasligi

kerak. Aylanib o'tish hamma vaqt zarba berish, to'p uzatish, maydonning ayrim qismida miqdor ortiqdigi hosil qilish va hokozalar uchun qulay sharoit yaratish imkonini beradigan vosita bo'lib qolishi lozim.

Darvozani mo'ljallab zarba berish. Bu barcha hujum xarakterlarini amalga oshirishning eng asosiy vositasi hisoblanadi. Ana shu «pirovard» xarakterlar taktik jihatdan mohirona ishlatilmasa, jamoaning yutib chiqishiga qaratilgan barcha urinishlar bekor ketadi.

Darvozani mo'ljallab zarba berish taktikasining umumiy asoslari:

1. Zarba berish oldidan darvozabonning pozitsiyasini mohirona baholash va uning yaxshi ko'rgan xarakterlarini bilish kerak.

2. Aniq o'yin vaziyatiga qarab zarba berish usulini to'g'ri tanlash lozim.

3. Bajarish xarakteri (kuchliligi, aniqligi, buramaligi, pastlatilganligi va xakozo) jihatidan aynan shu vaziyatda qulay bo'lgan zarbadan foydalanish zarur.

4. Zarba darvozabon uchun iloji boricha kutilmagan bo'lishi darkor.

5. Darvozani zabt etish uchun qulayroq joyda turgan sherikka to'p oshirib bergan ma'qul.

6. O'yinchi turli usullarda zarba berishni bilishi kerak. Darvozani mo'ljallab bosh bilan zarba berishni bilish nihoyatda muhim, chunki to'p xolati uzatilganda hujumni yakunlash uchun bu juda qo'l keladi.

To'p uzatish. To'p uzatish ikki o'yinchining biri ikkinchisiga to'p yo'naltirayotgandagi o'zaro xamkorlik bo'lib, buni futboldagi yakka va gurux xarakterlari o'rtasidagi oraliq gurux desa bo'ladiyu kimga, qachon va qanaqa qilib to'p uzatib berish masalasini xal qilayotgan, shuningdek bu maqsadni amalga oshirayotgan futbolchi yakka maxoratini namoyish qiladi. Ayni vaqtda to'p uzatish ikki-uch sportchining birgalikdagi xarakterlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

Jamoa taktikasi. Jamoa taktikasi bu aniq o'yin sharoitida paydo bo'lgan vazifalarni xal qilishda butun jamoaning xarakterlarini uyushtirishdir. Butun jamoaning hujum va mudofaa xarakterlari aniq uyushtirilmasa, o'yin betartib, bemaqsad bo'ladi, unda o'yinchilar o'rtasida vazifa taqsimlashning iloji bo'lmaydi.

Bunday xollarda o'yinchilar qanday bo'lsin to'pni egallab olib bir amallab darvozaga kiritish uchun u yoqdan bu yoqqa yugurishaveradi.

Futbolni yuz yildan ortiq tarixi mobaynida o'yinchilarni aniq joylashtirib, ular o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlanishini nazarda tutgan ko'plab taktik tizimlar yaratilgan. Hujumdagi jamoa taktikasining, ya'ni konkret o'yin sharoitida paydo bo'ladigan vazifalarni xal qilishda butun jamoa xarakatlarini uyushtirishning asosiy printsplarini ko'rib chiqmiz. Xar qanday taktik tizimda xam jamoa taktikasi ikki xil xarakat ya'ni tez hujum va tadrijiy vositasida amalga oshiriladi.

Tez hujum. Tez hujum jamoa hujum xarakatlarining eng samarali usuli hisoblanadi. Buning mohiyati shundan iboratki, unda 1-3 uzatishda o'yinchilardan birini darvozani zabt etish uchun qulay joyga chiqaradigan hujum yoki javob hujumi uyushtiriladi. Hujum - bu jamoaning raqib darvozasini zabt etishga qaratilgan xarakatlarni uyushtirish. Tez hujumning afzalligi shundaki, bunda mudofaadagi kuchlarini qayta uyushtirib olishga raqiblarni vaqti bo'lmaydi. Hujumdagilarning xamma xarakatlari kutilmaganlik elementlariga boy bo'lib, yuqori tezlikda bajariladi. O'yinchilar maydonda ko'p manyovr qiladilar va to'pni uzatish bilan eng qisqa vaqt ichida sheriklaridan birini zarba berish joyiga chiqarish imkonini yaratadilar. Tez hujum javob hujumlar vaqtida, ya'ni o'yin jarayoni davomida to'pni qo'lga kiritgan jamoaning xarakatlarini uyushtirish vaqtida eng ko'p samara beradi. Hozirgi futbolda jamoa to'pni qo'lga kiritgandan keyin, o'yin jarayoni davomida hujumning uchta fazasi bo'ladi.

Birinchi faza - "o'tish", ya'ni mudofaadan tez hujum usulida hujumga o'tishdagi tayyorgarlik xarakatlari. Bu xarakatlar to'pni oldindagi o'yinchiga tez uzatib berish va mudofaada qatnashgan hujum o'yinchilarining hujum qatoridagi o'z joylariga qaytishni o'z ichiga oladi.

Himoya taktikasi. Himoyada uynashning umumjamoa usludi shaxsiy, zona va aralish bo'lishi mumkin. Biroq qisman bo'lsa xam boshqa uslub elementlardan foydalanmasdan birgina uslubda uynayverish xato. Chunki bu xol himoya taktikasini qashshoqlashtrib qo'yadi. Himoyada o'ynash uslublarini himoyachlarning yakka xislatlari va imkoniyatlarini hisobga olib tanlash kerak.

Himoyada o'ynashning taktik sa'nati raqibni qachon o'z xoliga qo'ymaslik va uni taqib etishni, qachon sheriklardan biriga berib yuborish va qachon zonada o'ynashni bilishdan iborat.

Mudofaa qilayotgan jamoa xarakterlarining xammasi hujum taktikasining xususiyatlariga qarab uyushtiriladi. Mudofaaning yaxshi uyushtirilganligi jamoaga hujum xarakterlarini xam muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi.

Himoyada o'ynash xilma-xil va ko'p rejali bo'lib, darvozani mudofaa qilishga, to'pni qo'lga kiritish uchun faol kurashish va hujum uyushtirishga qaratilgan bo'ladi. Himoyadagi o'yin xam hujumdagi singari yakka, gurux va jamoa xarakterlaridan iborat.

Yakka taktika. Mudofaadagi xarakter bir gurux o'yinchilarning to'g'ri straxovka qilishlariga, o'zaro almashuvchanligiga va ularning bir biriga mos xarakterlarigina emas, balki himoyachilarning to'pi bor va to'pi yo'q o'yinchiga qarshi yakka xarakter qilish mahoratiga, yani himoyachining aniq vaziyatda uz «xomiy»ligidagi o'yinchiga nisbatan qanchalik tug'ri joy tanlashiga ham bog'liq. Oqilona joy tanlash mudofaada muvaffaqiyatli xarakter qilishning asosi hisoblanadi.

To'p boshqarayotgan o'yinchiga qarshi xarakterlar himoyadagi yakka taktik xarakterlarga kiradi.

To'pi bor o'yinchiga qarshi harakatlar. To'pi bor o'yinchiga qarshi yakka o'yin mudofaa taktikasiga, ya'ni raqib o'yinchisini kuzatish va unga qarshi o'ynashga asoslangan bo'ladi.

Ko'p xollarda mudofaadagi raqib o'yinchisi to'p olayotganda yoki tupni nazorat qilib turganda kurash boshlaydilar. Yakka kurashning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz chiqishi mudofaadagilarning to'p olib qo'yishda, kerakli vosita va usullarni tanlash va qo'llashda qanchalar tajribali ekaniga bog'liq.

Himoyachi to'pni raqibdan u to'p qabul qilayotgan paytda olib qo'yishga intilishi kerak, chunki bu paytda hujumchining e'tibori asosan texnik usulni qanday bajarishga qaratilgan bo'lib, u keyingi taktik harakatiga kamroq e'tibor berayotgan bo'ladi.

To'pni boshqarayotgan o'yinchiga qarshi xarakatda himoyachi quyidagilarni bajarishga intiladi:

- A) to'pni raqibdan olib qo'yish.
- B) to'pni uzatilishiga to'sqinlik qilish.
- V) to'p olib yurilishiga to'sqinlik qilish.
- G) zarba berilishiga tusqinlik qilish.

To'pni olib qo'yish. To'pni olib qo'yishda tezkorlikning, masofani xis etish va vaqtni mo'ljallashning, shuningdek butun o'yin vaziyatini baxolay bilishning ahamiyati kattadir.

Futbolda bir xilda takrorlanadigan xolat va vaziyatlar bo'lmaydi, shuning uchun hujum qilayotgan o'yinchiga to'p bermaslikni qachon va qaerda bo'lishni himoyachining o'zi aniqlashi kerak. Bazan o'yinchiga juda yaqin kelib, uning ketidan qolmaslik, ba'zida esa o'z joyidan ketmaslik kerak bo'ladi. Ammo xar qanday xolda xam hujum qiluvchiga bemalol to'p olish imkonini bermaslik lozim.

Himoyachi hujum qilayotgan o'yinchi xarakatlarni kuzatayotib, unga darxol hujum qilish kerakmi yoki yo'qmi - o'zi xal qiladi. Raqib ro'parasida ekanida u aylanib o'ta boshlashni yoki to'pni olib yura boshlashni kutgan ma'qul. Raqib aylanib o'tishga tayyorlanib, himoyachiga yaqin kelganida, himoyachi to'pni olib qo'yish yoki tepib chiqarib yuborish paytini topa bilishi kerak.

O'yin sharoiti va oqibat qanday chiqishiga qarab himoyachi raqibdan to'p olib qo'yishning ma'lum bir usulini tanlaydi. Bunda sirpanish, to'pni tepib yuborish, elkada turtish va shu kabi usullardan foydalansa bo'ladi.

Gurux taktikasi. Butun futbol o'yini boshdan oyoq kombinatsiyalar asosiga qurilgan bo'lib, o'yinning mazmuni xam aslida shu kombinatsiyalardan iborat. O'yin vaqtida qayta takrorlanmaydigan xolatlar ko'p uchraydi. Bu xollar xar birining o'z asosi bor. Bunday asoslarni xar bir o'yinchi, eng avvalo himoyachilar bilishi va tushunishi lozim. Shunda taktik rejada hujumchilarga qarshi xarakat qilish va zarur usullar qo'llash oson bo'ladi. Mudofaadaga gurux o'yinning asosiy mazmuni himoya o'yinchilarning hujum qlayotgan raqiblariga qarshi uyushgan xarakatlari hisoblanadi. Mudofaadagilar o'zining raqib bilan yakka yakka

kurashayotgan xar bir sherigaga yordam beradi yoki yordam berishga tayyor turadi. Shunday qilib sherigiga bevosita va kerakli yordam berishdan tashqari, straxovka qilish xam uyushtiriladi. Moxirlik bilan joy tanlash esa aniq xamkorlik qilishga yordam beradi.

Himoyadaga gurux taktikasi darvozaga xavf solayotganlar qanday raqibga qarshi gurux bo‘lib xarakat qilishni nazarda tutadi va sheriklariga yordam berishga qaratilgan bo‘ladi. Straxovka shuningdek «devor» va «kesishuv» kombinatsiyalariga qarshi xarakatlar himoyada ikki o‘yinchining xamkorlik qilish usullariga kiradi.

Maxsus uyushtirilgan qarshi xarakatlar, chunonchi, «devor» yasash, suniy «o‘yindan tashqari» xolat xosil qilish va darvozabon ishtirokidaga xarakatlar uch va undan ortiq o‘yinchining xamkorlik qilish usullariga kiradi.

Jamoa taktikasi. Himoyada o‘yinashning umumiy taktik printsplari bor ekaniga qaramay, himoyachilar xarakatida qator xususiyatlar mavjudki, bular ayrim o‘yinchilarning yoki bir gurux o‘yinchilarining asosiy vazifa va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Ana shu xususiyatlarni hujum endigina yuzaga kelayotgan paytda va hujumning boshida himoyalnayotgan jamoa o‘yinchilarning xarakatlarida kurish mumkin. Shundan keyin, hujum rivojlanayotganda va yakunlanayotganda esa jamoalar bir xil printsplarga rioya qiladilar. Biroq himoyada o‘yinashning printsp va yakka (individual) usullarini bir-biriga bog‘lamay qarash noto‘g‘ri bo‘lur edi. Ularni bu xilda ajratish shartli xarakterda bo‘lishi mumkin, xolos. Mana, masalan, himoyada zona usulida o‘ynayotgan jamoada ayrim o‘yinchi yoki bir necha o‘yinchi zona printsipi doirasidan chiqadigan yakka (individual) vazifalarni bajarishi mumkin.

Tez hujumga qarshi himoya. Agar raqib tomondan hujumga o‘tayotganda taktik vosita sifatida markaz bo‘ylab yoki qanot bo‘ylab to‘p uzatib berishdan foydalanib, asosan tezjumga zo‘r beradigan bo‘lsa, himoyalnayotgan jamoa o‘yinchilari mudofaaning birinchi bosqichida to‘p boshqarayotgan raqibni faol hujum qilib, bunda quyidagilarga intilishlari kerak.

A) hujumning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz chiqishini belgilaydigan

birinchi uzatishga to'sqinlik qilish.

B) raqibni xato qilishga, eng yaqin turgan sheriklariga keraksiz uzatishlar qilishga majbur etash;

V) xar kim o'zi qo'riqlayotgan o'yinchisini juda yaqindan to'sib oladi, chunki to'pi bor o'yinchi oldi to'siq sherigiga to'p uzatmaydi, uzoq joydagi o'yinchiga to'p uzatishga urinish esa himoyachillarning to'p uchun kurashini osonlashtiradi.

Raqib faol manevr qilayotgandagi mudofaaning ikkinchi bosqichi qattiq shahsiy (personal) qo'riqlashni yoki (zona tizimidagi mudofaada) ayrim zonalarda paydo bo'lib turgan raqiblarni sinchiklab kuzatib, ularning hujumni rivoj toptirishga urinishlarini barbod qilishni nazarda tutadi.

Agar raqiblar maydon bo'ylab o'yinayotgan bo'lsa, himoya qatori o'yinchilari markaziy zonani mustaxkamlash va hujum qilish burchaklarini kichraytirish uchun jarima maydoniga zichroq to'planib oladilar. Bordiyu qanot bo'lib hujum qilinayotgan bo'lsa, unda himoya qatori o'yinchilari xujum yo'nalishi tomonga yaqinlasha borib, ishonchliroq qo'riqlash (straxovka qilish) maqsadida qarshi tomondan qanotni ko'pincha kimsasiz qoldiradilar. Birinchi xolatda, yani raqiblar markazdan hujum qilayotganda, qo'riqlash (straxovka qilish) orqaga qaragan burchak shaklida bo'lib, bunda orqa markaziy himoyachi bosh rol o'ynaydi ikkinchi xolda esa o'yinchi bilan faol kurashdan ozod darvoza tomonga yaqin burchak (dioganal) bo'ylab orqada turgan qanot himoyachisi xam qo'riqlash (straxovka qilish) uchun orqadagi markaziy himoyachi bab-baravar javobgar bo'ladi.

3.5. Himoya va hujum tizimining asosiy tasnifi.

Tez hujumga qarshi himoya. Agar raqib tomondan hujumga o'tayotganda taktik vosita sifatida markaz bo'ylab yoki qanot bo'ylab to'p uzatib berishdan foydalanib, asosan tez hujumga zo'r beradigan bo'lsa, himoyalananayotgan jamoa o'yinchilari mudofaaning birinchi bosqichida to'p boshqarayotgan raqibni faol hujum qilib, bunda quyidagilarga intilishlari kerak.

A) hujumning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz chiqishini belgilaydigan birinchi uzatishga to'sqinlik qilish.

B) raqibni xato qilishga, eng yaqin turgan sheriklariga keraksiz uzatishlar qilishga majbur etash;

V) xar kim o'zi qo'riqlayotgan o'yinchisini juda yaqindan to'sib oladi, chunki to'pi bor o'yinchi oldi to'siq sherigiga to'p uzatmaydi, uzoq joydagi o'yinchiga to'p uzatishga urinish esa himoyachillarning to'p uchun kurashini osonlashtiradi.

Raqib faol manyovr qilayotgandagi mudofaaning ikkinchi bosqichi qattiq shaxsiy (personal) qo'riqlashni yoki (zona tizimidagi mudofaada) ayrim zonalarda paydo bo'lib turgan raqiblarni sinchiklab kuzatib, ularning hujumni rivoj toptirishga urinishlarini barbod qilishni nazarda tutadi.

Mudofaaning uchinchi bosqichida to'p va o'yin joyi uchun bevosita kurash nazarda tutiladi.

3-orqa markaziy himoyachi ochilib chiqqan 9-o'yinchiga yo'naltirilgan to'pni olib qolgan 3-himoyachi to'pni olib qo'ygani qaramay, 9-o'yinchi 7-o'yinchining va qisman 6-o'yinchining yordamida to'p uchun kurashni davom ettiradi.

Tez hujumga qarshi himoyaga bo'lgan asosiy talablar:

1. To'pni yana qo'lga kiritish yoki raqibning uzoqqa birinchi to'p uzatishiga xalaqit berish uchun, albatta to'p uchun kurashga kirishish.

2. Raqiblarning tezkor manyovr qilishi oldini olish bilan bir vaqtda maydonning hal qiluvchi qismlarida o'yinchilar gruppalarini ko'paytirish hisobiga darvoza tomon o'tadigan hamma yo'llarni yopib qo'yish uchun ikkinchi va uchinchi bosqichlarda o'yinchilar aniq harakat qilishlari.

3. Uzoqdan to'p birinchi marta kimga uzatib berilsa, o'shani neytrallash.

Tadrijiy hujumga qarshi himoya. Tadrijiy hujumga qarshi kurash jamoa mudofaa harakatlarini uyushtirishning juda keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Mazkur himoyada jamoa harakatlarini amalga oshirayotganda bunday o'yin raqiblar uchun foydaliroq bo'lib tuyulishi mumkin. Chunki tashabbus ular qo'lida bo'ladi. Biroq, himoyadagilar bir-biriga mos harakat qilib, raqibni muhim omil - darvozaga o'tadigan yo'ldan mahrum qilib qo'yadilar.

Agar raqib tomon hujumga o'tayotganda taktik vosita sifatida qisqa, va

o'rtacha uzatishlardan foydalanib, asosan tadrijiy hujumga zo'r beradigan bo'lsa, himoyalananayotgan jamoa hujumning birinchi bosqichida faol kurash qilmay orqaga chekinganni ma'qul topadi. Bunda raqiblar to'pni olg'a surib borishni qiyinlashtirishni maqsad qilib qo'ygan bo'ladilar.

Tadrijiy hujumning ikkinchi bosqichida mudofaa o'yinchilari hujum yo'nalishida ko'p bo'lib joy va to'p uchun kurashda qatnashadilar. Hujumning uchinchi bosqichida darvozaga yaqinlashgan sari raqiblarning to'pi borlari ham, to'pi yo'qlari ham harakat tezligini, ayni chog'da hujumdagi o'yinchilar sonini ham oshira borayotgan bir paytda himoyachilar zich to'siq hosil qilishlari va raqiblarning zarba berish joyi (pozitsiyasi) ga chiqishlarini qiyinlashtirib qo'yishlari kerak.

Tadrijiy hujumga qarshi himoyaga bo'lgan asosiy talablar.

1. O'yinchilarning orqaga chekinishi. Bu manyovr qulay joy (pozitsiya) ishgo'ol qilib, raqiblarni ko'ndalang uzatishlarga o'tishga majbur qilish maqsadida qo'llaniladi. Ayni vaqtda mudofaadagi o'yinchilar raqiblarning ham, to'pning ham harakatlanishini e'tibor bilan kuzatib boradilar.

2. Himoyachilarning to'p va joy uchun bevosita kurashda ishtirok etishi. Odatda bunday kurash raqiblar maydonining himoyalananayotgan jamoa tomoniga o'tib, harakat tezligi va hujumda qatnashayotgan o'yinchilar sonini oshirgandan keyin boshlanadi.

3. Qo'riqlash (straxovka) va o'zaro almashinish vaqtida mudofaa qatorlari batartibligini saqlab qolish, shuningdek o'yinchilarning raqiblar hujumi yo'nalishida harakatlanishi tadrijiy hujumga qarshi himoyaga qo'yiladigan asosiy choralardir.

Mudofaada o'ynashning asosiy talab (printsip) lari.

1. Butun jamoa bilan mudofaalanish. Jamoaning hamma o'yinchilari o'yinning turli bosqichlarida mudofaada ishtirok etadilar. Hujumchilar berib qo'yilgan to'pni qaytarib olishga yordam beradigan faol mudofaa harakatlari qilishlari kerak.

2. Xavfli zonada hujum qilayotgan jamoaning hamma o'yinchilari yo'lini

to'sib olish. Agar hujum qilayotgan jamoaning o'yinchilari to'pni boshqarayotgan sheriklaridan qisqa yoki o'rtacha uzatish etib boradigan masofada bo'lsa va to'pni to'ppa-to'g'ri ular oyog'iga tushirib berishi yoki ochiq joyga chiqarib berishi mumkin bo'lsa, bu o'yinchilar yo'li (personal) to'silgan bo'lishi kerak.

3. Qo'riqlash (straxovka) va o'zaro qo'riqlash (straxovka) talab (printsip) lariga qat'iy rioya qilish. Qo'riqlayotgan o'yinchi sherigining xatosini vaqtida tuzata oladigan joy (pozitsiya) da bo'lishi kerak. Bunday joy (pozitsiya) qariyb hamma vaqt qo'riqlayotgan sherikning ortida, o'z darvozasiga yaqinroq joyda bo'ladi.

4. Aytib turishdan foydalanish. Odatda, o'z darvozasiga yaqinroq bo'lgan o'yinchi sheriklarining harakatini boshqarib turadi. Shu ma'noda darvozabonning o'rni alohidadir. Uning vazifasi raqiblar hujumi rivojlanishi va sheriklarining mudofaadagi harakatlarini e'tibor bilan kuzatish, o'yin vaziyatini to'g'riroq baholab, vaqtida aytib turish bilan sheriklarining xatosini oldini olish va uni tuzatish imkonini beradi.

5. Sun'iy «o'yindan tashqari» holatdan foydalanish. Agar raqiblar mudofaani yorib o'tishga juda qattiq kirishib ketgan, hujumchilar esa o'yinni keskin davom ettiradigan bo'sh joyga ochilib chiqishga zo'r berayotgan bo'lsalar, sun'iy «o'yindan tashqari» holatdan bemalol foydalansa bo'ladi. Bu taktik usulni qo'llanganda darvozaga boshqalardan ko'ra yaqinroq turgan maydon o'yinchisiga eng ko'p huquq beriladi.

6. Raqib zarba berayotgan paytda o'z darvozasi tomonga chiqish. Raqib qaytgan to'pga zarba berib, darvozani zabt etmasligi uchun raqib to'pga zarba berayotganda undan oldin o'z darvozasi tomonga chiqib olish kerak.

3.6. O'yin texnikasining o'zlashtirishga qarab taktik maqsad qo'yish.

Guruh taktikasi. Butun futbol o'yini boshdan oyoq kombinatsiyalar asosiga qurilgan bo'lib, o'yinning mazmuni ham aslida shu kombinatsiyalardan iborat. Uyin vaqtida qayta takrorlanmaydigan holatlar ko'p uchraydi. Bu hollar har birining o'z asosi bor. Bunday asoslarni har bir o'yinchi, eng avvalo himoyachilar bilishi va tushunishi lozim. Shunda taktik rejada hujumchilarga qarshi harakat

qilish va zarur usullar qo'llanish oson bo'ladi.

Mudofaadagi guruh o'yinining asosiy mazmuni himoya o'yinchilarining hujum qilayotgan raqiblariga qarshi uyushgan harakatlari hisoblanadi. Mudofaadagilar o'zining raqib bilan yakkama-yakka kurashayotgan har bir sherigiga yordam beradi yoki yordam berishga tayyor turadi. Shunday qilib, sherigiga bevosita va kerakli yordam berishdan tashqari, straxovka qilish ham uyushtiriladi. Mohirlik bilan joy tanlash esa aniq hamkorlik qilishga yordam beradi.

Himoyadagi guruh taktikasi darvozaga xavf solayotgan har qanday raqibga qarshi guruh bo'lib harakat qilishni nazarda tutadi va sheriklariga yordam berishga qaratilgan bo'ladi. Straxovka, shuningdek «devor» va «kesishuv» kombinatsiyalariga qarshi harakatlar himoyada ikki o'yinchining hamkorlik qilish usullariga kiradi. Maxsus uyushtirilgan qarshi harakatlar chunonchi, «devor» yasash, sun'iy «o'yindan tashqari» holat hosil qilish va darvozabon ishtirokidagi harakatlar uch va undan ortiq o'yinchining hamkorlik qilish usullariga kiradi.

Yordam qilish (straxovka). O'yin vaqtida o'z sherigiga yordam berish usullaridan biri straxovka hisoblanadi. Himoyada yordam berishning to'g'ri va vaqtida bo'lishi uning mustahkamligi va ishonchliligining garovidir. Yordam qilish uchun tanlangan joy zarur hollarda sherik yo'l qo'ygan xatoni tuzatadigan bo'lishi kerak. Bunday joy hamma vaqt orqada, o'yinchining o'z darvozasiga yaqinroq joyda bo'ladi.

«Devor», «kesishuv», «to'pni tegmay o'tkazish» va «bir tegishdayoq uzatish» kombinatsiyalariga qarshi kurashish mudofaadagilar uchun anchagina murakkab bo'lishiga qaramay, himoyachi bir o'zi va mudofaadagi sheriklari bilan kelishib o'ynab, bu kombinatsiyalarga qarshi muvaffaqiyatli harakat qila oladi.

«Devor» kombinatsiyasiga qarshi harakat. «Devor» kombinatsiyasiga qarshi kurashda bu kombinatsiya qaerda bo'layotganini hisobga olish kerak. Ba'zan hujumchilardan birini juda yaqin qo'riqlashdan voz kechib, zonada o'ynagan yoki «devor» kombinatsiyasini amalga oshirishga bo'sh joy qoldirmaslik maqsadida mudofaa kuchlarini jarima maydoni yaqiniga to'plagan ma'qul bo'ladi. Birinchi

uzatilgan to'pni olayotgan raqibga nisbatan joyni tanlash bu kombinatsiyaga qarshi harakatdagi asosiy payt hisoblanadi. To'pni tepib chiqarib yuborishni, raqibning javob uzatishini qiyinlashtirishni yoki uni dastlabki rejasidan qaytishga majbur qilishni mo'ljallab raqib yaqinidan joy tanlash kerak. Bunda orqadagi o'yinchining vazifasi juda muhim bo'ladi. O'yin jarayonlarining keyin qanday bo'lishi ko'p jihatdan uning kombinatsiya qanday davom etishini ko'ra bilishiga, shuningdek vaqtida yordamga kela bilishiga bog'liq.

«Kesishuv» kombinatsiyasiga qarshi harakat. Bu kombinatsiya darvozaga taxdid solish nuqtai nazaridan «devor» kombinatsiyasidek xavfli emas. Odatda bu kombinatsiya darvozadan ancha uzoq qo'llanilib, asosan tashabbusni saqlab turishga qaratilgan bo'ladi. «Kesishuv» paytida himoyachilar o'zi qo'riqlayotgan o'yinchilarning harakatiga, ayniqsa to'p bilan qolgan o'yinchining harakatiga qattiq e'tibor berib, darvoza yo'lini to'sib olganlari ma'qul.

«To'pni tegmay uzatish» kombinatsiyasiga qarshi harakat. Bu kombinatsiya jarima maydoni doirasida eng samarali bo'ladi. U kutilmagan harakatlarga, asoslangan bo'lganligi uchun ham himoyachilar nihoyatda ehtiyot bo'lishlari kerak. Odatda, o'zi qo'riqlayotgan o'yinchi bilan ozgina fursat qarovsiz qoldirilgan hujumchi o'rtasida to'g'ri joy tanlagan himoyachi bu kombinatsiyaga qarshi harakat qila olishi mumkin. Himoyachi to'p uzatilgan hujumchidan epchillik qilish va unga darvozani mo'ljallab zarba berishga imkon bermaslikka harakat qilishi kerak.

Ayni vaqtda hujumchi tepmoqchidek bo'lib turib, to'pni sherigiga o'tkazib yuborishi mumkin. Shuning uchun himoyachi darvozani mo'ljallab tepishga xalaqit berishgina emas, balki tegmay o'tkazib yuborilgan to'pni olib qolishning ilojini qilishga ham tayyor turishi darkor. Birinchi bo'lib kurashga kirayotgan himoyachining sheriklari uning harakatlari muvaffaqiyatsiz bo'lgan taqdirda uni himoya qilishga va hujumchi tegmay o'tkazib yuborgan to'pni olib qolishga tayyor bo'lishlari kerak.

Sun'iy «o'yindan tashqari» holatni vujudga keltirish. Bunday holatni vujudga keltirish mudofaadagi samarali metod hisoblanadi. Odatda quyidagi hollarda sun'iy

«o`yindan tashqari» holat vujudga keltiriladi:

a) raqib jamoasi tashabbusni qo`lga olib, zo`r berib hujum qilaverganda va olg`a intilaverganda;

b) raqib hujumchilari keskin ochilishga intilib, mudofaa ichkarisida bo`sh joyga chiqmoqchi bo`lganda;

v) tashabbus o`zining jamoasida bo`lib, raqiblarning mudofaaga o`tib olishdan boshqa iloji qolmay, oldinda bir-ikki o`yinchinigina qoldirib, to`plarni uzoqdan asosan shularga uzatib bermoqchi bo`lganda.

«O`yindan tashqari» holatni vujudga keltirish san`ati avvalo himoya qatoridagi o`yinchilar harakatining bir-biriga mosligiga bog`liq.

Odatda o`z darvozasiga hammadan ko`ra yaqin turgan himoyachining «o`yindan tashqari» holatni uyushtirish imkoniyatlari eng ko`p bo`ladi. U boshqa himoyachilarning harakatlari va qanday turganligini, shuningdek to`pni boshqarayotgan raqiblarning harakatlari va niyatlarini zo`r e`tibor bilan «kuzatib borishi kerak. To`p darvozaga qanchalik yaqin bo`lsa, himoyachining o`z harakatlarini moslab olishlari va «o`yindan tashqari» holatni uyushtirishlari shunchalik murakkablasha boradi. Tajribalar bunday holatni vujudga keltirish hammadan ko`ra maydonning markaziy chizig`i bilan jarima maydoni chizig`i oralig`ida muvaffaqiyatli chiqishini ko`rsatmoqda.

«O`yindan tashqari» holatni to`g`ri uyushtirish . 10-o`yinchi to`pni uzoqdan 11- yoki 9-o`yinchiga uzatib beradi. Ikkala holda ham 3-himoyachi shundagina zarba berilishi oldidan ilgoriga o`tib, hujumchilarni o`z orqasida «o`yindan tashqari» holatda qoldirib, hujumni tez to`xtatib qolishi mumkin. «Devor» yasash va uni, uyushtirish mudofaada o`ynashning juda yaxshi taktik vositasi hisoblanadi. Darvozasiga erkin to`p tepish yoki jarima to`pi tepish belgilangan jamoa «devor» yasashdan foydalanadi. Raqib tomon mudofaadagilar darvozasi yaqinida jarima yoki erkin to`p tepayotgan bo`lsa, to`p yo`lini to`sish maqsadida mudofaadagilarning bir guruh o`yinchilari qator saf tortib turadi. To`g`ri yasalgan «devor» ko`p jihatdan darvoza xavfsizligini ta`minlab beradi. Odatda 4-5 o`yinchi (ko`pincha ikki himoyachi, ikki yarim himoyachn va bir hujumchi) «devor»

yasashga turadi. Zarba beriladigan joy darvozadan qancha uzoqda bo'lsa, shuncha kam o'yinchi «devor» yasashga turadi.

Mudofaadagilarning «devor» yasashdan maqsadi o'z darvozasining yaqin burchagini to'ppa-to'g'ri zarba berilishidan saqlashdir (uzoqdagi burchakni darvozabon qo'riqlaydi).

«Devor»ning turlari taktik rejalarga, o'yinchilarning saf tortishi va soniga bog'liq. «Devor» yasaganda raqibning burama zarba berishi mumkinligini ham hisobga olish kerak.

Taktik tizim (sistema)lar evolutsiyasi. Taktik tizim - bu har bir o'yinchining vazifalari va ularning futbol maydonidagi o'rinlari belgilab qo'yilgan holda jamoa bo'lib o'ynash harakatlarini uyushtirish.

Har taktik tizimning ozmi-ko'pmi doimiy alomatlari bo'lib, o'yinchilarning joylashtirilishi va o'yinning qanday usul hamda shaklda olib borilishi, shuningdek o'yinchilarning vazifalari shular jumlasiga kiradi.

Xujum bilan himoya o'rtasidagi kurash har qanday sport o'yinining rivojlana borishiga ta'sir qiladigan asosiy omil hisoblanadi. Xuddi shu kurash futbol taktikasi doimo taraqqiy etib turishini rag'batlantirib boradi.

O'z taraqqiyotida eng o'zgaruvchani yakka taktikadir. Burama zarba berish, to'p taxtash, fint qilish singari texnik usullarning yangi-yangilari paydo bo'lib, ular yakka taktika vositalari bo'lib qoladi. Bu erda taktik echimlarni amalga oshirish vositalari nisbatan tez o'zgarib turadi. Chunki hujumning yangi vositasi topildimi, shundan keyin mudofaaning yangi vositasi yordamida uni bartaraf etish yo'li ham topiladi. Jamoa o'yinini uyushtirish esa boshqa gap. Taktik tizimlar ham jamoa o'yinining ifodasi hisoblanadi. Odatda, hujum bilan himoyadagi kuchlar nisbatiga e'tibor yaxshi balilgan bo'lsa, o'yin juda qiziq o'tadi. Biroq qaysidir bir murabbiy mudofaada jamoa harakatlarini uyushtirishning yangi variantini ishlab chiqdi deylik. Ma'lum vaqtgacha mudofaa hujumdan ustun kelib yuradi. Vaqti kelib qarshi chora tariqasida hujum harakatlarini uyushtirishning zarur usuli ishlab chiqiladi. Shunday qilib, bir taktik tizim o'rniga boshqa, rivojlangan tizim vujudga keladi. Lekin, yakka taktik harakatlarda yangiliklar tez-tez paydo bo'lib tursada,

batamom o‘yin taraqqiyotiga bog‘liq bo‘lgan taktik tizimlar rivojlanishga qarab vaqti kelib o‘zgaradi.

Hozirgi taktik tizim (sistema)lar. Hozirgi futbol taktikasi o‘yinchilardan texnik jihatdan mohir bo‘lishni va ularning taktik tafakkuri rivojlangan bo‘lishinigina emas, balki funktsional imkoniyatlari ortiq bo‘lishini ham talab qiladi.

O‘yinchilar harakatchanligini, universalligini oshirish va o‘yinni yanada aniqroq uyushtirish hisobiga jamoaning hujum qudratini kuchaytirish tendentsiyasi zamonaviy futbol taraqqiyotidagi bosh yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Futboldan X jahon chempionatida o‘yinni yangicha uyushtirish printsipti, ya’ni total futbol printsipti e’tirof etildi.

Total futbol deganda hamma o‘yinchilarning uyushqoqlik bilan harakat qilishi, hujumdagi va mudofaadagi har qanday holatda ularning juda faol bo‘lishi tushuniladi. O‘yinchilarning universalligi total futbolning muhim xususiyatidir. Bunda ham hamma futbolchilar ilgarigidek aniq o‘yin joyi (pozitsiyasi)da bo‘ladilar. Biroq o‘yin davomida zarurat bo‘lganida o‘yinchilar o‘zaro almashinib o‘ynaydilarki, bu hol hamma joylarga chiqaverish, qatorlar bir-biridan uzilib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, raqiblarni operativ kenglikdan mahrum qilish imkonini beradi.

O‘yinchilar uzluksiz harakatda bo‘ladilar, juda ko‘p improvizatsiya qilib o‘ynaydilar va o‘yin xarakterini jamoaga kerakli yo‘nalishda to‘satdan va tez o‘zgartira oladigan bo‘ladilar.

Yuksak darajadagi tezkor texnika, o‘yin maromi va sur‘atini boshqara bilish, manyovrchanlik bugungi kunda o‘yinchilarning alohida qatorlar orasidagi tafovutni yo‘qotishga yordam beradigan, o‘yinchilar o‘zaro almashib o‘ynashga, ya’ni ular tayyorgarligini universallashtirishga imkon beradigan yakka va texnik xislatlari hisoblanadi.

Hozirgi futbolda hujum ham, mudofaa ham yalpi bo‘lib, yakka o‘yin uslublari bilan qo‘shib olib boriladi. Bunday «balanslangan» futbol juda samarador va tomoshabop bo‘ladi. Turli qator o‘yinchilarining o‘zaro almashib o‘ynashlari

mudofaaga xalal etkazmay turib yarim himoyachi va himoyachilardan hujumda foydalanish imkonini beradi.

Hozirgi futbolda ayrim «yulduz»larning yakka harakatlari jamoa o'yiniga tobora ko'p bo'ysundirilmoqda. Biroq, bu jamoada etakchilik qiladigan kuchli o'yinchilarning rolini zarracha ham kamaytirmaydi. Shuningdek improvizatsiya qilish ham endilikda yakka emas, balki jamoa xarakterda bo'lib, bu jamoa harakatlariga kutilmaganlik tusini berib, raqiblar rejasini buzib yubormoqda.

O'yin uslubi deganda yakka o'yinga, bir jamoaga yoki umuman biron mamlakat futboliga xos, boshqalardan farq qiladigan alomatlar yig'indisini tushunish kerak.

Uslub bu o'ynayotganlarning psixik va jismoniy xislatlari, ularning o'yin olib borishdagi texnik-taktik madaniyati ifodasidir. Masalan, sobiq ittifoq futbolining uslub xususiyatlariga eng avvalo o'yinni jamoa printsiplari asosida uyushtirishni kiritish mumkin. Jamoaviylik asosida esa, o'z navbatida, yakka mahorat namoyon bo'ladi, jamoaning barcha imkoniyatlari ishga tushadi.

O'yin taktikasi, tizimi va uslubi uzviy bir butunlik bo'lib, o'zaro bir-birini to'ldirib turadi.

Hozirgi mavjud o'yin uslublari va taktik sxemalar o'yin jarayonida turlana oladigan universal o'yin tizimi yaratishga intilish borligi haqida gapirish imkonini beradi.

Yangi, zamonaviy 1+4+2+4 o'yin tizimiga o'tish 50-yillardagi futbol taktikasi evolutsiyasiga yakun yasadi, desa bo'ladi.

Yangi tizimning «uch himoyachili» klassik tizimidan asosiy farqi to'rtta qator o'rniga uchta qat'iy qator tashkil topib, ulardagi o'yinchilarning taktik vazifalari aniq belgilab qo'yilganligidan iborat. Endi futbolda hujum qiluvchi kuchlar bilan mudofaa qiluvchi kuchlar taxminan teng bo'lib qoldi. Yangi tizimda orqa qator to'rt himoyachidan - o'z darvozasi ro'parasidagi zonada o'ynovchi ikkita (chap va o'ng) markaziy himoyachidan va sal oldinroqda o'ynovchi ikkita qanot himoyachisidan iborat. Ularning hammasi mudofaada o'ynashning zona tamoiliga rioya qiladi. Oldingi qatorda asosan oldinda o'ynovchi ikkita markaziy hujumchi

va ikkita qanot hujumchisi bo'radi.

O'yinchilarning yangicha joylashtirilishi jamoa hatorlari orasida yangicha taktik bog'lanishlar yuzaga keltirdi. Jabha bo'ylab va ichkariga bog'lanishlar ko'paydi. To'g'ri, yangi tizim qanot himoyachilari o'yiniga uncha ta'sir etmadi, ammo boshqa o'yinchilarning funktsiya va vazifalari anchagina o'zgardi. Masalan, mudofaaning markazi ikkita markaziy himoyachiga ishonib berildi. Qanot himoyachilari singari bular ham zona mudofaasi tamoillariga rioya qilib, o'zlari qo'riqlaydigan o'yinchilarni darvozani zarbga tutish mumkin bo'lgan masofada qarshi oladilar. Bunda o'zaro yordam qilish alohida rol o'ynaydigan bo'lib qoldi.

O'rta qator o'yinchilarining asosiy vazifasi himoyachilar bilan hujumchilar o'rtasida bog'lanish bo'lishini ta'minlashdan, shuningdek u yoki bu tomonga faol yordam berishdan iborat. Shuning uchun o'rta qator o'yinchilaridan biri bog'lovchilik (dispetcherlik) vazifalari bajaradigan yarim hujumchi bo'radi. Bu futbolchining texnik mahorati yuksak va taktik tafakkuri a'lo darajada bo'lishi kerak. Uning sherigi esa ko'proq mudofaada ishonch bilan o'ynaydigan yarim himoyachilik qiladi.

Hujum qatoridagi ikkala qanot hujumchisi ham qat'iy o'z joyida o'ynab, jabha bo'ylab kamdan-kam harakat qiladi. Raqiblar hujumi chiqmay qolgandan keyin himoyachilar bilan aloqa saqlanishi uchun qanot hujumchilari tezda orqaga qaytib keladilar. Markaziy hujumchilar esa aksincha, maydonning kengligi bo'ylab manyovr qilib, bir-biri bilan joy almashib o'ynaydilar, qanot hujumlariga kerakli yordam beradilar, lekin hujumni yakunlashda eng faol qatnashadilar. Hujum chiqmay qolgandan keyin markaziy hujumchilar maydon markazidagi o'zlarining dastlabki joylariga qaytadilar.

Hujum vaqtida mudofaada ko'p o'yinchi to'plangan va mudofaadagilar bilan hujumdagilar son jihatdan teng bo'lgan sharoitda hujumchilar himoyachilarning doimiy nazoratida bo'lganligi uchun ular da keskin manyovr qilishga kerakli keng joy yo'qligini 1+4+2+4 tizimining kamchiliklaridan deb hisoblash kerak. Shuning bilan birga mudofaa vaqtida bitta qatorda turadigan ikki o'yinchi nazoratidagi markaziy zona, qo'riqlash (straxovka) uyushtirish murakkabligi

sababli, etarlicha mustahkam bo'lmaydi.

O'yinchilarni ularning har biriga yuklama teng tushadigan qilib joylashtirishni izlash yangi 1+4+3+3 tizimi i paydo bo'lish sabablaridan biridir. Bundan tashqari, o'rta qatorni mustahkamlash maydon o'rtasini tuzukroq nazorat qilish imkonini berardi.

1+4+2+4 tizimida o'ynashga nisbatan 1+4+3+3 tizimida o'ynashning taktik mazmunidagi asosiy farq jamoa hujum va mudofaa harakatlarining tezkor (operativ) masofasi anchagina uzayganligi deb hisoblash mumkin. Hujum bilan yarim himoya aralashib ketdi, ya'ni hujumchilar bilan yarim himoyachilarning harakat zonalarini aniq chegaralanmay qoldi. Bu esa hujumchilarning bir qismi mudofaaga o'tishi va yarim himoyachilarning hujumdagi faolligi oshishi hisobiga mumkin bo'ldi.

Mudofaada aralash uslubga alohida e'tibor berilishi esa qanot himoyachilariga zonada bemalol harakat qilish, eng yaqindagi sherigini qo'riqlash (straxovka qilish), maydon o'rtasi bilan aloqa o'rnatishga chiqish, shuningdek hujumga qo'shilish imkonini beradi.

Markaziy himoyachilar joylashuv ko'rinishini o'zgartirib, «zinapoya» bo'lib joylashadilar, ya'ni ulardan biri oldinroqqa chiqib, ikkinchisi ilgari joyida «erkin himoyachi» bo'lib qoladi. Oldingi himoyachi markaziy hujumchiga ko'p e'tibor beradi, uning harakatlanishini kuzatib boradi va u bilan yakkama-yakka kurashga kirishadi. Orqadagi himoyachi esa sheriklarini qo'riqlashni ta'minlaydi va mudofaa markazidagi muhim joyda o'ynaydi. Bu o'yinchilar yuzaga kelgan sharoitga qarab o'yin davomida o'rin almashib turadilar.

O'rta qator o'yinchilari hujum va mudofaa harakatlarida faol qatnashishdan tashqari hujumchilarga raqiblar mudofaasini yorib o'tish uchun imkoniyat yaratib beradilar. Bunda dispetcher, ya'ni kombinatsiyani boshlovchi futbolchining o'rni alohidadir.

Hujum qatoridagi uch o'yinchi to'rtta himoyachi nazoratida bo'ladi. Demak, jabha bo'ylab ular orasi ancha cho'zilib, bir-biriga bog'liqlik ancha bo'shashadi. Biroq, hujumchilar hujumda sinq chiziq tamoiliga rioya qilib, yon hamda maydon

uzunasi bo‘ylab manyovr qilib, himoyachilardan qutulish yo‘llarini topibgina qolmay, balki hujum uzoq masofa bo‘ylab davom etishini hamda zvenolarda bog‘liqlik bo‘lishini ta’minlab beradilar.

1+4+3+3 tizimidagi jamoa harakatlar uchun keng ko‘lamli manyovrlar, maydon o‘rtasidan o‘tishda uzoq masofaga to‘p uzatib berishlar va bir-ikki tegishdayoq to‘p uzatiladigan taktik kombinatsiyalardan foydalanib o‘tkaziladigan tez hujumlar xarakterlidir.

Futbol taktikasi rivojlanishining davom etishi 1+4+4+2 tizimi paydo bo‘lishiga olib keldi. Buning xususiyati shundaki, unda o‘rta qator to‘rt kishidan iborat bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘rta qator bilan himoya qatori o‘yinchilari o‘rtasida yuklama bir tekisroq taqsimlangan bo‘ladi.

O‘rta qatorni mustahkamlaganda maydon o‘rtasida o‘yinchilar ko‘payib ketadi. Mudofaada zonada o‘ynash mumkin bo‘lib, himoyachilarning harakatlari tezkorroq, manyovrchanroq bo‘lib qoladi. Raqiblar oldingi qatordagi ikki-uch o‘yinchining har qanday harakatlanishi hamma vaqt o‘rta himoyachining nazoratida bo‘lishi shunday qilishga yo‘l qo‘yib beradi.

Bu tizimda «sof» forvardlar ikkitagina bo‘lib qolganiga qaramay, hujumda faol ishtirok etuvchi futbolchilar besh-oltitaga etadi. Ular maydonning turli nuqtasidan hujum qilaveradilar. O‘yinchilar yakka emas, balki jamoa tarzda ham harakat qila oladilar, bunda jamoa manyovrlari raqib uchun kutilmagan bo‘lib qolaveradi va o‘yin taktikasini o‘zgartirib turish imkonini beradi.

Mudofaa qatori son jihatdan o‘zgarmagan bo‘lsa ham taktik rejada olg‘a tomon bir qadam tashlandi. Himoyachilar o‘zlarining odatdagi mudofaa harakatlaridan tashqari, goho-goho emas, balki butun o‘yin davomida jamoaning hujumkorlik ishlarida qatnashadilar.

Mudofaada o‘ynaganda jamoa ko‘pincha zona uslubiga rioya qiladi.

O‘rta qator jamoaning negizi hisoblanadi. Maydon o‘rtasida qudratli to‘siq hosil qilish maqsadida bir guruh o‘yinchilar shu erga yig‘iladi. Bufer o‘yinchilar soni hisobigagina emas, balki hujum va mudofaadagi vazifalariga qarab ham tuziladi. Uyushtiruvchilik vazifasi asosan o‘rta qator o‘yinchilarida bo‘ladi. Ular

odatda, maydonning har qanday nuqtasida ishonch bilan o'ynaydigan, universal futbolchilar bo'ladi. Ularning o'yini to'pni uzoq vaqt boshqarib turishga, ko'p yurishli kombinatsiyalarga, a'lo darajada hamkorlikka asoslangan bo'ladi. Ular hujumchi va himoyachilar bilan tez-tez almashib o'ynaydilar, kombinatsion imkoniyatlar izlab topadilar, aldab o'tish va qisqa masofaga to'p uzatib berishni bajonidil qo'llaydilar. O'rta qator o'yinchilari maydon o'rtasida hujumga tayyorlayotganda barcha yo'nalishlarda o'rtacha va qisqa masofalarga to'p uzatish vositasida hujumning rivojlanish yo'nalishini o'zgartiradilar. Ular raqib tomon mudofaasidagi zaif joylarni qidirib, kamroq tezlikda ko'p yurishli kombinatsiyalar qiladilar, keyin maksimal tezlikda kombinatsiya qilib, o'yinchilardan birini zarba berish joyiga chiqaradilar.

Hujum qatori qanotda ham, markazda ham o'ynay oladigan ikki o'yinchidan iborat bo'ladi. Ularning harakatlanishlari va manyovrlari sheriklari uchun o'ynaydigan kengroq joy va zarba berish joyiga oldindan o'rganib qo'yilganidek kutilmaganda chiqish uchun imkoniyat yaratib berishga qaratilgan bo'ladi. Eng ko'p yuklama hujumchilarga tushadi, chunki ular nihoyatda katta tezlikda o'ynaydilar va to'xtovsiz harakatda bo'ladilar.

3.7. Yakka tartibda guruh va jamoa bo'lib hujumda va himoyada harakat faoliyati.

Hujumchilar soni oz-ko'p bo'lgandagi hujum harakatlari. To'rt hujumchi bilan hujum qilish. To'rtta hujumchi bilan bo'ladigan hujumda qanotlardan foydalangan ma'qul. Tezkorlik xislatlari yuksak bo'lgan qanot xujumchilari yakka kurashda yoki eng yaqin turgan sherigi yordamda uni qo'riqlayotgan o'yinchini dog'da qoldirib, ilgarilab keta boshlaydi.

Bunda quyidagicha harakatlarni amalga oshirishi mumkin:

a) darvoza chizig'i yaqiniga chiqish va to'pni bosh qo'yib hujumni yakunlash uchun mumkin qadar uzoqdagi ustun yaqiniga tepalatib uzatish;

b) darvoza chizig'i yaqiniga chiqib, keyin sherigi zarba berishini yoki raqib oyog'idan rikoshet bo'lishini mo'ljallab to'pni darvozaning uzunasiga yoki sal orqaroqqa pastdan g'izillatib berish;

v) qanot hujumchisining darvoza ro'parasida zarba berish joyiga chiqishi, ya'ni «burchak kesib» chiqishi.

Markaziy hujumchilarning asosiy vazifalari - markazdan yorib o'tishni uyushtirish. Darvozani zabt etishga qulay joyda bo'lganlari uchun ular aylanib o'tishlar va sherik bilan hamkorlik qilishlarni birga qo'shib olib borishdan keng foydalanib, dadil, keskin harakat qilishlari kerak. Bu ixtisosdagi o'ynichilar darvozbondan yoki shtangadan qaytgan to'plarni qayta urib kiritishga, darvozani mo'ljallab zarba berish uchun paydo bo'lib qolgan ozgina imkoniyatdan ham foydalanib qolishga hamma vaqt tayyor turadilar. Agar hujum markazdan bo'layotgan bo'lsa, unda markaziy hujumchilar sohta manyovrlardan va joy almashinishlardan foydalanib, o'zgaruvchan tezlikda o'yiab, zarba beradigan joyga ochilib chiqishga harakat qiladilar. Markaziy himoyachilardan birining orqasidan ochilib chiqish eng foydali ochilish hisoblanadi. O'rta qator o'yinchisini hujumga qo'shib kombinatsiya qilishda markaziy hujumchi soxta manyovr qilib, sherigi kirib keladigan zonadan markaziy himoyachini olib ketishi kerak.

O'rta qatorning o'yinchilari oldingi marralarga chiqishi mumkin, Bunda ulardan biri hujumda faol ishtirok etadi, ikkinchisi esa qanot himoyachilari bilan birgalikda hujumni quvvatlab sal orqaroqda harakat qiladi. Biroq o'rta qator o'yinchilari epizodik tarzda hujumning birinchi esheloniga qo'shilishlari kerak. O'rta qator o'yinchilarining hadeb ilgari ketaverishi to'rtta hujumchining harakatlarini qisib, ularni operativ o'yin joyidan mahrum qilib qo'yadi.

Qanot himoyachilari ham hujumga epizodik tarzda qo'shib turadilar. Mudofaadagilar to'p olganlaridan keyin javob hujumi vaqtida asosan shunday qilganlari ma'qul. Markaziy himoyachilar esa kamdan-kam hujumga tashlanadilar, chunki maydon markazida raqiblarning hamkorlik qilayotgan o'yinchilari borligini, buning oqibatida o'z darvozalari xavfda qolishi mumkinligini hamma vaqt yodda tutadilar.

Agar raqiblar faqat zona himoyasi tizimini qo'llasalar unda hujumchilar harakatiga quyidagilar xos bo'ladi:

a) o'rta qator o'yinchilari va qanot himoyachilari hujumga qo'shib, jamoa

manyovr qilish hisobiga hujumning ayrim joyida son jihatdan ortig'lik hosil qilish;

b) darvoza oldidagi ma'lum zonada raqiblardan birini yakka kurashda shaxsan yutib chiqib, keyin qo'shni zonada son jihatdan ortig'lik hosil qilish yoki hujumni zarba berib tugatish.

Agar raqiblar aralash himoya tizimi qo'llab, asosiy o'yinchilarni juda yaqindan qo'riqlasalar, unda hujum qilayotganlar quyidagi harakatlarni bajarishlari kerak:

a) himoyachilarni tarqatib yuborish va ayni vaqtda qanot hujumchisi bilan ikki kishilik kombinatsiyalar uchun yaxshi imkoniyat yaratish maqsadida bog'lovchirlik vazifasini sheriklaridan biriga o'tkazib, bog'lovchining o'zini shaxsiy qo'riqchisi bilan birga qanotga o'tkazib yuborish;

b) maydonning eni bo'ylab va qisman maydon ichkarisida faol manyovr qilish.

Uchta hujumchi bilan hujum qilish. Uchta o'yinchisini oldinga chiqarib hujum qiladigan jamoalar, odatda ikkita qanot hujumchisi va bitta markaziy hujumchi bilai, ahyon-ahyonda esa ikkita markaziy hujumchi va bitta qanot hujumchisi bilan o'ynaydilar.

Bundagi hujum uyushtirishning quyidagi holatlari yuqorida bayon etilganlardan farq qiladi:

a) hujumning biriichi esheloniga maydon o'rtasidagi uch o'yinchidan ikkitasi faol qo'shiladi (ko'pincha bu orqaroqda o'ynaydigan yarim hujumchi va boglovchi bo'ladi);

b) yarim himoyachi hujumga muntazam tarzda qo'shib turadigan qanot himoyachilari bilan birgalikda hujumni ikkinchi eshelonini hosil qiladi;

v) ikkita markaziy himoyachilardan biri epizodik tarzda hujumga qo'shib turadi (odatda bu katta tezlikda bajariladi va raqib darvozasiga aniq xavf solinadi).

Hujumga qo'shiladigan o'yinchilarning hammasi hujumchining harakatlarini mohirona bajara olishi, ya'ni har tamonlama tayyorgarlik ko'rgan, o'yinchilar anchagina bo'lishi hujum chinakam zo'r bo'lishini ta'minlash uchun zaruriy shart

hisoblanadi.

Zonalariga hujum ikkinchi eshelonidagi sheriklaridan birontasi kirib kelishi mumkin bo'lgani uchun ham qanot hujumchilari maydonning eni bo'ylab tez-tez manyovr qilib turadilar. Bularning hamasi hujumchilarga hujum yo'nalishini uzluksiz o'zgartirish, kuchlarni qayta guruhlab turish imkonini beradi. Ana shuning uchun ham hozirgi zamon futbolida uchta «sof» hujumchisi bor hujum uyushtirish juda keng tarqalgan.

Agar jamoa ikkita markaziy hujumchi bilan o'ynayotgan bo'lsa, unda qanotlardan biri bo'shab qoladi. Undan qanot himoyachisini yoki o'rta qator o'yinchilaridan birini hujumga qo'shish uchun foydalangan ma'qul.

Ikkita hujumchi bilan hujum qilish. Ikkita hujumchi bilan hujum qilish oldingilaridan anchagina farq qiladi. Bu xil hujumni uyushtirishda kamida ikkita yarim hujumchining va bog'lovchining qatnashishi shart. Yaxshi tayyorgarlik ko'rgan ana shunday ixtisosdagi o'yinchilar bo'lmasa, ikkita hujumchili sxema ochiqdan-ochiq mudofaa sxemasi bo'lib qoladi, oqibatda o'yin davomida tashabbusni qo'lga olishni qiyinlashtirib qo'yadi.

Bu sxemadagi asosiy taktik variantlardan biri sheriklardan birining (qanot himoyachisining, o'rta o'yinchisining) hujumga faol qo'shilishi uchun biron qanotni sun'iy bo'shatib qo'yishdir. O'rta qatordagi to'rt o'yinchining deyarli har biri hujumchi vazifasini zimmasiga ola biladi. Bu yakka tarzdagina emas, balki ikki, uch kishi bo'lib improvizatsiya qilish imkonini yaratib, maydonning turli joyi va nuqtalaridan muvaffaqiyatli hujum qilishga yordam beradi.

Hujumchilar hujumni tayyorlashda maydonning eni bo'ylab ko'p manyovr qiladilar. Ular tez hujum paytida o'yinni keskinlashtiradigan qilib uzatilgan to'pni olib, zarba joyiga chiqish imkonini yaratadilar yoki o'ziga xos «ochiqlik»lar sheriklar kelib qo'shilishi uchun bo'sh zonalar hosil qiladilar. Bu «ochiqlik»larga o'rta qator o'yinchilari, qanot himoyachilari va hatto markaziy himoyachilar uzliksiz yorib kirib turadilar. Bularning hammasi orqadagi ahvoldan xavfsiramaydigan va ko'p yurishli kombinatsiyalarda hamkorlik qiladigan 5-6 faol o'yinchi hujumga qo'shilib, tadrijiy hujum qilishiga qulaylik yaratadi.

Hujumda o'rtta qator o'yinchilariga juda muhim o'rin ajratilgan. Ular hujum harakatlarini uyushtiribgina qolmay, balki ko'pincha hujumni yakunlaydilar ham. Vazifasi hujumda muntazam ravishda va o'ylab ishtirok etishdan iborat qanot himoyachilari ham ko'tarinki faollik bilan harakat qiladilar. Ular yo qanot hujumchilari singari harakat qilib, qanotdan o'tib boradilar, yoki ikkinchi eshelonda harakat qilib, sheriklarini quvvatlab turadilar.

Markaziy himoyachilarning hujum harakatlaridagi vazifasi ham ortib, ular raqiblar mudofaa qatoriga tez-tez yorib kiraveradigan hamda nisbatan «nazoratsizliklari»dan foydalanib, zarba berish joyiga tez-tez chiqadigan bo'lib qoladilar. Shunday paytlarda ular darvozani zabt etishga urinib ko'radilar yoki mudofaadagi o'yinchilarni chalg'itib, sheriklarining harakati uchun qulay sharoit yaratib beradilar.

Javob hujumi uyushtirish. O'yin vaqtida to'pni qo'lga kiritgandan keyin darvozabon uni qo'li bilan uzatib, javob hujumi harakatlari boshlab beradi yoki oyoq bilan tepib uzatadi. Bunda qo'l bilan tashlangan to'p sherikka juda aniq yo'naltirilsa ham, qisqa masofaga etib borishini (to'g'ri, to'pni qo'l bilan 30-40 m ga etkazib beradigan darvozabonlar ham bor), tepilganda esa masofa uzaysada, etkazib berish aniqligi kamayib ketishini hisobga olish kerak.

Darvozabon javob hujumi boshlanayotganda muayyan taktik vazifani hal qiladi, chunki bu vaqtda uning sheriklari jamoa harakatlarining taktik rejani amalga oshirish uchun eng qulay joyga chiqish niyatida manyovrlar qilishayotgan bo'ladi. Bu vazifaning to'g'ri hal etilishi jamoaga tashabbusni qo'lda saqlash, o'zi uchun qulay o'yin sharoitida o'ynashga raqibni majbur qilish imkonini beradi. Darvozabon javob hujumini uyushtirayotganda undan nima talab qilinishini yaxshi bilishi kerak. Agar jamoa qanot hujumchilarining tezkor harakatlaridan bot-bot foydalanayotgan bo'lsa, to'pni qanotdagi uzoq joyga uzatib bergan ma'qul,

To'pni o'yinga kiritish usulini tanlash yoki javob hujumini boshlashda darvozabon uchun quyidagilar:

- darvozadan tepish yoki darvozabon boshlaydigan javob hujumida jamoa harakatlarini uyushtirish rejasi;

- o'yindagi vaziyat va sheriklardan har biri joyini qanchalar tez baholay bilishi;

- o'z hujumchilarining «neytral to'p» uchun raqiblarga qarshi, ayniqsa havoda yakkama-yakka kurashi natijalari qandayligi (agar himoyachilar osongina yutib chiqishayotgan bo'lsa, to'pni tepalatib maydon markaziga tepib bergan va aksincha, raqib to'pni yo'lda tutib qolishga intilib o'ynayotgan bo'lsa, unda to'pni uzoq joyga, himoyachilar orqasiga uzatib berishdan foydalanish mumkin va hokazo);

- o'z darvozasi xavfsizligini (ayniqsa qo'l bilan to'p uzatayotganda) maksimal saqlab qolish vazifasi asos bo'ladi.

Sheriklar faoliyatini boshqarish. Hozirgi vaqtda butun jamoaning hujum qilishini va ayniqsa mudofaasini uyushtirishni boshqarmaydigan darvozabonni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Darvozabon o'yin vaziyatini tezgina baholab, hujumning qanday yo'nalishi haqida, straxovka qilish uchun qanday joylashib olish to'g'risida sheriklariga qisqa va aniq ko'rsatma berishi shart. Bu ishni u to'pni e'tibordan chetda qoldirmay, hatto o'zi kurash olib borayotgan paytlarda ham qilishi kerak. Mudofaada ishonch bilan harakat qilish, mudofaaning muhim va mustahkam bo'lishi ko'p jihatdan darvozabon bilan himoyachilarning (birinchi galda markaziy himoyachilarning) bir-birlarini nihoyatda yaxshi tushunishlariga bog'liq. Bevosita darvoza yaqinida jarima yoki erkin to'p tepilayotganda, shuningdek, burchakdan tepish paytlarida «devor» yasashga darvozabonning bir o'zi boshchilik qiladi.

Darvozabonning taktik tayyorgarligini takomillashtirishda quyidagilar ko'zda tutilishi:

a) tanlanadigan harakatlarni belgilab olish aniq, vaqtida va tez bo'lishi;

b) darvozada, jarima maydonida mo'ljal ola bilishi;

v) yuksak mahorat bilan «o'yinni uqiy bilish», ya'ni mudofaa va hujumda o'yin sharoitini a'lo darajada tushunish asosida sheriklar bilan hamkorlik qila olishi kerak.

Hujum taktikasi. Hujum taktikasi deganda to'p ixtiyorida bo'lgan

jamoaning raqib darvozasini zabt etish uchun qiladigan harakatlarini uyushtirish tushuniladi. Hujum harakatlari tuzilishining xilma-xilligi, hujum rivoji sur'atining, asosiy yorib o'tish yo'nalishining o'zgartirilishi, nihoyat, yakkama-yakka kurash, texnik usullarning xilma-xil bo'lishi bularning hammasi hujumni barbod etishga intilayotgan himoyachilarni nihoyatda qiyin ahvolda qoldiradi.

Hujumdagi harakatlar yakka harakatlarga, guruh harakatlari va jamoa harakatlariga bo'linadi.

Yakka (individual) taktika - hujumdagi yakka taktika bu futbolchining muayyan maqsadni ko'zda tutgan harakatlari, uning mazkur o'yin vaziyatida bir qarorga kelish mumkin bo'lgan bir qancha imkoniyatlardan eng to'g'risini tanlay bilishi, futbolchining to'p o'z jamoasida bo'lganda raqibning diqqat-e'tiboridan chetga chiqa olishi, o'zi va sheriklari uchun o'ynaydigan bo'sh joy topishi hamda paydo qila bilishi, kerak bo'lib qolgan taqdirda esa himoyachi bilan kurashda g'olib chiqishiga asoslanadi.

To'psiz harakatlar - to'psiz harakatlar quyidagilardan: ochilish, raqibni chalg'itish va maydonning ayrim qismida o'yinchilarni son jihatdan ortiqligini yaratishdan iboratdir.

Ochilish - bu futbolchining sheriklaridan to'p olish uchun sharoit qulay bo'ladigan joyga o'tishi. «Ochilish» taktik harakati uchun hujumchi u yoki bu vaziyatning qanchalar qulayligini juda yaxshi baholay oladigan bo'lishi kerak. Eng qulay joyga vaqtida chiqib olish hujumchi va unga qarshi o'ynayotgan himoyachining tezkorlik xislatlariga, sheriklarning harakatiga va boshqa omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Muvaffaqiyat ko'p jihatdan hujumchining to'p qabul qiladigan joyga qanchalar tez chiqib olishiga va to'p olgandan keyin qanday harakat qilishiga bog'liq.

Hujumchilar asosan maydon bo'ylab manyovr qilib, to'psiz harakatlanib yuradilar. Manyovr qilish - bu futbolchining ochilib chiqishga va raqibni chalg'itishga qaratilgan ko'p martalab joy almashtirishi. Hamma harakatlarning natijasi, o'yinning qanday tugashi, o'yinchilar qanchalar to'g'ri joy tanlashiga, bog'liq.

Qanotda o'ynaydigan hujumchining qanday ochilgani ma'qulroq ekan. 3-o'yinchi to'pni qanotga uzatib bermoqchi uning sherigida ochilishning ikkita varianti bor:

a) to'pning himoyachi orqasiga, uzoqdagi bo'sh joyga uzatilishi uchun qulay sharoit yaratib, himoyachi bilan qariyb bir chiziqda chiqish (bu variant hujumchi himoyachiga nisbatan tez yugura olsagina ish beradi);

b) o'zi bilan himoyachi orasidagi masofani uzoqlashtirib hamda shundoqqina oyog'iga uzatib berishlari yoki «chala» uzatishlari uchun sharoit yaratib, o'z darvozasi tomon harakatlana boshlash.

Sheriklaridan hech biri markazdan hujum qilmayotgan bo'lsa, qanot hujumchisi raqib darvozasiga bevosita xavf solish uchun eng qulay joyga chiqib, butun maydon kengligi bo'ylab ochilishi mumkin. Hamma hollarda ham futbolchi joy tanlashda quyidagilarga amal qilishi kerak:

1.Ochilish raqib uchun kutilmaganda va katta tezlikda ijro etilishi kerak. Bu himoyachidan uzoqlashib, to'p olish uchun ma'lum darajada ortiqcha vaqt yutish imkonini beradi.

2.Ochilish hali to'p tegmagan sheriklar harakatini qiyinlashtirib qo'ymasligi lozim.

3.To'p tekkan o'yinchiga ortiqcha yaqinlashib borish tavsiya etilmaydi bu hujum rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadi.

4.«O'yindan chiqib qolmaslik» uchun juda ehtiyot bo'lish zarur.

Raqibni chalg'itish - bu sheriklariga yakka harakat uchun qulay sharoit yaratib berish maqsadida futbolchining harakatlanishi. Qo'riqchisini ergashtirib ketish maqsadida ma'lum zonaga soxta harakatlana borib, yo to'pi bor o'yinchining yoki darvozaga bevosita xavf solish uchun qulay joyda turgan sherigining bema'lol harakat qilishini ta'minlab berish yaxshi manyovr hisoblanadi.

Hujumchi o'yinchilarning qanot himoyachilari hujum qilishi uchun bo'sh zona hosil qiladigan chalg'itish harakatlari muhimdir. To'p 8-o'yinchida, 9-va 7-hujumchilar chap tomonga harakatlanib, qo'riqchilarini ergashtirib ketadilar, 2-qanot . himoyachi hujumga bema'lol qo'shilishi uchun zonani ochiq qoldiradilar.

Bu paytda maydonning darvozani zabt etish eng qulay qismiga to'p uzatish uchun juda yaxshi imkoniyat yuzaga keladi.

Hujumchi o'yinchilarning ikkinchi eshelondan hujum qiluvchi 8-o'yinchiga qulay sharoit yaratadigan chalg'itish harakatlari ko'rsatilgan. 9-va 4-o'yinchilar oldinlab yon tomonga keskin yugurib, himoyachilarni ergashtirib ketadilar, 8-o'yinchiga yanada ilgarilab borish va darvozaga qarata zarba berishi uchun yaxshi sharoit yaratib beradilar. Agarda himoyachilar yugurib ketganlar ortidan bormasa, unda to'pni ochilgan sheriklarga uzatib yuborish mumkin.

Chalg'itish harakatlari qilganda quyidagilar yodda turishi kerak:

1. Harakatlanishlar «rostakam» bo'lishi, ya'ni chinakam xavf solib, himoyachilarni harakatlanayotganlar ortidan quvishga majbur etadigan bo'lishi zarur.

2. Harakatlanishlar maksimal tezlikda bo'lmasligi kerak, chunki raqib uning harakatlarini sezmay qolib, quvishni boshlamasligi mumkin (tez harakatlanish chalg'itish bo'lmay balki yuqorida aytilganidek ochilish bo'ladi).

3. Chalg'itish harakatlarining bir qancha variantlarini bilgani ma'qul, shundagina himoyachilar faoliyati nihoyatda qiyinlashib qoladi. Maydonning ayrim qismida o'yinchilarni son jihatdan ortiqligini hosil qilinadi. Hujumchi o'yinchilar maydonning biron qismida himoyachilar bilan yakkama-yakka kurashni uddalay olmayotgan bo'lsa, o'yinchilardan biri to'pi bor hujumchi o'ynab turgan zonaga o'tgani ma'qul. Shunda maydonning ma'lum qismida miqdor ortiqligi hosil qilinib, bundan raqibni yutib chiqish uchun foydalansa bo'ladi.

Son jihatdan ortiqlikka manyovr qilish bilan, shuningdek yakkama-yakka kurashda raqibni yutib chiqish bilan hamda kombinatsiya yordamida erishiladi. Bu taktik yo'l ko'pincha hujumga anchagina o'yinchilar qo'shiladigan tadrijiy hujum paytida ishlatiladi.

6-o'yinchining to'pni boshqarib turgan 7- o'yinchi tomonga o'tib, son jihatdan ortiqlik hosil qilishi ko'rinib turibdi. Bordi-yu 10-yarim himoyachi 6-yarim himoyachini ta'qib qilib bormasa, unda 6- o'yinchida faol yakka harakat qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Maydonning ayrim qismida ko'p martalab ochilib chiqib turish, chalg'itishlar va son jihatdan ortiqlikni hosil qilishni birin-ketin takrorlayverish muvaffaqiyatli ta'minlab boradi. To'pni boshqarayotgan jamoaning o'yinchilari qanchalik faol manyovr qilsalar, hujumni rivojlantirishda turli kombinatsiya variantlaridan shunchalik ko'p foydalanish mumkin va aynan bir hujumni muvaffaqiyatli tugashi aniqroq bo'ladi. Ayrim o'yinchining ham, umuman jamoaning ham taktik jihatdan qanchalar savodli ekanini manyovr qilishiga qarab aytsa bo'ladi.

Tez hujumga qarshi himoya. Agar raqib tomondan hujumga o'tayotganda taktik vosita sifatida markaz bo'ylab yoki qanot bo'ylab to'p uzatib berishdan foydalanib, asosan tez hujumga zo'r beradigan bo'lsa, himoyalananayotgan jamoa o'yinchilari mudofaaning birinchi bosqichida to'p boshqarayotgan raqibga faol hujum qilib, bunda quyidagilarga intilishlari kerak:

- hujumning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz chiqishini belgilaydigan birinchi uzatishga to'sqinlik qilish;

- raqibni xato qilishga, eng yaqin turgan sheriklariga keraksiz uzatishlar qilishga majbur etash;

- xar kim o'zi qo'riqlayotgan o'yinchisini juda yaqindan to'sib oladi, chunki to'pi bor o'yinchi oldi to'siq sherigiga to'p uzatmaydi, uzoq joydagi o'yinchiga to'p uzatishga urinish esa himoyachillarning to'p uchun kurashini osonlashtiradi.

Raqib faol harakat (manyovr) qilayotgandagi mudofaaning ikkinchi bosqichi qattiq shahsiy (personal) qo'riqlashni yoki (zona tizimidagi mudofaada) ayrim zonalarda paydo bo'lib turgan raqiblarni sinchiklab kuzatib, ularning hujumni rivoj toptirishga urinishlarini barbod qilishni nazarda tutadi.

Agar raqiblar maydon bo'ylab o'yinayotgan bo'lsa, himoya qatori o'yinchilari markaziy zonani mustaxkamlash va hujum qilish burchaklarini kichraytirish uchun jarima maydoniga zichroq to'planib oladilar. Agarda qanot bo'lib hujum qilinayotgan bo'lsa, unda himoya qatori o'yinchilari xujum yo'nalishi tomonga yaqinlasha borib, ishonchliroq qo'riqlash maqsadida qarshi tomondan qanotni ko'pincha kimsasiz qoldiradilar. Birinchi xolatda, yani raqiblar markazdan hujum qilayotganda, qo'riqlash orqaga qaragan burchak shaklida bo'lib, bunda orqa

markaziy himoyachi bosh rol o'ynaydi, ikkinchi xolda esa o'yinchi bilan faol kurashdan ozod darvoza tomonga yaqin diagonal bo'ylab orqada turgan qanot himoyachisi xam qo'riqlash uchun ortdagi markaziy himoyachi bab-baravar javobgar bo'ladi.

Mudofaaning uchinchi bosqichida to'p va o'yin joyi uchun bevosita kurash nazarda tutiladi.

Tez hujumga qarshi himoya variantlaridan biri kuyidagicha bo'ladi.

3-ortki markaziy himoyachi ochilib chiqqan 9-o'yinchiga yo'naltirilgan to'pni olib qolgan 3-himoyachi to'pni olib qo'yganiga qaramay, 9-o'yinchi 7-o'yinchining va qisman 6-o'yinchining yordamida to'p uchun kurashni davom ettiradi.

Tez hujumga qarshi himoyaga bo'lgan asosiy talablar:

1. To'pni yana qo'lga kiritish yoki raqibning uzoqqa birinchi to'p uzatishiga xalaqit berish uchun, albatta to'p uchun kurashga kirishish.

2. Raqiblarning tezkor manyovr qilishi oldini olish bilan bir vaqtda maydonning hal qiluvchi qismlarida o'yinchilar gruppalarini ko'paytirish hisobiga darvoza tomon o'tadigan hamma yo'llarni yopib qo'yish uchun ikkinchi va uchinchi bosqichlarda o'yinchilar aniq harakat qilishlari.

3. Uzoqdan to'p birinchi marta kimga uzatib berilsa, o'shani neytrallash.

Jamoa harakatlari. O'yinchilarning hujum qilayotgan raqiblarga qarshi uyushqoq taktik harakatlari mudofaada jamoa bo'lib o'ynash negizida yotadi. Bunday harakatlar hujumni muvaffaqiyatli qaytarish va mudofaa holatidan chiqib, hujumga o'tish imkonini beradi. Bu harakatlarning himoya qismi xavfli zonada tezlik bilan kuch to'plash tizimidan, himoya qatori o'yinchilarini qayta joylashtirish va bir-birini almashlashdan iborat bo'ladi. Ko'proq qanday vazifani hal etishga qaratilganligiga qarab himoyadagi jamoa harakatlarini personal himoya, aralash himoya va zona himoyasiga bo'lish mumkin.

Personal himoya - bu mudofaa qilayotgan har bir o'yinchi o'ziga topshirilgan raqib o'yinchisi uchun qat'iy javobgar qilib uyushtirilgan mudofaa. Bunda jamoaning har bir o'yinchisiga raqiblarning ma'lum bir o'yinchisini qattiq «tutib»,

uning harakat qilishini, sheriklari bilan hamkorlik qilishini qiyinlashtirish topshirib qo'yiladi.

O'yinchini qattiq «tutish»dan ko'zlangan maqsad raqibning o'yin harakatlarini boshlashiga yo'l qo'ymaslik, uning boshlab ulgurgan o'yinini buzishdan ko'ra oson ekanligidir.

Buning uchun hujumchi bilan oraliq masofani shunday saqlash kerakki, toki unga yo'naltirilgan to'pni olib qolish, yoki hujumchi bilan birga harakatlana borish yoxud to'pni qabul qilish paytida unga hujum qilish mumkin bo'lsin.

Biroq, ko'pincha shunday bo'ladi, unda qat'iyan personal himoyaga qarshi hujum to'g'ri uyushtirilsa, hujum qilayotgan tomon manyovrlar yordamida o'ziga kerakli zonani bo'shatib olish yoki qo'riqlovchilarini ular uchun o'rganish bo'lmagan, qolaversa o'zlariga xos vazifalarini bajara olmaydigan joylarga olib ketish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunda himoyachilarning o'zaro hamkorligi, qo'riqlash imkoniyati buziladi. Personal qo'riqlash o'yinchilardan o'yinni taktik jihatdan juda nozik tushunishni, tez harakat qilishni va o'xshash vazifalarni bajara bilishni talab qiladi.

Hozirgi futbolda himoyada personal o'ynash usuli sof ko'rinishda ishlatilmaydi, lekin himoyaning taktik vositalari xazinasida u hamon muhim rol o'ynab kelmoqda.

Zona himoyasi bu himoyada o'yin o'ynashning himoya qatori o'yinchilaridan har biri maydonning ma'lum joyini nazorat qilib, shu zona doirasida paydo bo'lgan har bir raqib o'yinchisi bilan to'p uchun kurashga kirishadigan taktik usulidir.

Zona himoyasida mudofaadagi o'yinchi darvozaga nisbatan paydo bo'lgan har bir xavf uchun o'zini javobgar his etishi kerak. Bundan tashqari zona himoyasida sheriklarning qo'riqlash tarzida bir-biriga yordam berishi ham bo'ladi.

Qo'riqlanayotgan o'yinchilarni bir-biriga «oshirish» bunday himoyadagi zarur element hisoblanadi. Bunday «oshirish» hujum boshlanishi oldidan yoki hujum endigina boshlangan vaqtdan amalga oshirilishi kerak. Hujumning yakunlovchi bosqichida o'yinchilarni bevosita o'z darvozasi yaqinida «oshirish» elementini bajarish tavsiya etilmaydi.

Himoyadagi o‘yin zona tizimining personal qo‘riqlashga nisbatan afzalligi shundaki, bunda maydonning hech bir qismi mudofaadagilarning nazoratidan chetda qolmaydi. Biroq bu tizim ham kamchilikdan xoli emas. Bunda hujumchilar nisbatan bemalol harakatlanib joylarini o‘zgartiradigan bo‘lib, bu ularga har qalay xalaqit bermasdan to‘p qabul qilish, son jihatdan ortiqlik hosil qilish va h. k. imkoniyatlarni yaratadi.

Aralash himoya hozirgi futbolda himoyada o‘ynashning eng ko‘p tarqalgan va eng oqilona taktikasi hisoblanadi. Bunda personal himoya bilan zona himoyasining printsiplari uzviy qo‘shilgan bo‘ladi: ba’zi bir o‘yinchilar topshiriqqa binoan faqat o‘ziga topshirilgan raqib o‘yinchisini qo‘riqlab yursalar, boshqa birlari ko‘proq zonada o‘ynaydilar.

Shuningdek, bitta o‘yinchi ham bu ikkala uslubni birga qo‘shib qo‘llanishi mumkin. Shunday qila bilish himoyada o‘ynash uslublarini ko‘paytirib, jamoaning mudofaa harakatlari xazinasini boyitadi va bu harakatlarni kuchaytiradi.

Tayanch tushunchalar.

Xujum taktikasi, zarba berish, mo‘ljallash, to‘p uzatish, jamoa taktikasi, tez xujum, ximoya taktikasi, to‘pni olib qo‘yish, gurux taktikasi, qarshi xujum, manyovr, tadrijiy xujum, o‘yindan tashqari xolat, joy, shahsiy, xujumchi, universal, uchrashuv, javob xujum, yakka, guruh, jamoa, ochilish, chalgitish, kombinatsiya, devor, taktik tizimlar, dispetcher.

Nazorat uchun savollar

1. Texnika deganda nimani tushunasiz?
2. Taktika deganda nimani tushunasiz?
3. Darvozabonning qanday texnik va taktik tayyorgarlik turlari mavjud?
4. Ximoyachilarning vazifalari qanday?
5. Xujumchilarning vazifalari qanday?
6. Texnik malakalarni qanday usullar bilan oshirish mumkin?
7. Taktik tayyorgarlik nima?
8. Chaqqonlik malakalarini oshirish usullari?

9.O'yin asosini nima egallab turadi?

10.Maydonni ximoyalana yotgan qismida joy tanlashning nechta usuli mavjud?

Foydalangan adabiyotlar

1.Iseyev Sh.T. Futbolchilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish. // O'quv qo'llanma. – Toshkent. ITA-PRESS, 2014. – 460 b.

2.Isroilov Sh.X., Nurimov Z.R., Abidov Sh.U., Davletmuratov S.R., Karimov A.A. Sport va harakatli o'yinlar (Futbol). – Toshkent. "Sano-standart", 2017. – 320 b.

3.Qurbonov O.A. Futbol. – Toshkent. 2012.

4.Мирзамахмудов Ш. Футбол ўйини техникаси ва тактикаси. – Toshkent. "Фан", 2006. – 137 б.

5.Нуримов Р.И. Футбол. Дарслик. – Toshkent. 2005.

6.Nurimov R.I., Abidov Sh.U., Nurimov Z.R., Davletmuratov S. R. Sport va milliy o'yinlar (Futbol). – Toshkent. ITA-PRESS, 2017. – 180 b.

7.Холмирзаев Э. Спорт ўйинлари ва ўқитиш методикаси. – Toshkent. DIZAYN-PRESS, 2011. – 244 б.

8.Usmanxodjayev T.S. Sport pedagogik mahoratini oshirish. – Toshkent. Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018. – 272 b.

9.Футбол. Дарслик. Р.А. Акрамовнинг умумий тахрири остида. – Toshkent. ЎзДЖТИ, 2006. – 438 б.

10.Yusupov N.M., Shermuhamedov A.T., Artiqov A.A., Bektorov O.Yo. Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol). // O'quv qo'llanma. – Toshkent. Iqtisod-Moliya, 2015. – 152 b.

Umumiy savollar

1. Futbol o'yini qaysi davlatda paydo bo'lgan?
2. Futbol o'yinini paydo bo'lish tarixi haqida?
3. O'zbekistonda futbol o'yini nechanchi yildan o'ynala boshlangan?
4. Rossiyaga futbol o'yini nechanchi yillarda kirib borgan?
5. Birinchi jahon chempionati nechanchi yildan o'tkazila boshlangan?
6. Futbol Olimpiyada o'yinlarifa nechanchi yildan boshlab kiritilgan?
7. Musobaqa o'tkazish qoidalari?
8. Qur'a tashlash usullari qanday?
9. Olimpiya usuli qanday usul?
10. Aylanma usul qanday usul?
11. 10 ta jamoa o'rtasida chiqib ketish usuli?
12. Texnika deganda nimani tushunasiz?
13. Taktika deganda nimani tushunasiz?
14. Darvozabonning qanday texnik va taktik tayyorgarlik turlari mavjud?
15. Ximoyachilarning vazifalari qanday?
16. Xujumchilarning vazifalari qanday?
17. Texnik malakalarni qanday usullar bilan oshirish mumkin?
18. Taktik tayyorgarlik nima?
19. Chaqqonlik malakalarini oshirish usullari?
20. O'yin asosini nima egallab turadi?
22. Maydonni ximoya qismida joy tanlashning nechta usuli mavjud?
23. Xujum va ximoya taktikasi deganda nima tushuniladi?
24. To'p bilan bajariladigan qanday xarakteristik harakatlar bor?
25. To'p bor o'yinchiga qarshi qanday xarakteristik harakatlar qo'llaniladi?
26. Tez xujumga qarshi qanday ximoyalash mumkin?
27. Futbolda qanday taktik tizim (sistema) lar mavjud?
28. Hozirgi futboldagi taktik o'zgarishlar qanday?
29. Futbol o'yinida straxovka qilish usuli qanday usul?
30. Mudofadagi o'yinchilarning asosiy vazifalari nimada?

31. Javob xujum uyushtirish qanday tashkil qilinadi?
32. Sheriklar faolyatini boshqarishda qanday usullardan foydalaniladi?
33. Xujum taktikasi nima?
34. Tez hujumga qarshi himoyalash usuli qanday usul?
35. Jamoa harakatlarini tushuntirib bering?
36. Xujum va ximoya taktikasi deganda nima tushuniladi?
37. To'p bilan bajariladigan qanday xarakteristik harakatlar bor?
38. To'pni bor o'yinchiga qarshi, qanday harakatlar qo'llaniladi?
39. Tez xujumga qarshi qanday ximoyalash mumkin?
40. Ximoyalashning qanday qismlari mavjud?
41. Xujum tashkil qilishning usullari qanday?
42. Mudofada o'yinining asosiy printsiplari qanday?
43. Tadrijiy xujumni tashkil qilish usullari?
44. Futboldagi taktik tizimlar va ularning ahamiyati?
45. Hozirgi futboldagi taktik o'zgarishlar qanday?
46. Futbol o'yinida qo'riqlash usuli qanday usul?
47. Mudofadagi o'yinchilarning asosiy vazifalari nimada?
48. Javob xujum uyushtirish qanday tashkil qilinadi?
49. Sheriklar faolyatini boshqarishda qanday usullardan foydalanish mumkin?
50. Tez hujumga qarshi himoyalash qanday usullardan iborat?

TEST SAVOLLARI.

Futbol o‘yining vatani qayer.

Braziliya

Angliya

Italiya

Argentina

Futbol o‘yini nechanchi yilda qashf etilgan.

1881 yilda

1912 yilda

1777 yilda

1863 yilda

Futbol o‘yinida eng qa‘tiy jazolardan biri 11 metrlik jarima zarbasi nechanchi yilda o‘yin qoidasiga kiritildi.

1891 yilda

1886 yilda

1905 yilda

1940 yilda

Futbol maydonida xakam nechanchi yilda paydo bo‘lgan.

1868 yilda

1880 yilda

1878 yilda

1895 yilda

Futbol o‘yiniga xushtaq nechanchi yilda kiritildi.

1890 yilda

1878 yilda

1900 yilda

1909 yilda

Nechanchi yili Xalqaro Futbol Uyushmasi - FIFA tashkil etildi.

1882 y 10 mayda

1863 y 26 oktabrda

1878 y 10 fevralda

1904 y 21 mayda

Evropa futbol ittifoqi – UEFA nechanchi yili tashkil topgan.

1920 yilda

1930 yilda

1954 yilda

1955 yilda

Futbol rasmiy jixatdan Olimpiya o‘yinlariga nechanchi yildan boshlab kiritildi.

1908 yildan

1925 yildan

1910 yildan

1912 yildan

Osiyo Futbol Konfederatsiyasi (OFK) nechanchi yilda tuzilgan.

1957 yilda

1954 yilda

1955 yilda

1956 yilda

O‘zbekistonga futbol nechanchi yilda kirib kelgan.

1902 yilda

1912 yilda

1900 yilda

1829 yilda

Birinchi jaxon chempionati nechanchi yildan boshlab o'tkazila boshladi.

1940 yildan

1910 yildan

1924 yildan

1930 yildan

Futbol bo'yicha 1-chi jaxon chempionati qaysi mamlakatda bo'lgan.

Angliya

Urugvay

Germaniya

Ispaniya

Futbol maydonining o'lchami.

uzunligi 90-120m, eni 45-90m

uzunligi 80-100m, eni 40-75m

uzunligi 90-100m, eni 55-70m

uzunligi 75-105m, eni 80-90m

Maydonga chiziladigan chiziqning eni necha sm bo'ladi.

15 sm

10 sm

12 sm

18 sm

Darvozaning o'lchamlari qanday bo'ladi.

eni 7,32 sm, bo 'yi 2,44sm

eni 7,50 sm, bo 'yi 2,50sm

eni 8 m, bo 'yi 3 m

eni 5m, bo 'yi 2,5m

Futbol o‘yinida necha xakam bo‘ladi.

5 ta

6 ta

3 ta

4 ta

Futbol o‘yinida 1 ta jamoada nechta o‘yinchi o‘ynaydi.

10 ta

11 ta

7 ta

9 ta

Futbol maydonining chiziqlarining o‘lchami necha sm.

12 sm

10 sm

15 sm

25 sm

Burchakdagi bayroqning erdan balandligi qancha.

1 m

2 m

1,5 m

1,8 m

Maydon markazi aylanasining radiusi qancha.

10 m

9 m

9,15 m

11 m

Darvozabon maydonining o'lchami.

5,5-16,5 m

15-17 m

12-4 m

6-16,6 m

Futbol to'pining og'irligi qancha.

400-455 gr

350-400 gr

300-400 gr

493-453 gr

Futbol to'pining aylanasi necha sm bo'ladi.

70-75 sm

65-68 sm

68-71 sm

71-72 sm

Futbolda jamoalar nechta o'yinchi maydonda bo'lsagina o'yin o'tkazish mumkin.

9 ta

7 ta

11 ta

6 ta

Futbol musobaqasi talabnomasiga familiyasi va ismi yozilmagan futbolchi musobaqada qatnashadimi.

Xa

Yo 'q

FIFA qarori bilan

Murabbiy ruxsati bilan

To‘p maydondan chiqib ketmagan yoki o‘yinni xakam to‘xtatmagan bo‘lsa, unda o‘yinchi almashtirish mumkinmi.

Xa

Murabiy ruxsati bilan

Yo ‘q

Yon hakam ruxsati bilan

O‘yinda qaysi xollarda o‘yindan tashqari xolat deb xisoblaydilar.

Ximoyachidan keyinda tursa

Ximoyachi bilan teng tursa

Ximoyachidan oldinda tursa

To ‘gri javob yo ‘q

Darvozaning ustunlarini rangi qaysi rangda bo‘ladi.

Ko ‘k

Oq

Oq-ko ‘k

Yashil

To‘p darvoza yon chizigidan raqiblardan chiqib ketsa u xolda nima to‘p tepiladi.

Burchak to‘pi

Darvozabon jarima maydonidan erkin to ‘p tepib

Jarima to ‘pi o ‘yinga kirgiziladi

11-metrlik jarima to‘pi

Futbol o‘yini necha daqiqa davom etadi.

45 daqiqa

90 daqiqa

120 daqiqa

100 daqiqa

Futbol o‘yini necha bo‘lim bo‘ladi.

4 bo‘lim

3 bo‘lim

2 bo‘lim

1 bo‘lim

O‘yin boshlangan paytda qaysi nuqtadan o‘yinga kiritish mumkin.

Jarima nuqtadan

Yon chiziqdan

11-metrluk nuqtadan

Maydon markazidan

Xavoda kiritilgan to‘p darvozaga kiritilgan xisoblanadimi.

Xa

Yo‘q

Hakam qarori bilan

Nazoratchi hakamni qaroriga binoan

O‘zbek futbolchilari nechanchi yilda Osiyo o‘yinlarida 1-o‘rinni egallashdi.

2000 y

1998 y

1994 y

1996 y

20 asr futbol qiroli deb tan olingan futbolchi kim.

Maradona

Ruud Gullit

Marqo Van Bastin

Pele

O‘zbekiston futbol federatsiyasi nechanchi yilda FIFA va OFK ga a‘zo bo‘ldi.

1978 yilda

2000 yilda

1994 yilda

1998 yilda

O‘zbek futboli qaysi viloyatda paydo bo‘la boshlagan.

Toshkentda

Samarqandda

Buxoroda

Farg‘onada

Birinchi marta Evropa birinchiligi qaysi davlatda bo‘lib o‘tdi.

Germaniyada

Angliyada

Polshada

Frantsiyada

Birinchi Evropa chempioni bo‘lgan davlat.

Chexoslovakiya

Germaniya

Frantsiya

Rossiya

Birinchi Evropa chempionati nechanchi yilda bo‘lib o‘tgan.

1954 yilda

1930 yilda

1960 yilda

1962 yilda

Futbol o‘yini Olimpiada o‘yinlariga kiritilgandan so‘ng 1 marta birinchi o‘rinni egallagan davlat nomini ayting.

Shvedtsiya

Italiya

Angliya

Germaniya

Futbol o‘yini Olimpiada turniriga nechanchi yildan boshlab qatnasha boshlagan.

1940 y

1908 y

1900 y

1912 y

Olimpiada o‘yinlari qaysi davlatda bo‘lib o‘tgan paytda futbol sport turi Olimpiada o‘yinlariga kiritildi.

Shvetsiyada

Angliyada

Frantsiyada

Germaniyada

Futbolchilar qanday poyafzalda to‘p o‘ynaydilar.

Krasofkada

Etikda

Butsiyda

Poyafzalda

Futbolda xakamlarning ustidan nazorat qiladigan xakamga nima deb ataladi.

Yordamchi xakam

Bosh xakam

Yon xakam

Nazoratchi xakam

Futbol o‘yinida darvozabon bo‘lmasa o‘yin o‘tkazish mumkinmi.

Xa

Yo‘q

To‘gri javob yo‘q

Iqqalasi xam to‘gri

Qaysi xollarda xakam maydondan chetlashtirilgan o‘yinchini o‘rniga zaxiradan o‘yinchi kiritish mumkin.

Birinchi bo‘limdan so‘ng

O‘yin paytida qizil qartochqa olganda

Tanaffus paytida qizil qartochqa olgan paytda

O‘yin boshlanmsdan oldin

Futbol o‘yinida jaroxat olgan o‘yinchi futbol maydonidan chiqib ketishga xaqlimi.

Xa

Yo‘q

Ikkalasi xam to‘gri

Hakamni ruxsati bilan

Zaxiradagi o‘yinchi qachon maydonga tushishi mumkin.

To‘p o‘yinda bo‘lganda

Darvozabon to‘pni ushlab olgan paytda

To‘p maydondan chiqqan paytda

Murabbiy ruxsati bilan

O‘yindan chetlashtirilgan o‘yinchi zaxiradagilar o‘tirgan futbolchilarni yonida o‘tirish mumkinmi.

Xa

Yo‘q

Mumkin

Tomoshabinlar yoniga chiqariladi

Futbol bo'yicha jaxon birinchiligini eng ko'p qo'lga qiritgan davlat qaysi.

Germaniya

Braziliya

Italiya

Frantsiya

Marokano stadioniga qancha odam sig'adi.

200.000

150.000

170.000

100.000

Xorazm futbol jamoasi "A" klassiga qachon a'zo bo'lgan.

1971 yil

1975 yil

1962 yil

1968 yil

Jaxonda eng katta stadion qaerda joylashgan.

Frantsiyada

Italiyada

Urugvayda

Braziliyada

Paxtakor futbol jamoasi qachon tashkil topgan.

1953 y

1965 y

1956 y

1970 y

Futbol bo'yicha jaxon birinchiligi necha yilda o'tkaziladi.

2 yilda

4 yilda

3 yilda

6 yilda

Sobiq Ittifoq davrida Paxtakor jamoasini oliy liga o'yinlarida eng yaxshi olgan o'rni.

6 o'rin

8 o'rin

5 o'rin

3 o'rin

Futbol bo'yicha XVIII jaxon birinchiligi qachon o'tkazilgan.

2002 yil

2008 yil

2006 yil

2012 yil

Futbol o'yinida burchak to'pi sektori o'lchami.

1 m

0,5 m

1,5 m

2 m

Futbol darvozasining to'siq va ustun diametrlari o'lchamlari.

12 sm

10 sm

8 sm

20 sm

Yordamchi yon xakamlarning anjomlari nima.

Xushtaq

Qogoz

Bayroq

Qalam

Burchakdan tepilgan to‘p to‘gri darvoza to‘riga tushsa gol xisoblanadimi.

Xa

Yo`q

Bosh hakam ko‘rsatmasiga binoan

Tomoshabinlarning ko‘rsatmasiga binoan

1937 yilda O‘zbekiston birinchiligida chempion bo‘lgan jamoaning nomi.

Spartak – Tashkent

Dinamo –Toshkent

Ximik – Chirchik

ODO – Toshkent

Birinchi jaxon chempionati qaysi davlatda bo‘lib o‘tdi.

Angliya

Urugvay

Germaniya

Daniya

O‘zbekistoning Paxtakor stadioni qancha tamoshabinga mo‘ljallangan.

50.000

60.000

65.000

80.000

Jamoalar kiyimlari bir xil rangda bo'lsa, qaysi jamoa kiyimini o'zgartirishga majbur.

Maydon egasi

Mexmon jamoa

Farqi yo'q

Kelishilgan holda

Futbolda ximoyachi o'zini darvozaboniga to'pni oshirib bersa qo'lga ushlashi mumkinmi.

Yo'q

Hakam ruxsati bilan

Xa

Mumkin

Yon chiziqlardan to'pni o'yinga qanday kiritish kerak.

Bitta qo'l bilan

Oyoq yordamida

Ikki qo'l bilan

Xammasi to'g'ri

Maydonda o'yinchi xakamdan qanday ogoxlantirish olsa maydonni tark etadi.

Sariq

Ko'k

Oq

Qizil

Futbol to'pi qanday maxsulotdan tayyorlanadi.

Charmdan

Oddiy tovardan

Matodan

Rezinkadan

O‘yin tugaganini qaysi xakam bildiradi.

Yon xaqam

Yordamchi xakam

Bosh xakam

Nazoratchi xakam

Futbol o‘yinida qo‘shimcha vaqtni qaysi hakam belgilaydi.

Nazoratchi xakam

Bosh xakam

Yon xakam

Yordamchi xakam

Futbolchining maydondagi formasi.

Krasofqa, shorti, do ‘ppi

Qo ‘lqop, buttsiy, do ‘ppi, tayoq

Buttsiy, getri, shitok

Krasofka, getri, shorti, kaska,

Futbol so‘zining ma‘nosi nima.

Qo ‘l to ‘pi

Oyoq to ‘pi

Xavo qo ‘l to ‘pi

Suv futboli

Nechanchi yildan boshlab darvozabonga qo‘lda o‘ynash ruxsat etildi.

1900 yildan

1968 yildan

1871 yildan

1886 yildan

Bosh xakam yoniga yon xakamlarni nechanchi yildan boshlab tushira boshlagan.

1991 yildan

1881 yildan

1868 yildan

1905 yildan

Evropa kuboq egalari kubogi nechanchi yildan boshlab o'tkazila boshladi.

1958 yildan

1961 yildan

1971 yildan

1981 yildan

Evropa chempionlari kubogi nechanchi yildan boshlab o'tqazila boshladi.

1904 yildan

1930 yildan

1956 yildan

1954 yildan

Oxirgi jaxon chempioni bo'lgan jamoa.

Frantsiya

Germaniya

Italiya

Brazilya

Futbol o'yinidagi qoidalarini qaysi tashqilot ishlab chiqadi.

UEFA

XOQ

FIFA

BMT

Braziliya terma jamoasi jaxon birinchiligida necha marta chempionlikni qo‘lga qiritgan.

4 marta

3 marta

5 marta

6 marta

Futbol bo‘yicha jaxon birinchiligida nechta jamoa ishtiroq etadi.

40 ta

30 ta

36 ta

32 ta

Evropa birinchiligida nechta terma jamoa final bosqichida ishtiroq etadi.

20 ta

16 ta

24 ta

32 ta

Evropa jaxon va osiyo chempionatlari qanday usulda o‘tqaziladi.

Aralash usul

Chiqib ketish usul

Aylanma usul

Xamma javob to‘gri

Birinchi bor yagona futbol o‘yin qoidalari joriy qilish qaysi qlubga tegishlidir.

Oxford

Kembrij

Dunay

To‘gri javob yo‘q

Nechanchi yilda ingliz podshosi Eduard II chi shaxar ichkarisida futbol o‘yini o‘ynashni taqiqlagan.

1313 yilda

1345 yilda

1365 yilda

1400 yilda

Italiyada futbol birinchi bor nechanchi yilda tilga olingan.

1390 yilda

1405 yilda

1400 yilda

1415 yilda

Nechanchi yilda darvoza ustunlarini birlashtirib turgan arqon erdan 2,44 m balandlikda to‘singa almashtirildi.

1871 yilda

1873 yilda

1875 yilda

1874 yilda

” Paxtakor ” jamoasi nechanchi yil avia xalokatga uchradi.

1969 yilda

1979 yilda

1981 yilda

1980 yilda

Rossiyada futbol o‘tgan asrning nechanchi yillarida paydo bo‘lgan.

65 yillarda

70 yillarda

80 yillarda

75 yillarda

Rossiyaga futbolni qaysi davlat ishchilari olib kelgan.

Italiya

Ingliz

Amerika

Ruslarning o'zlari

O'zbekistonda ilk bor paydo bo'lgan jamoalar qaysi.

Farg'ona, Xorazm

Qarshi, Surxon

Farg'ona, Toshkent

Toshkent, Chirchiq

O'zbekiston futbol birinchiligida Oliy liga jamoalari orasida eng ko'p g'olib bo'lgan jamoani aniqlang.

Neftchi

Navbaxor

Do'stlik

Paxtakor

1966 yil VIII – jaxon birinchiligida Angliyada bo'lib o'tdi, shu birinchilikda Rossiya terma jamoasi futbolchilari nechanchi o'rinni egalladilar.

3 o'rinni

2 o'rinni

4 o'rinni

6 o'rinni

Rossiya terma jamoasi futbolchilari nechanchi yilda qaysi davlatda o'tkazilgan Evropa birinchiligida 1- o'rinni egallashdilar.

1950 yilda Daniyada

1960 yilda Germaniyada

1954 yilda Argentina

1960 yilda Frantsiyada

To'p maydon burchagidagi bayroqqa tegib yana maydonga qaytsa to'pni o'ynash mumkinmi.

Xa

Yo'q

Yon hakam ko'rsatmasi bilan

Bosh hakam ko'rsatmasi bilan

Maydon burchagidagi bayroqqa to'p tegib darvozaga kirib ketsa u xolda gol xisobga olinadimi.

Yo'q

Xa

Yon hakam ko'rsatmasi bilan

Bosh hakam ko'rsatmasi bilan

Darvozani orqa qismi nima bilan to'sib qo'yiladi.

Zanjir bilan

Devor bilan

To'r bilan

Oyna bilan

So'ngi yillarda jaxonda eng kuchli futbol terma jamoasi deb qaysi davlat tan olinmoqda.

Italiya

Braziliya

Argentina

Germaniya

GLOSSARIY

O‘ZBEK TILIDAGI SHARHI	INGLIZ TILIDAGI SHARHI
O‘yinchi	Player
darvozabon / golkipер	goal keeper
Himoyachi	Back
yarimhimoyachi / xavbek	Halfback
hujumchi / forvard	Forward
Markaziy hujumchi / sentrforvard	centre forward
Pleymeyker	Playmaker
Asosiy tarkib o‘yinchisi	a player in the team
Zahira o‘yinchi	Substitute
Maydon hakami / referi	Referee
Bosh hakam	main referee
YOn hakam / laynsmen	Linesman
Hushtak	Whistle
O‘yin boshlanishi	the kick off
birinchi taym	the first half
Tanaffus	half time
ikkinchi taym	the second half
Qo‘shimcha vaqt	added time
Final hushtagi	the final whistle
to‘p	the ball
Bayroq	the flag
Aut	Out
To‘p outda	the ball is out
To‘p o‘yinda	the ball is in play
O‘yindan tashqari holat / ofsayd	Offside
Gol	a goal
penalti	penalty kick
O‘yinchi	Player

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни (1997, 29 август). Туркистон. – Тошкент. 1997. 30 август.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». Маърифат. – Тошкент. 1998. 1 апрел.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. – Тошкент. 2015. 5 сентябр.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент. “Адолат”, 2017. – 112 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони (2020. 24 январь).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017. 3 июн). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами № 23. – Тошкент. 2017. 12 июн.
7. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o'quv-mashgulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. // O'quv qo'llanma. – Toshkent. O'zDJTI, 2011. – 37 b.
8. Ақромов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. // Учебное пособие. – Тошкент. 2000.
9. Ақромов Р.А., Талипджанов А.И. Подготовка футболистов высокой квалификации. // Учебное пособие. – Тошкент. 2000.
10. Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. – М.: Терра-Спорт, 2006. – 272 с.
11. Железняк Ю.Д., Петров П.К. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. // Учеб. пособие для студ. ВУЗов. – М.: Академия, 2002. – 264 с.
12. Ibragimov M. Futbol madaniyati. // O'quv qo'llanma. – Toshkent. "Tafakkur bo'stoni", 2015. – 192 b.

13. Iseyev Sh.T. Futbolchilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish. // O'quv qo'llanma. – Toshkent. ITA-PRESS, 2014. – 460 b.
14. Isroilov Sh.X., Nurimov Z.R., Abidov Sh.U., Davletmuratov S.R., Karimov A.A. Sport va harakatli o'yinlar (Futbol). – Toshkent. "Sano-standart", 2017. – 320 b.
15. Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов. – Toshkent. 2001. – 57 с.
16. Курбонов О.А. Совершенствование точности передач и ударов мяча головой юных футболистов. // Учебное пособие. – Toshkent. 2007.
17. Qurbonov O.A. Futbol. – Toshkent. 2012.
18. Курязов Р. 11-12 ёшли футболчиларнинг жисмоний ва тактик тайёргарлиги. // Услубий кўлланма. – Toshkent. 2013.
19. Мирзамахмудов Ш. Футбол ўйини техникаси ва тактикаси. – Toshkent. "Фан", 2006. – 137 б
20. Сергеев Г.М. Техничко-тактические действия защитников. В сборнике научных трудов. – Toshkent. 2000.
21. Спортивные игры: Техника, тактика, методика обучения. // Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений. Под. ред. Ю.Д. Железняк, Ю.М. Портнова. – М.: Академия, 2004. – 520 с.
22. Спортивные игры: Техника, тактика, методика обучения. // Учеб. для учащ. колл. и акад. лиц. Под. ред. Л.Р. Айрапетьянц. – Toshkent. Илм Зиё, 2012. – 277 с.
23. Нуримов Р.И. Техничко-тактическая и физическая подготовка квалифитсированных футболистов. Учебное пособие. – Toshkent. 2001.
24. Нуримов Р.И. Футбол. Дарслик. – Toshkent. 2005.
25. Нуримов Р.И. Ёш футболчиларни техник ва тактик тайёрлаш. // Ўқув кўлланма. – Toshkent. ЎзДЖТИ, 2005. – 104 б.
26. Nurimov R.I., Abidov Sh.U., Nurimov Z.R., Davletmuratov S. R. Sport va milliy o'yinlar (Futbol). – Toshkent. ITA-PRESS, 2017. – 180 b.
27. Талипджанов А.И. Юқори малакали футболчилар тайёрлашнинг

замонавий тизими. // Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2012. – 161 б.

28. Tashpulatov F.A. Jismoniy tarbiya va sport. // O'quv qo'llanma. – Toshkent. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2019. – 200 b.

29. Холмирзаев Э. Спорт ўйинлари ва ўқитиш методикаси. – Тошкент. DIZAYN-PRESS, 2011. – 244 б.

30. Usmanxodjayev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Pulatov F.A. Milliy va harakatli o'yinlar (milliy va harakatli o'yinlar). – Toshkent. Iqtisod-Moliya, 2015. – 268 b.

31. Usmanxodjayev T.S., Pulatov A.A., Tajibayev S.S., Pulatov F.A. Sport va harakatli o'yinlar (milliy va harakatli o'yinlar). – Toshkent. Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018. – 328 b.

32. Usmanxodjayev T.S. Sport pedagogik mahoratini oshirish. – Toshkent. Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018. – 272 b.

33. Футбол. Дарслик. Р.А. Акрамовнинг умумий тахрири остида. – Тошкент. ЎзДЖТИ, 2006. – 438 б.

34. Yusupov N.M., Shermuhamedov A.T., Artiqov A.A., Bektorov O.Yo. Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol). // O'quv qo'llanma. – Toshkent. Iqtisod-Moliya, 2015. – 152 b.

MUNDARIJA

	Kirish	3
1-BOB.	FUTBOL O‘YININING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH TARIXI	4
1.1.	Futbol o‘yinining jahonda va O‘zbekistonda paydo bo‘lishi hamda rivojlanish tarixi	4
1.2.	O‘zbekistonda futbolning rivojlanishi	6
1.3.	Sobiq ittifoqda futbol	18
2-BOB.	FUTBOL BO‘YICHA MUSOBAQALAR O‘TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH	36
2.1.	Musobaqalarni o‘tkazish va tashkil etish.	36
2.2.	Musobaqalarning ahamiyati.	52
3-BOB.	FUTBOL O‘YIN TEXNIKASI VA TAKTIKASINING TASNIFI	53
3.1.	O‘yin texnikasi	53
3.2.	O‘yin taktikasi	68
3.3.	Texnika va taktikani bir-biribilan bog‘liqligi	76
3.4.	Hujum taktikasi va himoya taktikasi	84
3.5.	Himoya va hujum tizimining asosiy tasnifi	94
3.6.	O‘yin texnikasining o‘zlashtirishga qarab taktik maqsad qo‘yish	96
3.7.	Yakka tartibda guruh va jamoa bo‘lib hujumda va himoyada harakat faoliyati	106
	UMUMIY SAVOLLAR	120
	TEST SAVOLLARI	122
	GLOSSARIY	142
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	143

ОГЛАВЛЕНИЕ

	Введение	3
ГЛАВА 1.	ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ФУТБОЛЬНОЙ ИГРЫ	4
1.1.	История возникновения и развития игры в футбол в мире и в Узбекистане	4
1.2.	Развитие футбола в Узбекистане	6
1.3.	Футбол в бывшем союзе	18
ГЛАВА 2.	ПРОВЕДЕНИЕ И СУДЕЙСТВО ФУТБОЛЬНЫХ СОРЕВНОВАНИЙ	36
2.1.	Проведение и организация соревнований.	36
2.2.	Важность соревнований.	52
ГЛАВА 2.	КЛАССИФИКАЦИЯ ПРИЕМОВ И ТАКТИК ФУТБОЛЬНОЙ ИГРЫ	53
3.1.	Техника игры	53
3.2.	Тактика игры	68
3.3.	Связь между техникой и тактикой	76
3.4.	Тактика нападения и тактика защиты	84
3.5.	Базовая классификация системы защиты и нападения	94
3.6.	Постановка тактической цели в зависимости от овладения приемами игры	96
3.7.	Действия в нападении и защите индивидуально, в группах и в команде	106
	ОСНОВНЫЕ ВОПРОСЫ	120
	ТЕСТОВЫЕ ВОПРОСЫ	122
	ГЛОССАРИЙ	142
	ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА	143

MUNDARIJA

	Introduction	3
CHAPTER 1.	THE HISTORY OF THE ORIGIN AND DEVELOPMENT OF THE FOOTBALL GAME	4
1.1.	The history of the emergence and development of the game of football in the world and in Uzbekistan	4
1.2.	Development of football in Uzbekistan	6
1.3.	Football in the former union	18
CHAPTER 2.	CONDUCTING AND REFEREEING FOOTBALL COMPETITIONS	36
2.1.	Conducting and organizing competitions	36
2.2.	The importance of competitions	52
CHAPTER 3.	CLASSIFICATION OF FOOTBALL GAME TECHNIQUES AND TACTICS	53
3.1.	Game technique	53
3.2.	Game tactics	68
3.3.	The connection between technique and tactics	76
3.4.	Attack tactics and defense tactics	84
3.5.	Basic classification of defense and attack system	94
3.6.	Setting a tactical goal depending on the mastery of game techniques	96
3.7.	Actions in attack and defense individually, in groups and as a team	106
	GENERAL QUESTIONS	120
	TEST QUESTIONS	122
	GLOSSARY	142
	REFERENCES	143